

**SA'DULLO QURONOV**

**GALAKTIKADA BIR  
KUN**



[@bolalar\\_yozuvchisi](#)

2018

## IXTIROCHILAR TANLOVI

2036-yil 25-iyun. Qushlarning deraza ortidan kelayotgan chug‘ur-chug‘uri, onda-sonda uchib o‘tayotgan aeromashinalarning guvullagan tovushi tong otganidan darak bersa-da, Ahmad bunga parvo qilmas – shirin tushlar og‘ushida uxlar edi. Mana, bir necha oydirki, Ahmad bir tushni qayta-qayta ko‘radi. U tushida o‘zi ixtiro qilgan qurilmaga minib, cheksiz koinot bo‘ylab sayohatga chiqar, turli sayyora va yulduzlarga uchardi. Masalan, kecha ko‘rgan tushida Marsning o‘nqir-cho‘nqir yuzasida o‘zga sayyoraliklar bilan futbol o‘ynagan emish. Bugun esa Saturnning yo‘ldoshi Titanga qarab uchgan... Ana, uning kemasi Titanning bo‘ronli atmosferasini yorib o‘tmoqda. Kema atmosfera bosimiga arang dosh berar va juda qattiq silkinardi. Shu payt abjir fazogirimiz zudlik bilan qo‘nish kerakligini angladi...

Tush ko‘rayotgan Ahmadning o‘ngida ham qo‘l va oyoqlari xuddi mashina boshqarayotganday harakatlanar, yuzlari esa bujmayib ketardi. Endi u o‘ngida gapirishni ham boshlab yubordi:

– Yer, meni eshityapsizmi? Kema Titanga qo‘nish uchun tayyor. Qo‘nishga ruxsat bering!..

– Sizni tushundim, Yer! Albatta, himoya kamarlarini taqib olganman.

– Qo‘nish: 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1...

– Ahmad, tura qol, o‘g‘lim...

Shu payt eshik ortidan oyisining ovozi eshitgan Ahmad cho‘chib uyg‘ondi. Oyim yana ozroq uyg‘otmay turganida Titanni ham zabt etardim-a, deya afsuslandi bola.

– Nima, bugun qanaqa kunligi esingdan chiqdimi, o‘g‘lim? – hayron bo‘lib so‘radi oyisi.

Ahmad miyasida chaqmoqdek chaqnagan fikrdan sakrab

turib ketdi: «Axir, bugun yosh ixtirochilar tanlovi bo‘ladi-ku!»

Bolakay yuz-qo‘lini yuvib oshxonaga chiqqanida, dadasi va oyisi nonushta qilib o‘tirishardi. Ahmad ularga salom berib, dasturxonga yaqin o‘tirdi.

– O‘g‘lim, tezda nonushta qilib ol. Tag‘in, kech qolib yurmanglar, – dedi dadasi.

– Ha, bunaqa joylarga vaqtida borish kerak, – oyisi uning gapini ma‘qulladi.

Nonushtadan so‘ng birgalashib duo qilishdi. Keyin Ahmad o‘zi ixtiro qilgan fazoviy kema chizmalarini va kichik maketini olib, oyisiga ergashdi. Ular shaharga qatnaydigan avtobusga minib manzilga yo‘l olishdi.

Tanlov o‘tkaziladigan maktabga yetib kelishganida ishtirokchilar deyarli yig‘ilib bo‘lgan edi. Ahmad ixtirochi bolalarni ko‘rib biroz xavotirga tusha boshladi. Chunki ular bir-biridan g‘aroyib qurilmalarni ko‘tarib olishgan edi-da. Ana, biri o‘zi yasagan robotni raqsga tushiryapti. Yana biri esa iflos suvni tozalab beradigan qurilma ixtiro qilibdi, qoyil-e! «Axir, mening ixtiroyim hali faqat chizmalardan iborat. Rosa kulgiga qolaman chog‘i», – o‘yladi Ahmad.

Aslida, Ahmad dunyoning manaman degan olimlarining ham tushiga kirmagan qurilma ixtiro qilgan edi. Lekin u bunga boshqalarni ishontirish u yoqda tursin, hali o‘zini ham to‘la ishontira olmagandi. To‘g‘rida, hali bu chizmalarni biror kattaroq mutaxassis ham ko‘rmagan. Faqat maktabdagi fizika o‘qituvchisi chizmalarni ko‘rib: “Ahmad, sen dahosan!” – deb maqtadi. Maqtadi-yu, ammo, o‘sha o‘qituvchi ham hech nimani tushuna olmaganini Ahmad juda yaxshi bilardi. Lekin o‘qituvchining “dahosan” degan gapida jon bor. Chindan ham bu bolakay favqulodda kuchli zehn va idrok sohibi edi. Kichkina bo‘lishiga qaramay, fizika, matematika, kimyo va astronomiya

fanlarini professorlar darajasida o‘zlashtirgandi. Aytish mumkinki, bunday noyob bolalar faqat yuz, balki ming yilda bir dunyoga keladi. U har qanday eshitgan, ko‘rgan narsasini xotirasiga xuddi videolavhaday muhrlab olar, kitob matnlarini so‘zma-so‘z emas, balki sahifaga bir qarashning o‘zida o‘qib-anglab olardi. Agar bilsangiz, bunday iste’dodlarni “fotografik xotira” sohibi deyishadi. Ammo Ahmadning bu iqtidoridan ko‘pchilik bexabar edi. Maktabdagi aksar o‘qituvchi va o‘quvchilar uni shunchaki xayolparast, mahmadona bir bola deb bilishardi.

– O‘g‘lim, sen albatta g‘olib bo‘lasan, men bunga ishonaman, – dedi o‘g‘lidagi hayajonni sezgan ona. – Faqat, shoshilma, hakamlarga o‘z g‘oyalarini hayajonlanmay, dona-dona qilib tushuntir. Bu ixtironi amalga oshirish uchun judayam ko‘p mablag‘ kerak, shunga hozircha faqat chizmalarni olib keldim deb ayt.

Uzoq kutilgan tanlov boshlandi. Bolalar birin-ketin sahnaga ko‘tarilib, o‘z ixtirolarini taqdim qila boshladilar. Birinchi bo‘lib Ibrohim ismli bola sahnaga chiqdi.

– Men judayam ko‘p robotlar ixtirolar qilganman, – Ibrohim jiddiy ohangda gap boshladi. – Hozirda ular qishloq xo‘jaligida fermerlar tomonidan ishlatilmoqda.

– Xo‘sh, Ibrohim, bu safar bizni nima bilan lol qoldirasiz? – so‘radi katta ko‘zoynak taqib olgan hakamlardan biri.

Ibrohim biroz hozirlandi. Uning ko‘krak kerib turishidan biror olamshumul ixtiro qilganini payqash qiyin emasdi.

– Marhamat, Bog‘bonrobot bilan tanishing, – dedi Ibrohim qo‘llarini ko‘tarib.

Sahnagato‘rtg‘ildirakli, birqarashdakattachangyutgichni eslatadigan droid<sup>1</sup> chiqib keldi. Bog‘bonrobot sahna bo‘ylab

---

<sup>1</sup> Droid – android so‘zidan olingan bo‘lib, odatda, odamsimon robotlarga nisbatan qo‘llaniladi.

turli harakatlar qilib yurarkan, yosh ixtirochi g'oz turib unga ta'rif bera boshladi:

– Bog'bonrobot yirik bog'larda ishlash uchun yaratildi. Unga daraxtlarni sug'orish, hasharotlardan himoya qilish va hosilni yig'ib olish dasturlari o'rnatilgan.

So'ng Ibrohim Bog'bonrobotga o'rnatilgan uskunalarni ham birma-bir tanishtirib chiqdi:

– Bu – qurilmaning qo'llari, – u robotning ikki yonidagi uzun-uzun qo'llarga ishora qildi. – Ular bilan hosilni yig'ib olish mumkin. Temir qo'llar belkurak vazifasini ham bajaraveradi. Daraxt tagini yumshatish ham, uni sug'orish ham shu qo'llar bilan amalga oshiriladi. Robotning orqa tarafidagi maxsus naycha bilan dori purkasa bo'ladi. Bu esa mevali daraxtni hasharotlardan himoya qilish uchun zarur.

Tanlovga yig'ilganlar hayrat bilan Bog'bonrobotni kuzatishar, ularning “Otangga rahmat!”, “E, qoyil!” degan olqishlari eshitilardi. Ahmad ham, uning oyisi ham qarsak chalib yubordi. “Agar shu ixtirochi g'olib bo'lsa, xafa bo'lmayman”, – deb o'yladi qahramonimiz. Lekin u oldinda bundan-da g'aroyib ixtirolar kutib turganini hali tasavvur ham qilmagandi.

Keyin esa Muhammadislom ismli bola o'zi ixtiro qilgan ko'tarma kran modelini namoyish qildi. “Bu maxsus texnika juda og'ir va beso'naqay yuklarni bemalol osmono'par binolarning tomigacha ko'tarib bera oladi”, – dedi u. Uning aytishicha, kran ekologik sof yoqilg'ida ishlaydi va atmosferaga zaharli tutun chiqarmaydi. Shu bilan birga, ko'targichlari juda ixcham yig'ilishi bilan boshqa modellardan farq qiladi.

Ismoil ismli keyingi ishtirokchi esa dengizning sho'r suvini chuchuk suvga aylantirib beradigan filtrlovchi

qurilmasini namoyish qildi. Sayyoramizda kundan kunga chuchuk suvga ehtiyoj ortib borayotgan bir vaqtda bu qurilma odamlarga juda ham asqotishi mumkin. “Ana xolos, aql bovar qilmas narsalarni o‘ylab topishadi-ya”, – xayolidan o‘tkazdi Ahmad.

Shundan so‘ng quyosh nuridan energiya olib ishlaydigan qozon, bemorlarga qaraydigan robot va xatosiz yozdiradigan ruchkalar namoyish etildi. Nihoyat, bosh hakam:

– 7-raqamli ishtirokchi Ahmad Odilbek o‘g‘li, marhamat, chiqing, – deb qoldi.

Ahmad qattiq hayajon bilan sahnaga qarab yura boshladi. Hammaning nigohi o‘ziga qadalib turganini his qilarkan, hayajoni yanada ortdi. Hatto sahnaga chiqishda bir marta qoqilib ham oldi. Gapni nimadan boshlashni bilmay biroz turib ham qoldi. Odamlar esa unga: “Bu bola endi nima karomat ko‘rsatar ekan?” – deya tikilib turardi.

– Ismim Ahmad, yoshim o‘n ikkida, – nihoyat, so‘zga kirdi u. – Men sizlarga sayyoralararo uchar qurilma... – zalda guu-v-v etib boshlangan g‘ala-g‘ovurdan Ahmadning gaplari eshitilmay qoldi. “Nahotki, shu 12 yoshli bola fazoga uchadigan qurilma yasagan bo‘lsa?!” , “Yo‘g‘-e, bo‘lishi mumkinmas”, “Ola-a!” – derdi tanlovga kelgan ota-onalar.

Bosh hakam o‘tirganlarni tinchlantirmoqchi bo‘lib o‘rnidan turdi:

– O‘rtoqlar, bolani eshitaylik. Savollar bo‘lsa, keyin beramiz.

Bu orada Ahmadning tanasidan sovuq ter chiqa boshladi – endi undan olamshumul yangilikni kutib turgan bu odamlarga nima deydi? O‘z loyihasini tushuntirishning imkoni bo‘larmikan?! Bordi-yu uning qarashlari, hisob-kitoblari xato bo‘lib chiqsa-chi?! Shu kabi o‘ylar bilan u gapida davom eta boshladi:

– Men hozircha shu qurilmaning chizmalarini olib kelganman...

U shunday deyishi bilan zalda yana g‘ala-g‘ovur boshlandi. Ixtirochi bolalarning “E, shunga shunchami?”, “Fantastik xayollarim demaysanmi, o‘rtoq” kabi gaplari Ahmadga ham eshitalardi. Shunda u ko‘zlari bilan odamlar orasida o‘tirgan oyisini izlab topdi. Onasining qarashlaridan: “Hechqisi yo‘q, ularga e‘tibor qilmay so‘zingda davom et”, – degan ma‘noni uqdi. Shundan keyin, Ahmad o‘zini qo‘lga olib, sahnaga o‘rnatilgan monitorga dadil yaqinlashdi. U monitor tugmalarini bosib bir nechta chizma suratlarini kattalashtirib ko‘rsata boshladi.

– Mana bu chizmada, – Ahmad titrayotgan qo‘llarini monitordagi birinchi chizmaga uzatdi, – uchar qurilmaning umumiy ko‘rinishi tasvirlangan.

Birdan zalga sukunat cho‘kdi. Endi hamma jon qulog‘i bilan Ahmadni eshita boshlagandi.

– Ko‘rib turganingizday, qurilmani odatiy raketa eltuvchisi fazoga olib chiqadi. Shundan so‘ng qurilma raketadan ajralib, sayyoralararo harakatni boshlashi mumkin.

Chizmadagi suratlariga qarab biror nimani tushunish qiyin edi. Chunki unda turli matematik belgi va formulalar, geometrik shakllar g‘ij-g‘ij edi. Ammo bir qarashda bu narsalar juda ham malakali muhandis tomonidan yaratilgan chizmaga o‘xshab ketardi.

– Uchar qurilma raketadan ajralib, – davom etdi qahramonimiz, – kichik energiya evaziga fazodagi gravitatsiya to‘lqiniga tushib oladi. Gravitatsiya, ya‘ni butun olam tortishish qonuniga ko‘ra buni amalga oshirish mumkin. Nyuton va Eynshteynning gravitatsiya haqidagi nazariyalari ham buni tasdiqlaydi. Gravitatsiya butun olamni harakatlantirib turadigan ko‘rinmas kuchdir.

Fazoda esa gravitatsiyaning xuddi daryoga o‘xshash to‘lqinlari bor. Mening kemam ana shu to‘lqinga tushib olsa bas, fazoning istalgan nuqtasiga katta tezlikda uchib ketaveradi. – U shunday deb monitorda o‘zining hisob-kitoblari tushirilgan chizmani ko‘rsata boshladi. – Kvant fizikasining asoslari shuni ko‘rsatadiki...

– Shoshma, bolakay! – Ahmadning gapini ko‘zoynak taqqan hakam to‘xtatdi. – To‘g‘risi, bu chizmalar va sening gaplaringga tushunib bo‘lmayapti. Sodda qilib aytganda, bu kema fazoda o‘z-o‘zidan, hech qanday raketa dvigatelsiz harakatlanadi, shundaymi?

– Xuddi shunday! Mana, bizning Yer sayyoramiz ham Quyosh atrofida hech qanday dvigatelsiz soniyasiga 30 km tezlik bilan uchib yuradi-ku. Bu to‘pponchadan otilgan o‘qdan 100-marta tezroq degani, axir!

Endi tanlovga yig‘ilganlarning bari bir-biriga o‘ychan qarab qolishgandi. Zalda “Mushtdek bolaning qulog‘imizga lag‘mon ilishini qarang”, “Sal xayolparast bola ekanmi”, “G‘irt bo‘lmagan gap” kabi pichir-pichirlar ham eshitilar edi. Ba‘zilar esa Ahmadga hayrat bilan boqar, ularni uchar qurilma emas, balki o‘n ikki yoshli bolaning aql-zakovati, yoshiga mos bo‘lmagan gap-so‘zlari ajablantirar edi.

– Men hozirda uchar qurilmaning bir gravitatsiya to‘lqinidan boshqa bir to‘lqinga o‘tib, o‘z yo‘nalishini o‘zgartirishi masalasida izlanyapman.

– Buning iloji yo‘q! – dedi baland ovozda o‘tirganlar orasida birov.

Eng oxirgi qatordan kelgan bu ovoz egasini izlab hamma orqaga qaradi. Bu bo‘ylari past, juda ham ozg‘in va xunuk bir odam edi.

– Bolakay, nisbiylik nazariyasiga ko‘ra, sen aytgan qurilmani fazoga uchirish mumkin, – tushuntira boshladi pakana odam. – Lekin uni boshqarib bo‘lmay qoladi.



Aniqrog‘i, yerlik muhandislarning malakasi hali bunday qurilma yaratishga o‘zlasiz qiladi.

O‘zicha bilag‘onlik qilayotgan bu g‘alati odamga hamma taajjublanib qarab qoldi. Bolalar esa yaxshi boshlangan tanlovning bunaqa tus olganidan xafa bo‘lib qovoqlarini uyib olishgandi.

– Nega endi?! – e’tiroz bildirdi Ahmad.

– Nega desang, yerliklar atom fizikasi va gravitatsiya asoslarini hali unchalik tushunishmaydi. Balki, ellik yoki yuz yildan so‘ng bu boradagi bilimlaringiz ortib qolar...

– Bo‘ldi, bas qilinglar, – asabiy holda gapni bo‘ldi ko‘zoynakli hakam – yerliklar, yerliklar deysiz... Nima, siz osmondan tushganmisiz?!

Hakam shunday dedi-yu bir nuqtaga qarab qotib qoldi. Chunki hozirgina odamlar orasida unga angrayib qarab turgan mahmadona odam xuddi yer yutganday g‘oyib bo‘lgandi. U ko‘zoynagini yechib, ko‘zlarini ishqalab tag‘in razm soldi – pakana odam haqiqatan ham yo‘q edi. Hakam chuqur xo‘rsinib joyiga o‘tirarkan, stol ustidagi suvga qo‘lini uzatib bir-ikki qultum suv ichdi. So‘ng ayb ish qilib qo‘ygan boladay boshini egib o‘tirib qoldi.

Zalda yana biroz sukunat hukm surdi. Jimlikni boshqa bir hakam buzdi:

– Menimcha, Ahmadni yetarlicha eshitdik. To‘g‘risi, bu hali xomxayol, pishmagan narsa ekan-da...

Hakamning gapini tanlov ishtirokchilari ham ma‘qullay boshlashdi.

– O‘rtoq, bo‘ldi, ko‘p gapirding, endi bizga ham vaqt yetishi kerak-ku! – yalinish ohangida gapirdi ishtirokchilardan biri.

Chorasiz qolgan Ahmad sahnadan xomush holda tusha boshladi. Ba‘zilar uning ustidan kulsa, ayrimlar unga achinib qarardi. Qahramonimiz esa bundan qattiq xafa

bo‘ldi. Uning yuzidagi bu xomushlik tanlov yakuniga qadar arimadi.

O‘sha kuni Bog‘bonroboti bilan Ibrohim g‘olib bo‘ldi. Suvni tozalab beradigan uskunani yasagan bola 2-o‘rinni, xatosiz yozdiradigan ruchka muallifi esa 3-o‘rinni egalladi. Ahmadni eslab ham qo‘yishmadi. U oyisi bilan uyga qaytarkan, yo‘l bo‘yi churq etmadi. Uyga kelganida chizmalarni yirtib yubormoqchi bo‘ldi. Ammo oyisi bunga yo‘l qo‘ymadi va o‘g‘lini tinchlantirishga urindi. Kechki ovqatdan so‘ng Ahmad ertaroq uxlamoqchi ekanini aytib xonasiga yo‘l oldi. U o‘z yotog‘ida shiftga termilganча xayol surib yotgan bir vaqtda eshikni ohista chertib oyisi kirib keldi.

– O‘g‘lim, bir tanlovni deb bunchalik xafa bo‘lishing yaxshimas, – dedi ona o‘g‘lining boshini silarkan.

– Bilmadim... Oyi, axir, ular ustimdan kulishdi-ku.

– Yo‘q, ular seni tushunishmadi, xolos. Sen, yaxshisi, uchar qurilmang ustida yanayam jiddiy bosh qotir. O‘zing aytganding-ku hali kamchiliklari ko‘p deb.

– Ha, shunaqa.

– Xafa bo‘lma, dadangga aytdim, chizmalaringni yaxshi mutaxassislarga ko‘rsatamiz ekan.

– Zo‘r-ku, rahmat, oyijon, – endi Ahmadning yuziga tabassum yugurdi.

– Mayli, endi uxla, bugun charchagansan.

Ona o‘g‘lining peshonasidan o‘pib o‘rnidan turdi va eshik tomon yura boshladi.

– Oyijon, – dedi Ahmad past ovozdа.

– Ha, o‘g‘lim.

– Anavi g‘alati odam nega “yerliklar” deb gapirdi?

– To‘g‘risi, men ham unga tushunmadim. Telbaroq odam bo‘lsa kerak-da. Yaxshisi, ahamiyat berma, – onasi shunday deb xonani tark etdi.

Qahramonimiz bugungi voqealarni birma-bir xayoldan o'tkazarkan, aslida, kunning juda ham qiziq o'tganini tushunib yetdi. Kayfiyati biroz bo'lsa-da ko'tarildi. U ertaga qiladigan ishlarini rejalashtirarkan, ko'zlari sekin uyquga ketdi.

## PAKANA “ODAM” KIM?

Yarim tun. Ahmad xonasida kimdir yurganini sezib uyg'onib ketdi. Ko'zini ochganida kompyuteri yoqilgan, begona bir odam undan nimalarnidir qidirayotgan edi.

– Ey, siz kimsiz?! – qo'rquvdan Ahmadning ovozi bazo'r chiqdi.

– Iya, uyg'otib yubordimmi, bolakay?

Bo'lishi mumkin emas. Axir bu o'sha, tanlovdagi pakana odam-ku! Qiziq, u bu yerda nima qilib yurgan ekan?! Ahmadning kompyuteri unga nimaga kerak bo'lib qoldi?! O'zi, umuman, u bu yerni qanday topib keldi?! Qahramonimizning xayollari alg'ov-dalg'ov bo'lib ketgandi.

Pakana odam kompyuterdagi qidiruv ishlarini to'xtatib, Ahmad tomonga butun tanasi bilan o'girildi. U aybdorlik hissi bilan boshini quyiroq egib dedi:

– Qo'rqma, bolakay. Men senga yomonlik qilmayman.

– Unda bu yerda nima qilib yuribsiz?!

– Men Quyosh tizimi sayyoralariga judayam jiddiy topshiriq bilan yuborilganman. Lekin endi shu topshiriqni bajarishim uchun sening yordaming kerakka o'xshaydi.

– Qayerdan?! – Ahmadning ovozi deyarli bo'g'ilib qoldi.

– Men sizlar Sirius deb ataydigan yulduz tizimidagi sayyoralarning biridan uchib keldim.

Ahmad bir muddat nima qilarini bilmay pakana odamga termilib qoldi. U turib qochmoqchi ham bo‘ldi, lekin qattiq qo‘rqib ketganidan tanasi o‘ziga bo‘ysunmayotganday edi.

– O‘zga sayyoraliklarga o‘xshamaysiz-ku! – hayron bo‘ldi Ahmad.

– Ha-ya, bu maxsus niqobni yerliklar e’tiborini tortmaslik uchun kiyib olganman. Istasang, mana, niqobimni yechaman.

Pakana odam shunday deb qo‘llaridan boshlab maxsus kiyimni yechishga tushdi. Haqiqatan ham, bu qo‘llar odamnikiga sira o‘xshamasdi. Moviy rangdagi ozg‘in, uzun-uzun barmoqlar dengizdagi sakkizoyoqning “oyoq”larini eslatib yuborardi.

– Bo‘ldi, to‘xtating! – Ahmad qolganini ko‘rishni istamadi. Chunki pakana “odam” tobora qo‘rqinchli maxluqqa aylanib borayotgan edi. Bolani qo‘rqitib yuborganini sezgan o‘zga sayyoralik darhol maxsus kiyimini qayta kiyib oldi va:

– Sen qo‘rqma. Men hatto seni uyg‘otib yuborish niyatida ham emasdim. Lekin haligi chizmalarni hech topolmayapman, – dedi.

– Chizmalar?!

– Ha, ertalab sen tanlovda ko‘rsatgan uchar qurilmaning chizmalarida.

– Siz ularni nima qilasiz?!

– Kel, hammasini bir boshidan so‘zlab beraman, – pakana odam kursini biroz surib Ahmadga yaqinroq o‘tirdi.

– Men kelgan sayyora Salmir deb ataladi. Biz muhim vazifa bilan Quyosh tizimiga uchayotganimizda 10 kishi edik. Ammo Quyosh tizimiga yaqinlashib qolganimizda koinot qaroqchilari – gikslarning ta‘qibiga uhradik. Kyemamiz judayam tezkor bo‘lgani uchun bu ta‘qibdan osongina qutuldik. Ammo boshqa bir gikslar to‘dasi Neptun

sayyorasi yaqinida ulkan qopqon bilan bizni poylab turgan ekan. Ularning hiylasi ish berdi – kemamizni qamal qilib, ekipaj a’zolarini garovga olishdi. Birgina men kema kema zahira kapsulasida qochib qutuldim, xolos. Endi esa sening ixtiroying asosida yangi kema yasab, topshiriqni yakunlashim shart. Aks holda, sayyoramiz halokatga uchraydi!

– Mening ixtiroyim?! – Ahmad quloqlariga ishongisi kelmasdi.

– Ha! Sening chizmalarining asosida kema yasay olsam, Quyosh tizimidagi sayyoralarni o’rganib chiqishim va vatanim Salmirga qaytishim mumkin bo’ladi.

– Axir, o’zingiz buning imkoni yo’q demaganmidingiz?!

– Bolakay, sening chizmalarida xatoliklar ko’p. Ammo, tan olish kerak, sen judayam noyob kemaning loyihasini yarata olgansan. To’g’risi, hali bunga o’xshash qurilma galaktikada yaratilmagan bo’lsa kerak. Endi mening bilimlarim va sening zehningni birlashtirsak bas. Kema uchun zarur ehtiyot qismlarni esa men uchib kelgan zahira kapsulasidan olishimiz mumkin.

Ahmad endi bu voqealarni tush bo’lsa kerak deb o’ylay boshladi. U pakana odamga bildirmay yopinchi g’i ostidan qornini chimchilab ko’rdi: “Og’riq bor! Demak, bu tush emas”, – xayolidan o’tkazdi u. Xo’sh, unda eshitib turganlari rost ekan-da?! Endi nima qilsin, axir u hali yosh bola-ku!

– Agar sizga chizmalarimni bermasam-chi? – nihoyat, Ahmad ham dadillashdi.

Pakana “odam” esa undan bunday savolni kutmagandi. U judayam xomush holda javob berdi:

– Agar chizmalariningni bermasang, salmirliklarning oxirgi umidi ham so’nadi. Bilsang, hozir Salmir sayyorasining 50 milliardlik aholisi taqdiri shu chizmalarga bog’liq bo’lib turibdi.

– Ellik milliard?!

– Ha, – xomush bosh irg‘adi kelgindi.

– Munday, tushuntiribroq gapiring! Nima gap o‘zi? – Ahmad yotgan joyidan turib, pakana “odam”ning yoniga kelib o‘tirib oldi.

– Mana, yuz yildirki, Salmir sayyorasining yadrosi so‘na boshlagan. Shu tufayli sayyoramiz tabiati ham o‘zgarib ketdi. O‘simliklar qovjirab, dengiz va daryolar quriy boshladi. Atmosferada kislorod yetishmay qolgan. Hatto toza havoni ham sun‘iy ravishda hosil qilyapmiz. Salmirliklar turli kasalliklarga chalinib halok bo‘lishmoqda. Ahvol shu zaylda davom etib, yadro butunlay so‘nib qolsa, sayyoramizdagi hayot ham yo‘q bo‘lib ketadi!

Ahmad geologiya va astrofizika fanlaridan ham chuqur bilimga ega edi. Shuning uchun u sayyora yadrosining so‘nishi qanday oqibatlariga olib kelishini yaxshi bilardi. U yadro haqidagi bilganlarini xayolidan o‘tkaza boshladi.

\*\*\*

*Yadroni tushunish uchun eng yaxshi misol tuxum sarig‘idir. Agar qaynatilgan tuxumni qoq o‘rtasidan kesib qaralsa, markazda tuxum sarig‘i turganini ko‘ramiz. Xuddi shunday, Yerni ham o‘rtasidan kesish mumkin bo‘lganida edi, odamlar markazdagi yadroni ko‘ra olgan bo‘lishardi.*

*Sayyora yadrosi suyuq holdagi qaynoq erigan metall va boshqa turli moddalardan tashkil topgan narsadir. U xuddi Quyosh kabi lovullab turadi. Yadrolar sayyoralarning markazida joylashadi. Masalan, Yer yadrosi bizdan 2900 km chuqurlikda joylashgan bo‘lib, harorati 6000°C issiqlikda. Boshqacha aytganda, sayyoramiz yadrosi Quyoshning Yer ostidagi kichkinagina ko‘rinishini eslatadi.*

*Yadroni Yerning energiya manbai deb atash mumkin. Chunki u Yerdagi haroratni mo‘tadil tutib turadi. Yer*

*silkinishi, tog'larning o'sib chiqishi, vulqon otilishlari shu yadro tufayli sodir bo'ladi. Yadro yana Yerning ko'zga ko'rinmas magnit maydonini hosil qiladi. Bu magnit maydoni Yer atmosferasini Quyoshdan keladigan turli zararli nurlar – radioaktiv bo'ronlardan himoya qilib turadi. Agar shu magnit maydoni yo'q bo'lib qolsa, atmosferamiz yemirilib, kislorod, ya'ni toza havo ham yo'q bo'lib ketadi. Yerdagi hayot esa kislodorsiz bir daqiqa ham davom etmaydi...*

Ahmad o'z xayollaridan o'zi qo'rqib ketdi. “Nahotki, pakana «odam»ning gaplari rost bo'lsa?! Agar shunday bo'lsa, butun sayyora aholisi qirilib ketadi-ku! Yo'q, bu “odam”ga yordam berish kerak», – o'yladi u.

– Mayli, chizmalarni sizga berganim bo'lsin.

– Rahmat, do'stim! Yerliklarning saxovatli ekaniga ishonardim, – pakana “odam”ning ko'zlari yoshlanib ketdi.

– Unda vaqtni boy bermaylik, chizmalar qani?

– Chizmalarni oyim yashirib qo'ygandilar. Sal bo'lmasa, ularni yirtib yuborar ekanman.

Bu gapdan keyin pakana “odam”ning ko'zlari kosasidan chiqib ketay dedi: “Xayriyatki, Ahmadning oyisi o'g'lidan chizmalarni tortib olibdi. Aks holda, sayyoramizning xoli nima kechardi-ya?!” – xayolidan o'tkazdi u.

– Endi tong otishini kutishimizga to'g'ri keladi. Ertalab oyimdan chizmalarni olib beraman, – dedi Ahmad.

– Afsus, mayli, kutamiz.

– Qarang, qo'rqib ketganimdan ismingizni so'rash ham yodimdan ko'tarilibdi.

– Mening ismim Margol Vu Dagudo. Lekin sen meni Margol deb chaqirishing mumkin, – dedi Margol Ahmadning qo'llarini siqib qo'yishga hozirlanib.

– Tanishganimdan xursandman, Margol, – dedi Ahmad ham yangi do'stining qo'llarini siqarkan.

Shunday qilib, Ahmad “pakana” odam bilan tanishib oldi. Margolning aytishicha, u hali yosh, endigina 120 ga to‘libdi. Buni eshitib Ahmad biroz taajjublandi. Ammo Margolning o‘z sayyorasi haqidagi hikoyasidan so‘ng bariga tushunib yetdi. Gap shundaki, Salmir sayyorasi o‘z orbitasida juda tez aylanar ekan. Masalan, bizning sayyora Quyosh atrofini 365 kunda aylanib chiqsa, Salmir Sirius yulduzi atrofida 90 kun aylanadi. Ya’ni Salmirning bir yili bizdagiday 365 kunga emas, balki 90 kunga teng. Demak, Yer hisobi bo‘yicha Margol 30 yoshda.

Ular shu tariqa biroz suhbat qurib o‘tirishdi. So‘ng ertaga qiladigan ishlari ko‘p ekani yodiga tushgan Margol ketishga hozirlik ko‘rdi.

– Agar ruxsat bersang, tong otishini uyingizning tomida kutib tursam. Mening bu yerdaligimni sendan boshqa hech kim bilmasligi kerak.

– Men ham shu fikrdaman. Ayniqsa, ota-onam bundan xabar topishini sira istamayman.

Margol Ahmadga xayrli tun tilab tomga chiqib ketdi.

## **KOINOT QAROQCHILARINING KEMASIDA**

Koinotning Quyosh tizimidan bir yorug‘lik yili uzoqligidagi joyida qaroqchi gikslarning judayam bahaybat, taxminan Oy hajmidek keladigan kemasi uchib yurardi. Aslida, bu kemani gikslarning yagona qarorgohi – vatani deyish ham mumkin. Chunki bundan ming yil oldin Giks sayyorasi “Katta atomlar urushi” vaqtida butunlay yo‘q bo‘lib ketgan. O‘shanda Giks sayyorasining aholisi o‘zaro nizo tufayli 100-yilga yaqin urush qilgan va bu urush oxir-oqibat davlatlarning yadroviy qurollarni ishlatishigacha yetib borgan. Shu tariqa gikslar o‘z sayyorasini o‘zlari



halok qilishgan. Urushda omon qolganlar esa ulkan kema yaratib, sayyorani tark etgan. Mana, ming yildirki, gikslar qaroqchilik orqasidan kun ko‘rib kelishadi.

Ayni damda kemada qirq millionga yaqin tish-tirnog‘igacha qurollangan qaroqchilar ko‘zi qonga to‘lganicha yangi hujumlarni kutib o‘tirishibdi. Ularga qolsa har kuni, har soniyada jang bo‘lsa, galaktika xalqlarini qirg‘in qilishsa. Bo‘yi ikki yarim metr, og‘irligi esa uch yuz kilogramm keladigan bu maxluqlar juda ham qo‘rqinchli edi. Ular egniga doim qora libos va zirhlar kiyib yurishar, yuzlarini esa qo‘rqinchli niqob bilan yashirishardi.

Bugun qaroqchilarning kattasi general Obma uchun judayam muhim kun. Chunki Obma bugun o‘z to‘dalaridan biri mashhur Salmir sayyorasiga tegishli yulduzlararo uchar kemani qo‘lga olgani haqida eshitdi. U bundan judayam xursand bo‘ldi. Chunki endi uning qo‘shinida ham tezkor yulduzlararo uchar kema bo‘ladi. Bunday kema bilan bir yulduzdan yaqinroq bo‘lgan ikkinchi yulduzga 10 – 20 kunda yetib borish mumkin. Har qalay, bu o‘zining yulduzdan yulduzgacha 3-4 oy uchadigan kemasidan ancha yaxshi edi-da. Bundan tashqari, Obma salmirlik olimlar abadiy energiya generatorini ixtiro qilishgani haqida ham eshitgandi. Ko‘pchilik bu generatorni afsona desa ham, negadir Obma uning borligiga ishonadi. Qo‘mondon ana shunday xayollar bilan boshqaruv kabinasida yurarkan, mulozimlardan biri uning yoniga shoshib kirib keldi.

– Qo‘ling qayrilmasin, general (gikslar shunday salomlashishadi. Chunki ular uchun eng og‘ir jazo bu asirga tushib, qo‘li orqaga qayrilish edi), senga xushxabar bor! – dedi mulozim.

– Tezroq gapir!

– Salmirlarning kemasini olib kelishdi.

– Juda soz! – xursand bo‘lib ketdi Obma. – Kepadagi

fazogirlar orasida olimlari ham bo'lsa kerak. Ularni tezda so'roqqa tut. Quyosh tizimiga nima maqsadda kelishganini aniqla. Agar gapirishmasa, qiynoqqa sol!

– Xo'p bo'ladi.

Generalidan buyruq olgan mulozim xonadan yugurib chiqib ketdi.

## FAZO KEMASINING LOYIHASI

Tong otdi. Nonushtadan so'ng Ahmadning birinchi qilgan ishi oyisidan chizmalarni qaytarib olish bo'ldi. O'g'lining yana yaxshi kayfiyatda uyg'onganini ko'rgan ota-ona judayam xursand bo'lishdi.

Ahmad chizmalarni olib xonasiga qaytganida Margol allaqachon tomdan tushgan va yosh xaloskorini kutib o'tirgan ekan.

– Xayrli tong, Margol!

– Xayrli tong, Ahmad!

– Mana chizmalar. Bunisi esa oyim pishirgan mazali pirog.

Margolning qorni judayam ochqab ketgan, shekilli, bir zunda pirogni paqqos tushirdi. Shundan so'ng u chizmalarni qo'liga oldi.

– Pirog uchun rahmat! – u chizmadan ko'zini uzmay gapira boshladi. – Xo'sh, xo'sh... mana bu kamchiliklarni tuzatish mumkin. Bu joyga o'zim bilan olib kelgan generatorni o'rnataman. Qoyil, aql bovar qilmaydi!..

O'zga sayyoralik hayratini yashira olmas, u bir bolaga, bir chizmalarga qarab g'alati harakatlar qilardi.

– Bu... Bularni qanday qilib o'ylab topgansan?! Men hatto AQSHdagi NASA muhandislarining maxfiy bo'limida ham

bunga o‘xshash qurilmani topa olmagandim. Qoyil, qoyil!..

Margol chizmalarni varaqlar ekan, Ahmad uni jilmayganча kuzatdi. Hatto o‘zga sayyoralik bilimdon ham Ahmadning chizmalaridan hayratlanmoqda edi. Demak, u xato qilmagan. Bu uchar qurilmani yaratsa bo‘lar ekan!

– Bolakay, men seni tanlovda uchratganimdayoq anchadan buyon izlab yurgan odamimni topganimni sezgandim. Bunaqasini hatto Salmir sayyorasining galaktikaga mashhur olimlari ham yaratmagan, – dedi uchinchi chizmani ko‘rib bo‘lgan Margol boshini ko‘tarib. Ammo to‘rtinchi sahifaga kelganda o‘ylanib qoldi. – Shoshma-shoshma, – hayron bo‘ldi Margol. – Mana bu joyi... Kemaning gravitatsiya to‘lqinida muvozanatni saqlab turishi masalasini oxiriga yetkazmabsan-ku!

– Ha-ya, bilasizmi, bu judayam murakkab boshqotirma. Yaxshisi, buni ham o‘zingiz qila qoling, – javob berdi Ahmad.

Margol biroz o‘ylanib, keyin so‘zlay boshladi:

– O‘zing o‘ylab ko‘r, agar shu narsalarni qila olganimda sendan chizmalarni so‘rab, yalinib o‘tirarmidim?..

– Axir, o‘zingiz yerliklarning bilimi juda kam demaganmidingiz?

– To‘g‘riku-ya, lekin shunday deganimda sening bilim darajang haqida unchalik yaxshi bilmas edim-da!..

– Xo‘p, mayli, lekin bunga ko‘p vaqt kerak. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”ning boshqa nusxalarini ham ko‘rib chiqishim lozim.

– Nimani ko‘raman deysan?

– “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” – buyuk olim Mirzo Ulug‘bek tomonidan tuzilgan astronomik jadval. Bu kitob 1437-yilda nashr qilingan. Unda 1018 ta yulduz haqida ma‘lumot berilgan. Men sayyoralarining koordinatasi, hajmi, massasi,

tortishish kuchi, umuman, hamma jihatlarini shu kitob asosida hisob-kitob qilib chiqishimga to'g'ri keladi. Shundan keyingina gravitatsiya to'liqida muvozanatni saqlash masalasini hal qilish mumkin, – tushuntirdi Ahmad.

– Sen buncha ma'lumotni shu eski kitobdan olmoqchimisani? – hayron bo'ldi Margol.

– Eski bo'lgani bilan u mukammal jadval! Qaytaga, zamonaviy olimlar ko'p narsada xato qilishgan. Faqat buni o'zlari bilishmaydi.

– Unda yaxshi! Xullas, sen shu ish bilan shug'ullan, men esa kemanding boshqaruv tizimi haqida o'ylayman. Hech bo'lmasa, shunisi qo'limdan kelar ekan-ku! – dedi Margol kulib.

– Aytganday, energiya masalasi-chi?! Quyosh batareyalarining quvvati yetarli bo'larmikan? Bu muammoni ham hal qilish shart, – deya o'ylanib qoldi Ahmad.

– Kemanding elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji borasida bosh qotirmasak ham bo'ladi. Chunki men o'zim bilan salmirliliklarning olamshumul ixtirosi – abadiy energiya generatorini olib kelganman. Bu generator ishlab chiqargan elektr quvvati hech qachon kamaymaydi va tugamaydi, – dedi Margol ishga kirishar ekan.

– Qoyil!.. Men bo'lsam bunday generatorni yaratib bo'lmaydi deb o'ylar ekanman, – hayratini yashira olmadi Ahmad.

– Bizning olimlar bu generator ustida 100-yildan ko'proq izlanishgan. Faqat uning quvvati unchalik katta emas. Ammo kichik kemanding elektr quvvatiga bo'lgan ehtiyojini qondira oladi. Hozircha bunday generator koinotda bitta! – Margol shunday deb ko'rinishidan “kubik-rubik” o'yinchog'ini eslatib yuboradigan kichkinagina qizil narsani ko'rsatdi.

– Demak, kema shu kichkina qutichadan quvvat olar ekan-da?!

– Ha, men faqat Yerdan ko‘tarilib olishimiz uchun raketa yoqilg‘isini tayyorlasam bas. Bu ish ham menga qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Shu tarzda Ahmad va Margol hamkorlikda ishlay boshladilar. Margol asosan tomda, qahramonimiz esa o‘z xonasida bo‘lgani uchun o‘tgan kunlar davomida kattalar uyda begona “odam” borligini sezishmadi. Yozgi ta‘til bo‘lgani uchun Ahmad bor vaqtini Margolga yordam berish bilan o‘tkazar edi. Bu orada ular ilmiy masalalarda talashib-tortishib, bir-birlariga o‘zlarining bilimlarini o‘rgatib, koinot haqida suhbatlashib ishlashardi. Margol kichkina do‘stiga koinot haqida yerliklarga noma‘lum bo‘lgan ko‘p narsalar haqida so‘zlab berdi. U: “Somon yo‘li galaktikasida bizning olimlar eng kuchli hisoblanadi”, – deb maqtanib qo‘yardi. Margolning aytishicha, bizning galaktikadan boshqa galaktikalarda ham hayot bo‘lishi mumkin ekan. Lekin hali hech kim o‘zga galaktikaga borishning uddasidan chiqmagan. Hatto o‘zimizning galaktika ham hali to‘liq o‘rganilmagan ekan. Chunki Somon yo‘li galaktikasining o‘zida 200 milliarddan ortiq yulduz bor-da!

Lekin Margolning koinotning yaralishi haqidagi so‘zlari yerlik olimlarning ilmiy tadqiqotlariga juda yaqin edi. Har qalay, ikki do‘stning fikri “Ulkan portlash” masalasida bir-biriga yaqin keldi.

\*\*\*

*Tasavvur qila olasizmi, butun koinot igna uchidan ham kichkina narsaning portlashidan vujudga kelgan. Bu narsa shu qadar kichkina bo‘lganki, agar hozir yoningizda bo‘lsa, ko‘z tugul, hatto mikroskop bilan ham uni topa olmagan bo‘lar edingiz. Lekin qanday qilib undan butun koinot yaraldi? Shu mitti zarradan sayyoralar, yulduzlar va galaktikalar qanday o‘sib chiqdi? Bu savollar haligacha*

*jumboq bo‘lib qolmoqda. Olimlar faqat shu narsaning 13,8 milliard yil oldin portlagani va soniya o‘tar-o‘tmas katta bir borliqning paydo bo‘lganini aniqlashgan, xolos. Bu hodisa fanda “Ulkan portlash” deb ataladi.*

*O‘sha portlashdan so‘ng koinot quyuq chang va gazlardan iborat bo‘lgan. Bu, aslida, mayda zarra – atomlarning quyuq holati edi. Undagi harorat Quyoshnikidan million marta issiqroq bo‘lgan. Milliard yillar davomida bu mayda zarralar bir-biriga qo‘shilib ulkan yulduzlarni hosil qilgan. So‘ng sayyoralar paydo bo‘lgan. Hozir ham galaktikamizning qaysidir burchaklarida mayda zarralar birlashib, yulduzlar yaralmoqda. Koinot esa kun sayin yanada kengaymoqda. Ya’ni “Ulkan portlash” hali tugagan emas. Biz esa shu portlashning ichida hayot kechiryapmiz.*

*Ingliz olimi Stiven Xokingning aytishicha, qachonlardir koinot kengayishdan to‘xtaydi va qisqarishni boshlaydi. O‘shanda hamma jismlar siqila-siqila yana ignaning uchidan ham kichkina nuqtaga birlashar ekan. Bu hodisa fanda “Ulkan siqilish” nomi bilan mashhur.*

Xullas, bir hafta deganda fazo kemasining loyihasi ham tayyor bo‘ldi. Kechki ovqatdan so‘ng har doimgiday muhandislar uchrashdilar va qilgan ishlarini sarhisob qildilar.

– Menimcha, kema loyihasi tayyor! – dedi Ahmad barcha chizmalarni ko‘zdan kechirib chiqarkan.

– Men ham shunday deb o‘ylayman. Endi uni qurib bitkazish qoldi. Ammo bu ham oson ish emas, – dedi Margol.

Qahramonlarimiz shu kuni fazo kemasining qurilishiga doir masalalarni kelishib olib, so‘ng xayrlashishdi.

## FAZO KEMASINING QURILISHI

Fazoviy kemani yasash uchun, avvalo, odamlar koʻzidan pana joy topish kerak. Ahmadlarning uyi qishloq joyda boʻlgani uchun bu unchalik qiyinchilik tugʻdirmadi. Qahramonlarimizga yozgi taʼtilni oʻtkazish uchun togʻga koʻchib ketishgan Abdukarim amakining tomorqasi judayam mos edi. Abdukarim amaki ketar vaqtida Ahmaddan bu uyga koʻz-quloq boʻlib turishni, hovlidagi gullar va daraxtlarni sugʻorib turishni iltimos qilgan edi.

– Bu uy bironing omonati, – dedi Ahmad sal ikkilanib.

– Qoʻrqma, uni judayam ozoda saqlashga vaʼda beraman, – ishonch bilan gapirdi Margol.

Margol shu kuni oʻzi uchib kelgan zaxira kapsulasini olib kelish uchun yoʻlga chiqdi. Aytishicha, kapsula Qizilqum choʻliga tushgan ekan. Bu zahira kapsulasi Salmirdan uchirilgan yulduzlararo kemaga tegishli edi. Kapsula kemada favqulodda vaziyatlar sodir boʻlganida ekipajning jon saqlab qolishi uchun moʻljallangan. Koʻrinishidan tuxumsimon qurilma fazogirni yaqin sayyoraga olib borib qoʻyishi mumkin edi. Gikslar salmirliliklar kemasiga hujum qilganida ekipaj maxfiy hujjatlarni va qurilmalarni ana shu kapsulaga joyladi. Margol eng aqlli va abjir fazogir boʻlgani uchun kema kapitani masʼuliyatli vazifani unga ishonib topshirib dedi: “Zudlik bilan zaxira kapsulaga minib qochib qol! Ammo yodingda boʻlsin, endi salmirliliklarning bor umidi faqat sendan”.

Margol Qizilqum choʻliga ketganicha uch kun qorasini koʻrsatmadi. Axiyri, toʻrtinchi kun deganda ulkan “tuxum”ni yelkasiga ortib olgan kichkinagina Margol Abdukarim amakining hovlisiga kirib keldi.

– Nima, shu katta “tuxum”ni yelkangizda koʻtarib kelyapsizmi? – hayron boʻlib soʻradi Ahmad.

– Iloj qancha? – xotirjam gap boshladi Margol. – Kapsulaning yoqilg‘isi qolmagan. Qurilma uchishga emas, qo‘nishga mo‘ljallangan, xolos. Yaxshiyam, unda ko‘zga ko‘rinmaslik xususiyati bor. Yo‘qsa, odamlar: “Bu nima?” – deyaverib holi jonimga qo‘ymasdi.

– Kuchingiz ham ko‘p ekan-da?

– Ha, biz salmirliliklar 5-6 tonnagacha yukni bemalol ko‘tarishimiz mumkin, – maqtandi Margol.

Ahmad kapsulani obdan ko‘rib, o‘rganib chiqdi. Bu kapsuladagi har bir uskuna mukammal edi. “Haqiqatan ham o‘zga sayyoraliklar taraqqiyotda bizdan ancha ilgari ketgan ekan. Bunaqa qurilma yerlik muhandislarning tushiga ham kirmagan bo‘lsa kerak”, – o‘yladi Ahmad. So‘ng Margolga qarab dedi:

– Qoyil!.. Xo‘sh, endi ishni nimadan boshlaymiz?

Ammo Margol hadeganda ishga kirishishga shoshilmas, negadir juda xomush edi. Uning ko‘zlariga qarab qandaydir muhim gapni ayta olmay turganini sezish qiyin emasdi. Biroz sukunatdan so‘ng Margol gap boshladi:

– Ahmad, muammo bor, buni senga aytmasam bo‘lmaydi.

– Tortinmay aytavering! – dedi Ahmad.

– Texnik nosozliklar tufayli kapsula Yerga qo‘nmay, balki qulab tushgan edi. O‘shanda judayam kerakli bo‘lgan uskunalardan biri sinib, ishdan chiqqan ekan.

– Qanaqa uskuna edi?

– Bilasanmi, bizning Quyosh tizimiga uyushtirgan ekspeditsiyamizdan maqsad juda noyob bo‘lgan  $N_2G$  kristallni qidirib topish edi.  $N_2G$  sizlar olmos deb ataydigan kristallga o‘xshab ketadi. Biz uni sayyoramiz yadrosiga tashlashimiz kerak. Olimlarning aytishicha,  $N_2G$  yadrodagi moddalar bilan reaksiyaga kirishib, uni jonlantirib yuborish xususiyatiga ega. Shuning uchun uni izlab topishimiz zarur.

Margol bir muddat osmonga qarab jim bo‘lib qoldi.



So‘ng yana o‘sha g‘amgin ohangda gapira boshladi:

– Ishdan chiqqan qurilma esa yerni burg‘ilab, 50 ming metrgacha chuqur qazib berishga mo‘ljallangan. Usiz N<sub>2</sub>Gni topib bo‘lmaydi.

– Uni tuzatsa bo‘lmaydimi? – so‘radi Ahmad.

– Afsuski, uni faqat Salmir sayyorasida tuzatish mumkin. Ammo avtomatlashgan qurilmani qo‘lda boshqaradigan qilib sozlab qo‘ysa bo‘ladi.

– Mana, yechimi bor ekan-ku, – xursand bo‘lib ketdi Ahmad.

– Ha, lekin unda qurilmani ishlatish uchun kamida ikkita odam kerak bo‘ladi.

Ahmad Margoldagi tushkun kayfiyatning sababini endi anglab yetgan edi. Demak, Margol o‘ziga topshirilgan vazifani yolg‘iz amalga oshira olmaydi... Yo‘q, buni ota-onasi bilib qolsa bormi!..

Margol Quyosh tizimidagi barcha sayyoralarga borishini aytgandi. Yerni hisobga olmaganda, yana 7 ta sayyora mavjud. Har biriga bir kundan vaqt sarflasa ham naq 7 kun ketadi. Yo‘q, u buncha uzoq vaqtga keta olmaydi. Ustiga-ustak, bu judayam xatarli sayohat. Ahmad ana shularni xayolidan o‘tkazib, undan javob kutib turgan Margolga qaradi.

– Margol, afsuski, men sizga hamroh bo‘lolmayman, – dedi boshini egib.

– Tushunaman, sen o‘z hayotingni xatarga qo‘yishga majbur emassan!

– Ayniqsa, ota-onamni xavotirga qo‘yib ketolmayman.

– Agar ota-onangni o‘ylayotgan bo‘lsang, bu muammoning yechimi bor, – Margolning ko‘zlarida umid uchqunlari porladi.

– Qanday? – qiziqdi Ahmad.

– Eh, hamma narsaga yetgan aqling shunga kelganda

oqsabdi-da! Kim edi-ya, ha, topdim, Albert Eynshteyn degan olimlarning vaqt nisbiy hodisa ekanini isbotlagan ediku. Salmirliklar zamondan zamonga ko‘chib o‘tishning sirini allaqachon topishgan. Bizning kema koinotdagi gravitatsiya to‘lqinlarida uchib yurishini hisobga olsak, fazoda sayohatda bo‘lib qaytganingni ota-onang hatto sezmaydi ham. Hammasi tugagach, vaqt tuynugidan o‘tib, hozirgi shu kunlarga qaytib kelishing mumkin. Ishon, galaktikada bir kundan ko‘p sayohat qilmaysan.

Ahmad bir muddat o‘ylanib qoldi. Qo‘l harakatlariga qaraganda, u xayolan nimanidir hisoblab chiqayotgan edi.

\*\*\*

*Buyuk fizik Albert Eynshteyn vaqt hamma joyda ham bir xil o‘tmasligini isbotlab bergan. Masalan, avtomobilda tezlik bilan ketayotgan odamning soati to‘xtab turgan odamning soatidan sekinroq yuradi. Lekin bu farq juda-juda kichik bo‘lgani sabab odamlarga sezilmaydi. Vaqt bilan vaqtning farqini sezish uchun bu avtomobilni yorug‘lik tezligida haydash kerak bo‘ladi. Yorug‘lik tezligi bilan Yer sharini bir soniyada 7-marta aylanib chiqish mumkin! Afsuski, insoniyat hali bunday tezuchar qurilmani yarata olmagan. Taqqoslab ko‘ring, yorug‘lik soniyasiga deyarli 300 000 km tezlikda, odam qo‘li bilan yaratilgan eng tezkor qurilma “Voyager-1” esa soniyasiga 17 km tezlikda uchadi...*

*Vaqtning nisbiy ekanini olimlar quyidagi qiziq bir paradoks yordamida tushuntirishadi.*

*Hasan ukasi Husandan 10 daqiqaga katta edi. Husan ilm-fanga qiziqqani uchun olim, koinotga qiziqqan Hasan esa fazogir bo‘ldi. Kun kelib Hasan koinot bo‘ylab olis*

*safarga chiqdi. U fazoda yorug'lik tezligida uchdi va 10 yildan so'ng Yerga qaytib keldi. Nihoyat, egizaklar yana uchrashishdi. Bu paytda Husanning yoshi 40 da, Hasanniki esa 30 da edi! Juda g'alati, shunday emasmi? Ammo buni qarangki, fizika qonuniyatlariga ko'ra shunday bo'lishi aniq ekan. Olimlar buni "Egizaklar paradoksi" deb atashadi.*

*Qahramonimiz Ahmadning hisob-kitob qilayotganiga sabab bor. Agar u Margol bilan Quyosh tizimidagi sayyoralarga katta tezlikda uchib borsa, Yerdagi vaqtdan ilgari ketishi mumkin. Masalan, ularning Quyosh tizimidagi ikki kunlik sayohati Yerdagi uch kunga to'g'ri kelib qolishi hech gap emas.*

*Kelajakka sayohat qilish mumkinligi ilmiy jihatdan isbotlangan bo'lsa-da, olimlar o'tmishga qaytish masalasida ko'p bahslashishadi. Ayrimlar nisbiylik nazariyasiga ko'ra o'tmishga sayohat qilish mumkin desa, boshqalar buni inkor qiladi. Ammo shuni aniq aytish mumkinki, o'tmishga qaytish shunchaki fantastik xayol emas. Fizika qonuniyatlarida bunga yetarlicha dalillar topiladi.*

– Demak, men tunda fazoga uchib, tong otguniga qadar yotog'imga qaytishim mumkin bo'lar ekan-da?!

– To'g'ri, bu biroz murakkab ish, ammo uddalasa bo'ladi. Shaxsan o'zim vaqt tuynugidan 2-marta o'tganman. Buning uchun kemanding sirtiga maxsus qurilma o'rnatiladi, xolos – dedi Margol. – Aytganday, 10 kun avval Isaak Nyuton degan olimingiz bilan ham ko'rishib qaytdim.

– Nima, Nyuton bilan?! – Ahmad quloqlariga ishonmasdi.

– Ha, o'sha Nyuton-da. Vaqt tuynugidan o'tib XVIII asrga qaytdim va u bilan ko'rishdim.

– Qoyil! – dedi lol qolgan Ahmad. – O'zi uning oldiga

nega bordingiz?

- Bu haqida senga boshqa safar batafsil so‘zlab beraman.
- Margol shunday deb yana Ahmadga o‘ychan tikilib qoldi.
- Xo‘sh, nima deysan, men bilan birga ucha olasanmi?

Ahmad rozilik berishni ham, bermaslikni ham bilmasdi. U baribir ikkilanib qolgandi. Ammo salmirliklarning taqdiri haqida o‘ylar ekan, yo‘q deyishga tili bormadi.

– Mayli, roziman, – dedi Ahmad.

– Juda soz! – Margolning sevinchi ichiga sig‘may sakray boshladi. Bu o‘zga sayyoraliklarning sakrashi ham juda kulgili edi. – Sening Yerga eson-omon qaytishing uchun jonimni ham ayamayman, – dedi Margol sakrashdan to‘xtab.

Shu tariqa ikkovlon fazo kemasini yasashga kirishib ketishdi. Kema kabinasi uchun Margol olib kelgan zahira kapsulasi juda mos kelar edi. Balandligi uch metr bo‘lgan tuxumsimon kapsulaga Ahmadning loyihasi bilan yaratilgan qurilmalarni o‘rnatishsa bas, kema uchaveradi. Bu uskunalar fazodagi gravitatsiya to‘lqinlarini aniqlab, kemani shu yo‘nalishga tushib olishiga yordam beradi.

Ahmadning dadasi Odilbek aka avtomashinalar ustasi edi. Shu sabab ularning uyida eski temir-tersaklar, buzilgan avtomashinalarning turli ehtiyot qismlari uyilib yotardi. Qahramonlarimiz fazo kemasining maxsus qurilmalarini shu temir-tersaklardan foydalanib yasashga qaror qilishdi. Avvaliga zahira kapsulasining to‘rt tarafiga uzunligi ikki metrlik quvurlar payvandlandi. Bu quvurlar kemani tutib turuvchi oyoqlar vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari, ushbu quvurlarga Ahmad o‘ylab topgan katta-kichik qurilmalar ham mahkamlanadi. So‘ng Margol traktorning yer haydaydigan omochlarini kesib olib, yarim oy shaklida qayrilgan omoch pallalarini tekisladi. Tekislangan omochlar esa qanotga o‘xshab qolgandi. Keyin Margol bu qanotlarni

kemanning ikki yoniga payvandladi. Qanotlarning ostiga esa gaz balonlari va avtomobilning tutun chiqargichidan ishlangan reaktiv dvigatellar qotirildi. To'g'ri, bu yerda bir muammo ham bor. Ya'ni avtomobillarning ehtiyot qismlarini atmosferaning yuqori bosimi 3 soniyaga qolmay parchalab tashlaydi. Shuni hisobga olgan Margol har bir temir bo'lagiga qayta ishlov berib chiqdi. Ehtiyot qismlari salmirliklarning maxsus kukunsimon bo'yog'i bilan qoplandi. Endi xavotir olishga o'rin qolmagan edi.

Yana bir muammo – ular fazodagi gravitatsiya to'liqlariga yetib olishlari uchun, avvalo, kemani fazoga olib chiqishlari lozim bo'ladi. Buning uchun esa reaktiv dvigatelning yoqilg'isi kerak. Ammo Ahmadning bu borada ham ko'ngli to'q. Sababi, Margol yoqilg'i tayyorlash vazifasini o'z zimmasiga olgan.

Shu kuni kechga yaqin Ahmad o'zga sayyoralik do'stidan yana Isaak Nyuton haqida so'radi.

## ISAAK NYUTON

\*\*\*

*Salmirliklar qidirayotgan  $N_2G$  kristalli o'tmishda yashagan yerlik olimlar uchun ham begona emas. Sarguzasht ertaklarni yoqtiradigan bolalar falsafa toshi haqida ko'p eshitgan bo'lishlari kerak. Ertaklarda falsafa toshi har qanday moddani oltinga aylantira olishi haqida aytiladi. Xullas, bizning qissamizdagi  $N_2G$  kristalli va afsonaviy falsafa toshi ayni bir narsa.*

*Tarixda hatto olimlar ham bunday toshning borligiga ishonishgan. Juda boy bo'lishni xohlagan podsholar esa olimlarga afsonaviy toshni topishni buyurganlar. Bunday olimlarni alkimyogar deb atashgan.*

*Alkimyogarlarning tarixiy laboratoriyada tuxum sarig'iga toshbaqa kosasining kukunini yoki quritilgan qurbaqa ko'ziga qalampir va kumush kukunini aralashtirib noma'lum moddani, ya'ni falsafa toshini tayyorlashga urinishgan. Afsuski, ular qanchalik harakat qilishmasin, bu toshni yarata olishmagan.*

*Biroq bu ixtirochi olimlar o'zlari bilmagan holda ajib kashfiyotlarga sababchi bo'lishgan. Tajribalar mobaynida turli shifobaxsh dorilar va kimyoviy moddalar yaratilgan.*

*Masalan, 1602-yilda bolonyalik Kassiarolo ismli kosib va alkimyogar tog'dan hajmiga nisbatan juda og'ir, ko'rinishi g'alati bir toshni topib oladi. Albatta, kimyogar buni falsafa toshini topish uchun ajoyib imkoniyat deb o'ylaydi. Kassiarolo toshni oltinga aylantirish maqsadida uni ko'mir bilan eritadi va suyuq metallga turli narsalarni qo'shib ko'radi. Lekin metall oltinga aylanmaydi. Lekin alkimyogar umrida duch kelmagan, g'aroyib metallni kashf etganini bilardi. Bu metall hozir sanoatda ko'p ishlatiladigan bariy edi. Mishyak, fosfor, rux, surma, vismut kabi kimyoviy elementlar ham falsafa toshini qidirayotgan alkimyogarlarning tomonidan kutilmaganda kashf qilingan. Ma'lumotlarga qaraganda, hatto buyuk olim Isaak Nyuton ham falsafa toshini qidirib alkimyo bilan shug'ullangan ekan.*

*XVIII asrga kelib alkimyogarlarning falsafa toshini emas, odamlar uchun foydali moddalarni qidira boshladilar. Bu izlanishlar esa zamonaviy kimyo fani paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.*

Salmirliklar buyuk fizik Isaak Nyuton umrining oxirida alkimyo bilan shug'ullanib, falsafa toshini qidirganidan xabar topishadi. Aytishlaricha, Nyuton toshni kashf etishga juda-juda yaqin kelgan. Ammo u oxirgi tajribalarni o'tkaza olmay hayotdan ko'z yumadi.

Nyuton yashagan davrga qaytib, u amalga oshirgan tajribalarni o'rganish hamda olimdan N<sub>2</sub>G haqida so'rab olish salmirlik fazogirlar rejasida avvaldan bor edi. Margol Ahmadni uchratguniga qadar o'zicha turli yo'llar bilan N<sub>2</sub>G ni Yerdan ham qidiradi. U hatto vaqt tuynugidan o'tib 1727-yil, so'ng 1662-yilga borib kelishga ham ulguradi.

Dastlab, 1727-yilga borgan Margol 84 yoshli Nyuton hayotining so'nggi kunlarini o'tkazayotgan Kensington<sup>1</sup> shaharchasiga yo'l oladi. Olim juda ham hashamatli, baland uyda yashardi. Margol uy eshigini taqillatganida uni xizmatkor ayol qarshi oldi.

– Xayrli kun, ser, – dedi xushmuomala xizmatkor.

– Xayrli kun, xonim, – dedi bunaqa iltifotni birinchi marta ko'rayotgan Margol. – Men janob Nyutonning oldiga muhim ish bilan kelgandim.

– Janobimiz hozir betoblar, ammo bugun kayfiyati chog'. Omadingiz bor ekan, sizni quvib solmasligi mumkin.

Xizmatkor shunday deb Margolni ichkariga taklif qildi. Ular dahlizdan yurib bir xonaga kirishdi, keyin xona ichidagi eshikdan yana bir xonaga o'tib uning ichidagi eshikni ochishdi. Ular bu eshikdan kirib zina bo'ylab 2 qavat pastga tushishdi. O'zga sayyoralik bo'lishiga qaramay, Margol tim qorong'i yo'laklardan borarkan, biroz qo'rqdi. Axiyri xizmatkor ayol kichkinagina bir eshikning oldida to'xtab dedi:

– Bu janob Nyutonning tajribaxonasi. Qo'rqmay kiravering, tishlab olmaydi, – dedi ayol kulib. – Yoqib qolsangiz sizni eshitadi, yoqmasangiz shu zahoti haydab yuboradi.

Xizmatkor shunday deb ortiga qaytib ketdi. Margol esa

---

<sup>1</sup>London yaqinidagi kichik shaharcha.

biroz taraddudlanib so‘ng eshikni taqillatdi. Ichkaridan “kiring” degan ovoz eshitalganidan keyin eshikni ochdi. Kichikroq xonada o‘nlab shamlar yoqilgan. Devorga turli anjomlar ilingan. To‘g‘ridagi katta stol ustidan turli kitoblar, har xil kimyoviy moddalar solingan idishlar va qadimiy laboratoriya anjomlari joy olgandi. Bu joyda qari bir chol turli moddalarni bir-biriga qo‘shib tajribalar o‘tkazayotgan ekan.

– Xayrli kun, janob Nyuton, – dedi Margol imkon qadar yerliklarga o‘xshashga harakat qilib.

– Nima, tashqarida hozir kunmi? – ortiga o‘girilmay so‘radi nuroniy.

– Sizning xonangizgacha uzoq yurib keldik. Balki, bu orada qorong‘i tushib qolgandir, – hazil qildi Margol.

Shundan so‘ng Nyuton ortiga o‘girilib Margolga boshoyoq tikilib razm soldi. Keyin so‘radi:

– Xo‘sh, qari Nyuton senga nega kerak bo‘lib qoldi?

Margol ham gapni cho‘zib o‘tirmay muddaoga o‘tib qo‘ya qoldi:

– Falsafa toshini kashf qildingizmi?

– Nima? Men toshni izlayotganimni qayoqdan bilding?

Axir, bu haqda hech kimga aytmaganman-ku!

Bu gapdan keyin Margol biroz dovdirab qoldi.

– Yo‘q, shunchaki, stolingiz ustidagi moddalardan men ham foydalanyapman... Aytganday, men ham o‘sha toshni anchadan buyon qidiraman.

– Tushunarli, – dedi olim yana ortiga o‘girilarkan. – Men esa uni qidirishni yaqinda boshladim. Ilgari faqat fizika va astronomiya bilan shug‘ullanganman. Falsafa toshini esa cho‘pchak deb o‘ylaganman. Endi bo‘lsa bu tosh butun fikr-u zikrimni egallab oldi. Yo‘q, men o‘zim uni yaqinda topaman... senga yo‘l bo‘lsin... – g‘udrandi Nyuton.

– Uni topishingizga oz qoldimi? – qiziqib so‘radi Margol.



– Qaydam, har tajribadan so‘ng mana endi uni kashf qildim deyman o‘zimga. Ammo har safar xato o‘ylagan bo‘lib chiqaman. Lekin juda oz qolganini sezib turibman. Eh, qaniydi shu ishni o‘n yillar oldin boshlaganimda!

Shundan so‘ng Margol Nyuton bilan yana birpas suhbat qurdi. Olimga bu pakana “odam” ma’qul keldi, shekilli, boshqa kunlari ham kelib turishiga ruxsat berdi.

Margol Nyutonning tajribaxonasiga yana 3 kun – to olim tunda uxlayotgan vaqtida vafot etmagunicha qatnab, u bilan ajoyib suhbatlar qurdi. Nyutonning o‘limidan so‘ng Margol uning tajribaxonasiga yashirincha kirib, olimning kundaliklari, o‘qigan kitoblari bilan tanishdi. Qo‘ldan kelganicha Nyuton boshlab qo‘ygan tajribalarni o‘rganib chiqqan Margol olimning yana biroz muddat yashamaganidan afsuslandi. Chunki Nyutonning toshni kashf qilishiga juda oz qolgan ekan.

Shundan keyin Margol 1662-yilga – Nyutonning yoshlik davrlariga borishga qaror qildi. U Nyutonni fizikaga emas, balki alkimyoga ko‘proq qiziqtirishni xohlar edi. «Axir, uning o‘zi bu ishni o‘n yillar oldin boshlamaganidan afsuslandi-ku! Men uni qanday bo‘lmasin kimyo sohasiga qiziqtirib qo‘yaman. So‘ng u alkimyo bilan shug‘ullanib N<sub>2</sub>G ni kashf qiladi», – deb o‘yladi Margol.

1662-yilning yoz oylari. Kembrij universitetining 20 yoshli a’lochi talabasi Isaak Nyuton ta’tilni o‘tkazish uchun Vulstorp qishlog‘idagi uyiga qaytgan. Ta’til bo‘lishiga qaramay, Isaak uydan tashqariga chiqmas, ko‘p vaqtini o‘z xonasida turli tajribalar qilib o‘tkazar, ba’zan esa tajribalardan zerikib mutolaaga berilardi. Ammo bu yigitning eng yoqtirgan mashg‘uloti hovlidagi olma daraxti tagiga yotib olib o‘y surish edi.

Mana, hozir ham Isaak o‘z uyidan chiqib to‘g‘ri olma daraxti tomon yo‘l oldi. Buni ko‘rgan Margol xursand

bo‘lib ketdi. Chunki u yigitning tashqariga chiqishini kun bo‘yi kutgandi. Ko‘zga ko‘rinmaydigan qilib qo‘yadigan libos kiyib olgan Margol bemalol uy ichiga kirib, ikkinchi qavatdagi Nyutonning xonasiga ko‘tarildi. U xonaga kirganida stol ustida sochilib yotgan shisha bo‘laklarini ko‘rdi. Hoynahoy, bu yigit yorug‘lik nurini o‘rganayotgan bo‘lsa kerak deb o‘yladi Margol.

Margol agar Nyuton kimyo sohasida kutilmagan kashfiyot qilsa, bu sohaga qiziqib qoladi deb o‘yladi. Shu sababli Isaak o‘z xonasiga qaytgunicha deraza oynasiga Mendeleevning davriy jadvalini chizib qo‘ydi. Lekin olma daraxti ostida xayollarga berilib ketgan yigit hadeganda xonasiga qaytmadi. Shunda Margol ham hovliga chiqdi. Shu tobda yigitning nima bilan shug‘ullanayotgani uni qiziqtirdi. Margol bildirmay borib daraxt ustiga chiqdi va Isaakni kuzata boshladi. Yigit esa o‘zi-o‘zi bilan gaplashar, nimalarnidir hisoblab chiqardi. Ammo Margolga Isaakning so‘zlari unchalik eshitilmadi. Shunda u daraxt shoxiga osilib, pastroqqa egilmoqchi bo‘ldi. Qaltisroq harakat qilib yubordimi, daraxt shoxi silkinib ketdi. Bir olma uzilib to‘g‘ri Issakning boshiga tushdi. “Ay-y, kelib-kelib mening boshimga tushasanmi?” – deya qo‘li bilan boshini silay boshladi yigit. U yana bir nimalarni bidirladi, so‘ng birdan o‘rnidan sakrab turdi. Yerdagi olmani olib tepaga otdi, olma yerga qaytib tushdi. So‘ng yigit yana olmani qo‘liga olib osmonga termilganча xayolga berildi. Birozdan keyin chopib uyga kirib ketdi. Ko‘p o‘tmay Margol ham yigitning ortidan uning xonasiga kirib bordi. Bu vaqtda Isaak kundaligiga shunday deb yozayotgandi: “Olma nima uchun aynan mening boshimga quladi? Nega osmonga yoki yon tarafga uchib ketmadi? Demak, qandaydir kuch jismlarni yerga tortib turadi!” Bularni o‘qigan Margolning hafsalasi pir

bo‘ldi. U Isaakni kimyo sohasiga qiziqtiraman deb qaytaga fizikaga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirib yuborgandi. Endi Nyuton butun olam tortishish kuchini kashf qiladi deb o‘yladi Margol...

Margol Ahmadga bu voqeani so‘zlab berarkan, bola qotib-qotib kuldi.

– Demak, siz ekan-da o‘sha mashhur olmani Nyutonning boshiga uloqtirgan? – so‘radi o‘zini haligacha kulgidan to‘xtata olmayotgan Ahmad.

– Nima, sen olma voqeasini bilarmiding?

– Albatta, axir bu voqeani hamma biladi-ku!..

## **RAKETA YOQILG‘ISI**

Ertasi kuni Margol yana safarga otlandi. U bu gal raketa yoqilg‘isi uchun kerak bo‘ladigan noyob kimyoviy moddalarni topib kelish uchun Qozog‘istondagi Boyqo‘ng‘ir<sup>1</sup> kosmodromiga ketayotgan edi. Bir necha kun o‘tib Margol katta plastik qoplarda zarur kimyoviy moddalarni olib qaytdi.

– Ahmad, bu kimyoviy moddalar juda xavfli. Shu sababli yoqilg‘i tayyorlash jarayonida sen ishtirok etmaysan. Hozir men maxsus chodir quraman. Bu mening kichik laboratoriyam bo‘ladi. Shunday qilmasam, nafaqat sen, balki butun qishloq aholisi zaharlanishi mumkin.

– Aytmasangiz ham buni yaxshi bilaman. Yaxshisi, shu chodirni Mirzacho‘lga qursangiz bo‘lar edi, – e‘tiroz bildirdi Ahmad.

---

<sup>1</sup> Baykanur nomi bilan mashhur.

– Sen xavotir olma. Bu laboratoriya salmirliliklar uslubida quriladi. Hech kimga zarar yetmaydi. Hatto ish jarayonini kuzatib turishing, men bilan gaplashishing ham mumkin.

Margol shunday deb kapsula ichidan qo‘l telefoniday keladigan uskunani ko‘tarib chiqdi. U uskunani hovlining o‘rtasiga qo‘yib undagi bir tugmachani bosdi. Bir lahzada moviy rangdagi nur hamma joyni qoplab oldi. Hovlida kamalakka o‘xshash yarim doira shaklidagi “chodir” barpo bo‘lgandi. Faqat bu “chodir” devorlari matodan emas, balki lazer nuridan edi. So‘ng Margol o‘zi bilan olib kelgan kimyoviy moddalarni ichkariga olib kirdi. Tashqaridagi Ahmad esa uni ko‘rib, eshitib turardi.

– Agar bilsang, bu devorlarni hatto zambarakning o‘qi ham yorib o‘ta olmaydi. Laboratoriya ichi tashqi olamdan butunlay muhofazalangan, – dedi Margol butun tanasini yopib oladigan maxsus libosni kiyarkan.

Ahmad ishonch hosil qilish uchun “chodir”ning devoriga ko‘rsatkich barmog‘ini tekkizib ko‘rdi. Haqiqatda, bu po‘latdan ham qattiq, qandaydir o‘zgacha narsa edi. Ichkaridagi Margol esa allaqachon ishga kirishib ketgandi. U yoqilg‘i tayyorlarkan, laboratoriya tashqarisidagi Ahmad bilan bemalol suhbatlashardi.

– Margol, raketa Yering tortish kuchini yengib, ochiq fazoga uchib ketishi uchun soniyasiga kamida 11,2 km tezlikda uchishi kerak. Shuni hisobga oling.

– Sizlarning Yeringiz juda kichkina ekan. Salmirdan uch marta kichkina! Shuning uchun odatdagidan kuchsizroq yonilg‘i tayyorlasam ham bo‘lar ekan, – deb javob berdi Margol.

Koinotdagi jismlarning tortishish kuchi, ya‘ni gravitatsiyasi ko‘proq ularning massasi bilan bog‘liq. Masalan, Oy Yerdan ancha kichkina. Shu sababli uning tortishish kuchi Yernikidan 6-marta kamroq. Bu agar siz

Yerda 1 metr balandlikka sakray olsangiz, Oyda naq 6 metrga sakraysiz degani. Chunki Yerda 40 kg vaznli bola Oyga chiqqanida 7 kg bo‘lib qoladi. Xullas, fazoviy kema yaratayotganda shularni hisobga olish shart.

– Ahmad, nima deb o‘ylaysan, yonilg‘i suyuq bo‘lgani yaxshimi yoki qattiq – kukunsimon bo‘lganimi? – savol berdi Margol.

– Menimcha, kukunsimon bo‘lgani yaxshi. Hozir bizdagi raketalarda shunaqasi ishlatilyapti.

\*\*\*

*Fazo kemasining osmonga ko‘tarilishi uchun juda ko‘p energiya sarf qilinadi. Axir, og‘irligi 500 tonna keladigan po‘lat qushni osmonga ko‘tarish oson ish emas. Buning uchun raketa dvigateli bir soniyada 2-3 tonnagacha yonilg‘ini ishlatishi mumkin. O‘zingiz taqqoslab ko‘ring, masalan, avtomobilning quvvati o‘rtacha 100 ot kuchiga ega bo‘lsa, zamonaviy raketa dvigateli 200 000 000 ot kuchiga ega. Bunday raketaning fazoga ko‘tarilishi uchun sarflangan energiya butun O‘zbekistonni bir kun davomida elektr bilan ta‘minlashga yetadi.*

*Raketa yonilg‘isi asosan ikki turli bo‘ladi. Birinchisi benzin kabi suyuq bo‘lsa, ikkinchisi porox kabi kukunsimon bo‘ladi. Odatda, muhandislar raketaning hajmi va vazniga qarab kerakli yonilg‘ini tanlaydilar.*

*Fazoga uchirilgan dastlabki raketalarning yonilg‘isi ancha oddiy bo‘lgan. Bu raketalar kerosin va kislorodning aralashib yonishi oqibatida osmonga ko‘tarilgan. Hozirgi yonilg‘ilar esa juda murakkab kimyoviy tarkibga ega. Olimlar kam joy egallab uzoqroq yonadigan va quvvati kuchliroq yonilg‘ilarni ixtiro qilishmoqda.*

– Men tayyorlayotgan yonilg‘ini hali sizlar bilmaysizlar – gap boshladi Margol. – Mazkur yadroviy yonilg‘i kemani yorug‘lik tezligida uchirishi mumkin.

– Qoyil, lekin mening kemam shundoq ham yorug‘lik tezligini ortda qoldiradi, shunday emasmi? – kuldi Ahmad.

Bir soat o‘tar-o‘tmas yonilg‘i ham tayyor bo‘ldi. Shundan so‘ng kapsulaning ichidan ortiqcha buyumlar olib tashlandi. Faqatgina skafandr, aynimaydigan yeguliklar, suv va kislorod balonlari kabi muhim narsalar qoldirildi. Chunki bir kishiga mo‘ljallangan o‘rindiqli ikkita qilish kerak edi-da. Darz ketgan burg‘ilovchi qurilma ham rejadagiday sozlandi. Ahmad kemaga “Ko‘kkezar” deb nom berib, uni kemanding sirtiga maxsus bo‘yoq bilan yozib qo‘ydi. Bu nom Margolga ham juda ma‘qul bo‘ldi.

Nihoyat, to‘rt kun deganda Yer va Salmir sayyorasi muhandislari hamkorligidagi fazo kemasi qurib bitkazildi.

– Menimcha, kemamiz uchishga tayyor! – dedi Margol botayotgan quyoshni kuzatarkan.

– To‘g‘risini aytsam, judayam hayajonlanib ketyapman. Nahotki, men ertaga huv anavi yulduzlar yaqinida uchib yuraman?! – dedi Ahmad qo‘li bilan yulduzlarga ishora qilib.

– Ha, shunday... Ahmad, sening hayajoning tabiiy. Axir, sen bunday uzoq sayohatga chiqqan birinchi yerlik bo‘lasan!

Ular yana bir zum osmonga tikilib suhbat qurishdi. Shundan so‘ng Margol Ahmadning yelkasiga qo‘lini qo‘yib:

– Sen ertaga tunda uchishga tayyor bo‘lishing kerak, hozir esa uyga qaytib yaxshilab dam ol. Xavf-xatar haqida ko‘pam o‘ylayverma, – dedi.

Ahmad uyga qaytib ketdi. Yolg‘iz qolgan Margol osmondagi yulduzlarni kuzata turib, ular orasidan jonajon

yulduzi Siriusni izlab topdi. U xayolan o‘z vatani, oilasi davrasiga sayohat qildi. Zero, Margolning vatani bo‘lmish Salmir sayyorasi shu Sirius yulduzi yaqinida joylashgan. Hoynahoy, ota-onasi, xotini va bolalari uni juda sog‘inishgandir. Hozir ular toza havo va ichimlik suvi yetishmasligidan juda qiynalishmoqda. Margol shularni o‘ylab ko‘rsatkich barmog‘ini yulduzga cho‘zarkan: “Yana ozroq chidanglar... Juda ham oz qoldi...” – deya pichirladi. So‘ng ko‘zlari yoshga to‘lib, chuqur xo‘rsinib qo‘ydi. “Yo‘q, yo‘q, mening bunday tushkunlikka tushishga haqqim yo‘q”, – deya yana pichirladi Margol shoshapisha ko‘z yoshlarini artarkan. U o‘ziga yuklatilgan vazifani bajarishi uchun kuchli bo‘lishi kerakligini his qildi. Ustiga-ustak, yerlik do‘stini ham xatarli safarga olib ketyapti, bolani eson-omon uyiga qaytarishi shart. Bu esa Margolning mas’uliyatini yanada oshirardi.

## UCHISH REJASI

“Ko‘kkezar”ning fazoga ko‘tarilishiga atigi bir necha soat qolgan. Ikkala fazogir ham kuchli hayajonda. Chunki ularni oldinda judayam g‘aroyib sarguzashtlar kutib turgani aniq. Qahramonlarimiz qanday bo‘lmasin, kristalli topib, Salmir sayyorasini halokatdan qutqarib qolishlari shart. Aks holda, haqiqiy falokat yuz beradi.

Ahmadning fazoga qiladigan sayohati uchun judayam qulay vaqt tanlangan edi. Chunki bugun Ahmad ota-onasi bilan xayrlashib yozgi oromgohga ketishi kerak. U oromgohga emas, to‘g‘ri Abdukarim amakining hovlisiga yo‘l oldi. O‘zi bilan barcha kerakli narsalarini ham olgandi. Kichkina do‘stini kutib o‘tirgan Margolning chehrasi yorishib ketdi.

– To‘g‘risini aytsam, shu daqiqagacha kelmay qolasanmi deb qo‘rqib o‘tirgandim, – dedi Margol bolalarday quvonib.

– Mana, keldim, chunki yerliklar bir so‘zli bo‘lishadi, – dedi Ahmad mag‘rur turib.

– Bunga yana bir bor amin bo‘ldim, – tasdiqlab qo‘ydi Margol.

Shundan so‘ng Margol qog‘oz va qalam olib Ahmadga yuzlandi:

– Kel, endi vaqtni o‘tkazmay sayohatimiz rejasini tuzib olaylik.

Avvaliga Margol Quyosh tizimiga uyushtirilgan ekspeditsiyaning maqsadini batafsilroq tushuntirib o‘tdi.

– Salmir olimlari  $N_2G$  kristalli Quyosh tizimidagi aynan qaysi sayyorada ekanini aniqlay olishmagan. Vaqtimiz kamligini hisobga olib men 9 ta sayyoraning hammasiga emas, balki eng zarurlariga borish kerak deb o‘ylayman.

– Kechirasiz, Margol, sayyoralar 9 ta emas, balki 8 ta. Aniqrog‘i, Pluton 2006-yilda sayyoralar safidan chiqarilib, jajji sayyoralar qatoriga kiritilgan. Shunday qilib, ular 8 ta qolgan.

– Bundan xabarim bor. Ammo Quyosh tizimida yerliklar bilmaydigan yana bir ulkan sayyora ham mavjud.

– Yo‘g‘-e! – Ahmad uchun bu kutilmagan yangilik bo‘ldi.

– Ha, ba‘zi yerlik olimlar matematik hisob-kitoblarga ko‘ra bu sayyoraning borligini aytishadi. Ammo haligacha uni biror teleskop aniqlagani yo‘q. Chunki u Quyoshdan eng olisda joylashgan sayyoradir. Biz unga PN-1437 raqamini berganmiz.

\*\*\*

*Hammamiz, Quyosh tizimi Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran va Neptun kabi jami 8 ta sayyoradan tashkil topganini yaxshi bilamiz. Lekin ayrim olimlar*



9-sayyoraning borligini aytishyapti. 2016-yilda AQSHning Kaliforniya universiteti astronomlari Maykl Braun va Konstantin Batigin ilmiy bayonot bilan chiqishdi. Ular Quyosh tizimining eng olis qismida judayam yirik noma'lum sayyora bor ekanini aytishgan.

Astronomlarning bayonotiga ko'ra, o'sha to'qqizinchi sayyora Yerdan 10-marta katta bo'lib, Quyosh tizimining eng olis joyi – Koyper belbog'idan ham uzoqroqda aylanib yuradi. Bu sayyora juda olisda bo'lgani sabab boshqa sayyoralar kabi quyosh nurini qaytara olmaydi. Shuning uchun uni teleskop bilan ham ko'rib bo'lmaydi.

Yer quyosh atrofida 365 kunda aylansa, 9-sayyora bu masofani 10 000-yilda bosib o'tarmish.

Xullas, o'sha to'qqizinchi sayyora haqidagi ma'lumotlar hali o'z isbotini topganicha yo'q. Chunki bu sayyorani hali hech kim o'z ko'zi bilan ko'rmagan. Olimlar esa uni boshqa osmon jismlariga ko'rsatayotgan ta'siri tufayli taxminan aniqlashgan, xolos. 1846-yilda Neptun sayyorasining borligi ham faqat matematik hisoblar evaziga aniqlangan. Bu safar ham olimlar shunga o'xshash kashfiyot qilishgan.

Hozircha olimlar noma'lum sayyorani matematikadagi noma'lumlik belgisi bo'lgan "X" harfi bilan bog'lab "X sayyora" deb nomlashmoqda. Noma'lum sayyorani "kashf" qilgan olimlarning o'zi esa juda katta ekani tufayli hazillashib "do'mboq" deb ham atashadi.

– Demak, biz o'sha noma'lum sayyora ham uchamiz, shundaymi? – so'radi Ahmad.

– Yo'q, shart emas. Issiq bo'lgani uchun Merkuriyga keyinroq uchamiz. Yana Yupiter, Saturn, Neptun kabi sayyoralarga ham borishning hojati yo'q. Chunki bu sayyoralarning sathi quyuq gazdan iborat. Ularda Yerdagi kabi qattiq yuza emas, balki suyuq yadro va gazlar bor, xolos.

– To‘g‘ri, bu sayyoralarning sathiga qo‘nishning imkoni yo‘q, – tasdiqladi Ahmad. – Ammo Yupiterning Yer sayyorasiday keladigan ulkan yo‘ldoshlari Io, Yevropa, Ganimed va Kallisto ham bor-ku!

– To‘g‘ri aytasan, unda Yupiterning yo‘ldoshlariga borishni ham rejaga kiritib qo‘yaman, – Margol shunday deb qog‘ozga yo‘ldoshlar nomini yozib qo‘ydi va dedi: – Ahmad, kel, oldin Veneraga, so‘ng Marsga uchamiz. Agar kristallni topa olmasak, keyin boshqa sayyoralarga safar qilamiz.

– Menimcha, bu eng to‘g‘ri qaror, kelishdik.

Rejani tuzib olgan qahramonlarimiz endi tunni intiqlik bilan kuta boshlagan edilar.

## **“KO‘KKEZAR”NING ILK PARVOZI**

2036-yil 10-iyul, soat 20:55. Margol va Ahmad kemaga chiqib o‘rindiqlarga o‘tirishdi.

– Himoya kamarlarini taqib, chuqur-chuqur nafas ol. Atmosferadan chiqib ketgunimizcha kema kuchli chayqalib turadi, – dedi Margol turli-tuman tugmalarni bosib kema dviqatelini ishga tushirarkan.

– “Start”ga 10 soniya qoldi...

– Ahmad, xaritada Venerani belgilab qo‘y, – dedi Margol kompyuterni ko‘rsatib.

Ahmad maxsus xaritadan Venera sayyorasini topib belgilab qo‘ydi. Endi kema to‘g‘ri shu sayyoraqa qarab uchadi. Shundan so‘ng Ahmad kompyuterdan ko‘zini uzmay dedi:

– Teskari sanashni boshlayman: 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1...  
“Start!”...

Dviqatel o‘t olganida butun atrof yorishib ketdi.

Yaxshiyamki, kema dvigateli baland ovoz chiqarmay ishlaydi. Yo‘qsa, butun qishloq aholisi oyoqqa turishi mumkin edi. Zum o‘tmay kema yashin tezligida osmonga uchib ketdi.

Yer sathidan 118 km balandlikda fazo boshlanadi. Ya’ni bunday balandlikda Yerning tortish kuchi deyarli yo‘qoladi. Ammo Ahmadning rejasiga ko‘ra “Ko‘kkezar” dastlab bu balandlikka ko‘tarilmaydi. Kema 80 km balandlikka chiqqanidan so‘ng ochiq fazoga qarab uchishni to‘xtatib, yo‘nalishini o‘zgartiradi. Endi kema Yer atrofida katta tezlik bilan aylanishni boshlaydi. Bu sun‘iy yo‘ldoshlarning Yer orbitasi bo‘ylab aylanib yurishiga o‘xshab ketadi. Farqi shundaki, “Ko‘kkezar” sun‘iy yo‘ldoshlardan 10-marta tezroq aylanadi. Shu tarzda “Ko‘kkezar” Yerning tortish kuchidan qo‘shimcha tezlanish oladi va juda katta tezlik bilan gravitatsiya to‘lqiniga kirib ketadi. Bu xuddi palaxmon toshini boshdan yuqoriga ko‘tarib aylantirib-aylantirib otib yuborishga o‘xshaydi. Palaxmon qancha tez aylantirilsa, tosh shuncha uzoqqa borgani kabi, kema ham Yer atrofida qancha tez aylansa, shuncha uzoqqa uchib boradi. 1977-yilda fazoga uchirilgan va hozirda Quyosh tizimi chegaralaridan chiqib ulgurgan “Voyager-1” qurilmasi kichkinagina dvigateli bilan bo‘lsa ham gravitatsiya kuchi evaziga harakatlanadi.

*“Voyager-1” inson qo‘li bilan yaratilgan eng tezkor uchar qurilma hisoblanadi. Uni 1977-yilda amerikalik olimlar koinotga uchirishgan. Hozirda “Voyager-1” Yerdan soniyasiga 17 km tezlik bilan uzoqlashmoqda. Olimlarning aytishicha, ushbu qurilma hozirda Quyosh tizimidan chiqib, yulduzlararo kengliklarda harakatlanmoqda. Shu ketishda u 300 ming yildan keyin Quyoshdan keyingi eng yaqin yulduzlarning biriga yetib boradi.*

*“Voyager-1”da maxsus oltin disk bo‘lib, unga Yerdagi*

*hayot aks etgan fotosuratlar; turli qo'shiqlar; okean va shamollarning, hayvonlarning tovushlari, hattoki chaqaloq yig'isi ham yozib qo'yilgan. Ushbu oltindiskda o'shavaqtidagi AQSH prezidenti Jimmi Karterning o'zga sayyoraliklarga atalgan nutqi ham bor. Bu nutqda shunday deyilgan: "Agar siz «Voyager»ni topib, diskda yozilgan narsalarni tushuna olsangiz, bilingizki, bu bizning maktubimiz! Yer sayyorasining sovg'asi! Unda bizning tovushlarimiz, ilm-fanimiz, suratlarimiz, fikr va tuyg'ularimiz aks etgan. Umid qilamizki, bir kun kelib qarshimizdagi muammolar o'z yechimini topadi va biz koinotdagi boshqa olamlar bilan aloqa o'rnata olamiz».*

*"Voyager"ning dvigateli juda kichkina. Bu dvigatel shunchaki uchar qurilmaning yo'nalishini to'g'rilab turadi, xolos. Qurilmaning o'zi esa koinotdagi tortishish kuchi ko'magida qo'shimcha tezlanish olib harakatlanadi. Zero, osmondagi butun sayyora, yulduz va galaktikalar ham shu gravitatsiya hisobiga juda katta tezlik bilan uchib boradi. Fan tilida bunday harakat gravitatsion manyovr deb ataladi. Sizu bizga bilinmagani bilan, hozirda bizning Yer ham gravitatsiya evaziga soatiga 108 000 km tezlik bilan uchib ketmoqda!*

Gravitatsion tuynuk changyutgichning uzun quvuriga o'xshaydi. Chunki bu tuynuk har qanday jismni changyutgichday so'rib oladi. Unga tushib olgan kema yorug'lik tezligidan ham bir necha o'n barobar katta tezlik bilan harakatlanadi. Xullas, 3 daqiqa o'tar-o'tmas "Ko'kkezar" 200 million km masofani bosib o'tib, Venera orbitasiga kirib keldi. Bu Yer yaqinida hosil bo'lgan bir tuynukdan kirib Venera oldidagi boshqa bir tuynukdan chiqib kelishga o'xshaydi. Hozircha bunday g'aroyib kema koinotda yagona edi.

Venera Quyosh tizimida Merkuriydan keyingi ikkinchi sayyora hisoblanadi. Uni “Yerning egizagi” deb ham atashadi. Chunki Veneraning kattaligi ham, og‘irligi ham Yerniki bilan deyarli bir xil. Lekin bu sayyorada Yerdagiday yashil o‘rmonlar-u moviy dengizlar yo‘q. Venera sathini ulkan vulqonlardan otilib chiqayotgan qaynoq lavalar egallab olgan.

– Naqadar chiroyli manzara, – dedi Ahmad sayyorani qoplab olgan qizg‘ish, quyuq bulutlarni kuzatar ekan.

– Ha, bir zamonlar shu cheksiz cho‘llar o‘rnida ulkan okeanlar bo‘lganiga ishonish qiyin.

– Bir kun kelib sayyoralar ham o‘lar ekan-da?! – ajablandi Ahmad. Chunki u bir vaqtlar yashil sayyora bo‘lgan, hozir esa taqir cho‘lga aylangan Venerani o‘z ko‘zlari bilan ko‘rayotgan edi-da.

Bu vaqtda Margol kemani qo‘ndirishga harakat qilayotgan edi. Ahmad boshqaruv rulini tutib turgan Margolga qarab dedi:

– Sayyoraning tungi qismiga emas, kunduzgi qismiga qo‘nishimiz shart!

Ahmad bekorga bunday demadi. Chunki Veneraning o‘z o‘qi atrofida bir marta aylanishi, ya‘ni bir kuni bizning 243 sutkamizga teng. Agar ular tungi Veneraga qo‘nishsa, tong otishini bizning hisobda bir yilga yaqin kutishlariga to‘g‘ri keladi. Har qalay, kristallni kun yorug‘ida qidirish osonroq.

– Harakat qilyapman. Lekin sayyoraning Quyoshga qaragan qismi 400 daraja issiq, shuni bilasanmi? – so‘radi Margol.

– Bilaman. Nima, salmirliklarning skafandri issiqqa dosh bermaydimi?

– Dosh beradi, ammo ozroq issiq bo‘ladi, chadaysan-da, – deya kulib javob berdi Margol.

Jajji do‘stining topqirligidan xursand bo‘lgan Margol

kemaning qo‘nishi uchun joyni izlab topdi.

– Ahmad, mana, men qo‘nish uchun juda qulay joy topdim. 10 soniyada sayyora sathiga qo‘namiz...

“Ko‘kkezar” Venera sathiga qo‘ndi. Bir daqiqadan so‘ng maxsus skafandr kiyib olgan fazogirlar kemadan tashqariga chiqishdi. Kutilmaganda Ahmad o‘zini juda yomon his qila boshladi.

– Margol, nimalar bo‘lyapti?! Xuddi ustimdan tom bosib qolganday...

Ahmad shunday deb cho‘kkalab oldi. Margol esa skafandrdagi muhim bir qurilma haqida oldinroq Ahmadga aytib qo‘ymaganini esladi. Gap shundaki, Venera atmosferasi juda ham quyuq gazlardan iborat. Atmosfera bosimi Yerdagiga nisbatan 92-marta kuchliroq. Shu sababli uning sathida yurgan odam o‘zini ochiq havoda emas, okeanning ming metrlik tubida yurgandek his qiladi. Bunday bosimda Ahmad oyoqda tura olmasligi tabiiy edi. Margol skafandrdagi maxsus qurilmani ishga tushirganidan so‘ng Ahmad birdaniga yengil tortdi. O‘zini xuddi yerda yurgandek his qila boshladi. Chunki qurilma atmosfera bosimini sozlab turar edi.

– Ahmad, meni kechir, seni ogohlantirib qo‘yish yodimdan chiqibdi, – dedi Margol yosh do‘stining o‘rnidan turishiga ko‘maklasharkan.

– Hechqisi yo‘q, bahonada atmosfera bosimi qanday ekanini bilib oldim, – Ahmad shunday deb Margolning skafandriga yaxshilab razm soldi. – Margol, skafandrning yana boshqa xususiyatlari bo‘lsa, menga hozir aytib qo‘ying...

\*\*\*

*Fazogirlarni skafandrsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.  
Chunki hali hech kim skafandrsiz fazoga uchmagan.*

*Yerdan 10 km balandlikka ko‘tarilib, ochiq fazoga*

*chiqqan odam skafandrsiz bir daqiqa ham yashay olmaydi. Chunki bunday balandlikda kislorod bo'lmaydi-da! Ustiga-ustak, fazodagi 150 darajali sovuq odamni bir zumda muzlatib qo'yishi mumkin. Mana shuning uchun fazogirlar skafandr kiyishadi. Skafandrning ichida odam o'zini xuddi yerdagiday his qiladi.*

*Ilk skafandrni 1775-yilda fransuz olimi Jan Batist ixtiro qilgan. Dastlabki skafandrdan g'avvos harbiylar daryoni kechib o'tishda foydalanishgan. XX asrga kelib olimlar fazoga uchish borasida jiddiy bosh qotira boshladilar. Ular fazoda havo yo'qligini va fazogirlar uchun maxsus kiyim kerak bo'lishini yaxshi bilishardi. 1940-yilda fazogirlarning ilk skafandrlari sinovdan o'tkazila boshlandi. Qizig'i shuki, bu skafandrlarni birinchi bo'lib odamlarga emas, balki sichqon, kuchuk va maymun kabi jonivorlar kiygan ekan. 1961-yilda fazoga uchgan birinchi odam – Yuriy Gagarin skafandrni chinakamiga sinovdan o'tkazib beradi.*

*Skafandr 17 qavatli germetik qoplama va matolardan tikiladi. Bu qoplamalar fazogirni sovuqdan, infraqizil nurlardan, koinotga tarqalib ketgan mayda-mayda zarralardan himoyalaydi. Asosiysi, skafandr ichida havo bosimi bir me'yorda saqlanadi. Skafandrda bir necha soatga yetadigan kislorod baloni, hatto konditsioner ham bor. Bunday skafandrlarni jajji fazoviy kemaga o'xshatish mumkin.*

*Bitta skafandr qo'lqopi uchun sarflangan pulga 6 ta "Spark" rusumli avtomobil sotib olish mumkin. Butun boshli skafandr uchun esa 20 million AQSH dollarigacha mablag' sarflanadi.*

*Qahramonlarimiz Veneraning qaynoq sharoitiga moslashib olishganidan so'ng Margol kemaga qaytib,*

undan kristalni qidirishga mo'ljallangan qurilmalarni olib chiqdi. Bu qurilmalar ichida uchar likopcha ham bor edi. U ertaklardagi uchar gilamga juda o'xshar, unga o'tirib Veneradagi istalgan manzilga bir zumda yetib borish mumkin edi. Xullas, yaxshilab qurollanib olgan qahramonlarimiz vaqtni boy bermay  $N_2G$  ni izlashga kirishib ketdilar.

Margol burg'lovchi qurilma bilan Venera sathining har-har joyidan ming metrgacha chuqur qazib, chuqur tubidagi tuproq namunalarini laboratoriyada tekshirib olardi. Uning aytishicha, bu yo'l bilan kristall bor joyni taxminan aniqlash mumkin. Afsuski, tuproq tahlillarining birortasi ijobiy chiqmadi. Nihoyat, Veneradagi 12 soatlik qidiruv ishlaridan so'ng Margol yakuniy xulosaga keldi:

– Yo'q, kristallni Veneradan topa olmaymiz. Menimcha, vaqtni boy bermay Marsga uchishimiz kerak.

## QAROQCHINING TUTQUNLARI

General Obmaning qaroqchiligi faqatgina boylik yig'ishdan iborat emasdi. U koinotdagi olim va muhandislarning g'oyalarini, ixtiro-yu kashfiyotlarini ham o'g'irlar, bulardan o'zining yovuz maqsadlari yo'lida foydalanar edi. Chunki Obma qanday bo'lmasin qo'shinini judayam kuchli qurollar bilan ta'minlashni hamda butun Somon yo'li galaktikasini qo'lga olishni orzu qilardi. Mashhur Salmir sayyorasining fazogirlari qo'lga olinganida Obmaning xursandchiligi ichiga sig'may ketgani sababi ham shundan.

Mana, bir necha kundirki, general Obmaning askarlari salmirlilik fazogirlarni so'roq qilishmoqda. Ammo har qancha qiynoqqa solishmasin, ular Quyosh tizimi ekspeditsiyasining



maqsadini oshkor qilishmadi. Sabr kosasi to‘lgan general shu kunlari juda darg‘azab edi. Chunki u salmirliklarning judayam muhim topshiriq bilan yo‘lga chiqqanini fahmlar, ammo bu qanday topshiriq ekanini bilolmay jig‘ibiyron bo‘lardi. “Juda muhim ish bilan kelishgan... Aks holda, Sirius yulduzidan Quyoshgacha 8 yorug‘lik yilidan ortiq masofani bosib kelishmasdi, – deya o‘ylay boshladi u. – Balki, ular Yashil sayyoraga kelmoqchi bo‘lishgandir? Lekin Yerda ularga nima kerak bo‘lib qoldi ekan?” Obma ana shunday xayollar bilan hashamatli xonasi markazidagi taxtida o‘tirarkan, Rago ismli eng ishongan sarkardasi kirib keldi.

– Qo‘mondon, gapirishga ruxsat ber.

– Gapir!

– Odamlarimiz yulduzlararo kemadagi zahira kapsulalarning biri kema qo‘lga olinguniga qadar uchib ketganini aniqlashdi.

– Xo‘sh-xo‘sh! – general Obma bu yangilikni eshitib o‘rnidan turib ketdi.

– Kemada hech qanday hujjatlar va abadiy energiya generatorining yo‘qligini hisobga olsak, demak, biz izlayotgan asosiy narsalar shu kapsula bilan g‘oyib bo‘lgan.

– Bu gapingda jon borgan o‘xshaydi, Rago! Unda kapsulani darhol izlab topish kerak.

– Men josuslarimizni Quyosh tizimiga yubordim. Kemani Neptun yaqinida qo‘lga olganmiz, kapsula ham uzoqqa uchib ketolmaydi. Mars yoki Yupiter yo‘ldoshlarining biriga qo‘ngan bo‘lsa kerak.

– Yoki uni Yerga uchirishgan, to‘g‘rimi?

– Ha, balki, shundaydir, – tasdiqladi Rago.

Obma bir muddat o‘ylanib qoldi, so‘ng Ragoga yuzlanib:

– Josuslarni Yerga ham jo‘nat. Bu ish bilan shaxsan o‘zing shug‘ullan, – dedi.

– Xo‘p, aytganingday qilaman, – Rago boshini egib xonani tark etdi.

Tez orada Obma huzuriga salmirliliklar kapitani Gedar Vuni olib kirishdi. Obma bu jasur kapitanni shaxsan o‘zi so‘roqqa tutib, ularning maqsadini bilib olishga qaror qilgandi. Gedar Vu bir necha kunga cho‘zilgan qiynoqlardan so‘ng tinkasi qurigan, oyoqda bazo‘r turardi. Ammo uning ko‘zlarida qat‘iyat, mardlik hamon aks etardi. Uning bu o‘tkir nigohlarini ko‘rgan Obma kapitan bilan bo‘ladigan suhbat besamar bo‘lishini oldindan sezdi. Lekin buni Gedar Vuga sezdirgisi kelmadi.

– Xo‘sh, mashhur Salmir sayyorasining fazogirlari biz tarafdarda nima qilib yuribdi? – mahbusni mensimay savol berdi Obma.

– Bu joylar qachondan boshlab qaroqchilarning hududi bo‘lib qoldi? Axir, sizlar Protsion yulduz tizimidagi Giks sayyorasidan emasiz?!

Bunday hozirjavoblikni kutmagan Obma Gedar Vuga nafrat bilan tikildi. Kapitan esa xotirjam gapida davom etdi:

– E, ha, Giks sayyorasi allaqachon yo‘q bo‘lib ketgan edi-ku. Demak, sizlar shunchaki bevatanlar to‘dasi ekansiz-da!

– Bas qil! – suhbatning bunaqa tus olishini kutmagan Obma chidab turolmadi: u Gedar Vuning yuziga qattiq musht tushirdi.

Gikslar tabiatan juda baquvvat bo‘ladilar. Ustiga-ustak, ularning tanasi salmirliliklarga qaraganda 5-marta kattaroq. Hozir ham Obmaning zarbasidan so‘ng Gedar Vu sal qolsa nobud bo‘layozdi. Shunday bo‘lsa-da, u ingragan ovoz bilan dedi:

– Mayli, istaganingni qil. Bizlarni qiynoqqa sol. Ammo bilib qo‘y, baribir, maqsadingga yetolmaysan! – Gedar Vu shunday deb hushini yo‘qotdi.

Obma bu jasur salmirliklarni so‘roq qilish befoyda ekaniga endi iqror bo‘lgandi. U salmirliklarni zindonband etishga buyruq berarkan: “Hozircha menga qo‘lga kiritgan yulduzlararo uchar kema ham kifoya qilib turadi. Qolgan gaplarni Quyosh tizimiga uchgan kapsuladagi fazogir orqali aniqlab olaman”, – deb o‘yladi.

## **QIZIL SAYYORA**

Veneradan kristallni izlab topa olmagan qahramonlarimiz Mars sayyorasiga yo‘l olishdi. Venera va Mars o‘rtasidagi masofa o‘rtacha 120 million km ga teng. Ammo bu masofa ba‘zan qisqarib, ba‘zan esa cho‘zilib turadi. Yer va Mars sayyorolari o‘rtasidagi masofa ham xuddi shunday o‘zgarib turadi. Masalan, 2003-yilda Yer va Mars sayyorolari bir-biriga juda yaqin kelgan va o‘shanda Yerdan Marsgacha atigi 55 million km qolgandi. Undan keyingi yaqinlashuv 2018-yilda sodir bo‘lgan.

Hozir 2036-yil – Venera va Mars o‘rtasidagi masofa o‘rtacha holatda. Yerning eng zamonaviy fazo kemalari bu masofani bosib o‘tishga kamida uch yil vaqt sarflaydi. Ammo Ahmad yaratgan qurilma kemani yashirin gravitatsiya to‘lqiniga tushirib, Veneradan Marsgacha 3 daqiqada yetib olish imkonini beradi.

– Yaqinlashib qoldik. Hozir to‘lqindan chiqamiz, – dedi Ahmad boshqaruv bortidagi turli tugmalarni bosarkan.

Shu payt kema kuchli chayqalib ketdi. Bu kemaning gravitatsiya to‘lqinidan chiqayotganidan dalolat edi. Zum o‘tmay ularning kemasi Mars yaqinida muallaq uchib turardi.

– Qoyil, yetib keldik! – dedi Margol ko‘zlariga ishonmay.

Ahmad esa Marsni birinchi marta suratlarda emas, atigi 200 km uzoqdan ko‘rayotganidan hayratda edi. Mars yuzasida temir oksidi ko‘p bo‘lgani uchun ham qizg‘ish ko‘rinar, u go‘yo qizil qumli cheksiz sahroga o‘xshar edi. Yerliklar Marsni shuning uchun ham “Qizil sayyora” deb atashadi. Million yillar ilgari bu qumliklar o‘rnida ham ummon va dengizlar bo‘lgan. Hozir esa Marsning shimoliy qutbidagina muzliklar saqlanib qolgan, xolos.

– Vaqtni boy bermay tezroq qo‘nishimiz kerak, – Margol shunday deb kema harakatini tezlashtirdi.

“Ko‘kkezar” Mars atmosferasi tomon ucha boshladi. Mars atmosferasi boshqa sayyoralarga qaraganda Yer atmosferasiga ko‘proq o‘xshab ketadi. Chunki unda o‘ta quyuq gazlar mavjud emas. Kunduzi Marsdan osmonga qaralsa, osmon xuddi Yerdagiday moviy rangda ko‘rinadi.

Bir necha daqiqadan so‘ng kema Mars sathiga ohista qo‘ndi. Tez orada skafandrlarini kiyib olgan qahramonlarimiz ham kemadan tushib, atrofni o‘rgana boshladilar.

– Qiziq, Yerdan uchirilgan marskezarlar qayerda ekan?! Ularni ham ko‘rib ketsam yaxshi bo‘lardi, – dedi Ahmad atrofga alanglab. Lekin shu tobda uning ko‘ziga qum uyumlaridan boshqa hech narsa ko‘rinmasdi.

– Ahmad, marskezarlarni qo‘y. Biz shoshilishimiz kerak, gikslar meni qidirib yo‘lga chiqqan bo‘lishi mumkin.

Bu gapdan so‘ng Ahmad ham sergak tortdi. Chunki u hali gikslar haqida o‘ylab ko‘rmagan edi. “Tezroq kristallni topib, uyga eson-omon qaytsam yaxshi bo‘lardi”, – deb o‘yladi u.

Ikkovlon zudlik bilan burg‘ilovchi qurilmani olib uni kerakli joyga o‘rnatdilar. Qurilmaning ba‘zi qismlari ishdan chiqqani uchun ko‘proq qo‘l mehnati kerak edi. Burg‘ilovchining quvuri Mars sathini teshib, 3 ming metrgacha qazigandan so‘ng Margol tuproqni tahlil qilib:

«Bu yerda  $N_2G$  ko‘rinmayapti, demak, boshqa yerdan qazishimiz kerak», – dedi. Ular bir necha soat ichida 15 ta joyni qazib ko‘rishdi, ammo  $N_2G$  topilmadi. Tushkunlikka tushib qolgan Margol ancha vaqt nima qilarini bilmay boshini changallagancha o‘tirib qoldi. Shunda Ahmadning xayoliga yaxshi bir g‘oya kelib qoldi:

– Margol, Olimp vulqonini bilasizmi?

– Bilaman, u Quyosh tizimidagi eng baland cho‘qqi, shundaymi?

– Ha, bundan tashqari, u eng katta vulqon sanaladi.

– Xo‘sh-xo‘sh?! – Margol sabrsizlanib so‘radi.

– Hozirda bu vulqon so‘nib bo‘lgan. Ammo bir vaqtlar undan otilgan lava Marsning tubidan chiqib kelgan. Demak, lava qoldiqlarini tekshirib Marsda kristall bor-yo‘qligini aniqlash mumkin.

– Aqlingga qoyil! Bilmadim, sen bo‘lmasang, holim nima kechardi!? Kel, unda tezroq Olimpga boramiz.

Ular shu zahoti uchar likopchaga o‘tirib Olimp tomon yo‘l olishdi. Olimp balandligi 26 ming metrlik ulkan vulqon krateri bo‘lib, Quyosh tizimidagi biror sayyorada unga teng keladigan cho‘qqi yo‘q. Masalan, Yerdagi eng baland Everest cho‘qqisi 8848 metrga teng bo‘lib, u Olimpdan uch marta pastroq.

Olimpga yetib kelgan qahramonlarimiz uning osmonga ulashib ketgan cho‘qqisini bir muddat hayrat bilan kuzatganlaridan so‘ng burg‘ilash ishlarini boshlab yubordilar. Ammo bu yerda ham dastlabki tuproq natijalari ijobiy chiqmadi.

– Huv ana u dara ortiga boramiz, – tushkun ohangda gap boshladi Margol qo‘llari bilan uzoqqa ishora qilib. – Agar o‘sha joydan ham topa olmasak, Yupiterning yo‘ldoshi Yevropaga uchamiz.

Ular dara ortiga o‘tib yana burg‘ilashni boshladilar.

Bu safar uskuna quvuri 10 metrdayoq qattiq jismga tegdi. Margol joyni radar uskunasi bilan tekshirarkan: “Juda g‘alati... Pastda ulkan jism borgan o‘xshaydi”, – dedi. Ammo bu orada qurilma ham bor quvvati bilan qazishda davom etardi. Shu payt ular turgan joy silkina boshladi. Birdan uzun-uzun yoriqlar paydo bo‘lib, g‘alati tovushlar eshitila boshladi.

– Margol, nimalar bo‘lyapti?! – so‘radi qo‘rqib ketgan Ahmad.

– Bilmadim! Menimcha, burg‘ilash jarayonida Olimp vulqoni uyg‘onib ketdi! – juda qattiq shovqinda Margolning ovozi bazo‘r eshitilar edi.

Ko‘z ochib yumguncha yerdagi yoriqlar ko‘payib, kattalashib ketdi. Ahmad va Margol qochishga imkonsiz qolishdi. Ular bir-birlarining qo‘lini mahkam tutganча yoriqlarning biridan pastga qulab tushishdi.

Jarlikka qulagan qahramonlarimiz negadir jarohat olishmadi. Chunki ular qandaydir yumshoq narsa ustiga tushishgandi. Atrof zim-ziyo, hatto skafandrning chiroqlari ham qorong‘ilik chegarasiga yeta olmasdi.

– Qayerdamiz, nega chiroqlar bu yerni yorita olmayapti? – ajablanib so‘radi Ahmad.

– Bu juda-juda katta g‘or bo‘lsa kerak. Shu sabab fonarning nuri yorita olmayapti, – Margol shunday deb o‘rnidan turdi, atrofga yaxshiroq razm sola boshladi. Shu payt skafandr g‘alati axborot bera boshladi: “Tashqaridagi kislorod me‘yorida... kislorod me‘yorida...”

– Menimcha, skafandr ham ishdan chiqdi. Axir, Marsda toza havo yo‘q-ku, – dedi Margol hayron bo‘lib.

– Yo‘q, unday emas. Bemalol shlemlaringizni yechishingiz mumkin, – kutilmaganda uzoqdan begona ovoz eshitildi.

Bu ovoz qahramonlarimizni qo‘rqitib yubordi. Margol

zudlik bilan himoyalaniş uchun qo‘liga qurolini oldi:

– Kim bu?! Biz yomon niyatda kelmaganmiz! Urishishni ham xohlamaymiz, – dedi u ovoz kelgan tarafga yuzlanib.

– Men oddiy droidman, – qorong‘ilik qa‘ridan bo‘yi pastakkina, ko‘rinishidan samovarga o‘xshab ketadigan robot-droid chiqib keldi.

Ahmadning ham, Margolning ham xayoliga birdan “Kimsasiz Mars sayyorasida bu droid nima qilib yuribdi ekan?!” degan o‘y keldi. Chunki ular uchun bu umuman kutilmagan hol edi.

Droid ularga yaqinlashib kelib dedi:

– Sizlarni qo‘rqitib yuborgan bo‘lsam, kechiring. Shunchaki to‘rt million yildan buyon hech kim bilan gaplashmadim.

– To‘rt million yil?! – bu raqamdan Ahmadning esi chiqq yozdi.

– Ha, shu sababli sizlarni ko‘rdim-u suhbatlashishga shoshdim, – dedi droid.

Margol droidga yaqinroq kelib unga sinchiklab tikila boshladi. Haqiqatan ham bu juda-juda eski qurilma edi. Million yillar oldin salmirliliklar ham shunga o‘xshash droidlarni yasashgan. Bu droidlar turli maqsadlarda, masalan, nogironlarga ko‘maklashishda, tansoqchilikda, uydagi yumushlarni qilishda, shaxsiy kotiblikda juda qo‘l kelar edi. Ularning miyasiga sun‘iy ong o‘rnatilgani sababli fikrlash, mantiqiy o‘ylash xususiyatiga ham ega bo‘lishadi. Salmirliliklarning zamonaviy droidlari esa ancha takomillashib ketgan.

– Salmirdagi Tarix muzeyida senga o‘xshash droidlar saqlanadi, – kuldi Margol.

– Bu yerga qanday kelib qolgansan? – so‘radi Ahmad.

– Bu joy sizlar aytganday ulkan g‘or emas, balki marsliklar qurgan yerosti shahri, – droid shunday deb

qandaydir tugmani bosdi. Birdan butun qorong'ilik bag'rida minglab chiroqlar yona boshladi. Tasavvur qilish qiyin, lekin bu joy chindan ham oxiri ko'rinmaydigan katta shahar edi. Unda osmono'par binolar, keng yo'llar bor edi. Ammo shahardagi hamma narsa xarobaga aylanib qolgan. Daraxtlar, o'simliklar qurigan, marsliklarning g'aroyib transport vositalari esa yo'llarda zang bosib, chirib yotardi. Biror tirik jondan asar ham yo'q edi. Ahmad va Margol shundoqqina keng yo'lning o'rtasiga, havo bilan shishiriladigan katta yumshoq yostiqa qulashgan ekan. Bu haqida droidning o'zi aytib berdi. Yostiqa esa shu droid chaqqonlik bilan qo'yib ulgurgan.

– Demak, bizning hayotimizni sen saqlab qolibsanda?! – Margol endi droidga boshqacha mehr bilan qaray boshladi.

– Rahmat senga, – dedi Ahmad droidning qo'lini siqib.

Yorug'da droidning bo'y-basti, temir tanasidagi qurilmalari juda yaxshi ko'rindi. Droidning oyoqlari yo'q, to'rtta g'ildirakda harakatlanardi. Bo'yi bir metr, bosh qismi bejirim ishlangan. Uning yonib-o'chib, turli shakllarga kirib turadigan ko'zlari droidning maxsus "mimika"sini bildirib turardi. Eng qizig'i, u bir joyda hech tek turmas, tinimsiz u yoqdan bu yoqqa o'tib, harakatlanib turardi.

– Qiziq, bo'zchining mokisiday tinmas ekansan, – kuldi Ahmad, – aytganday, isming bormi?

– Yo'q, bizni "D – 121" deb atashardi.

– Men yerlik Ahmad, bu esa salmirlik Margol bo'ladi. Seni esa Moki deb atasak nima deysan?

– Qanday yaxshi, mening ham ismim bo'ladi! Lekin "moki" degani o'zi nima?

– Moki – mato to'qiydigan dastgohning mitti uskunasi. To'quvchi bu asbobni iplarning orasidan u yoqdan bu yoqqa o'tkazib mato to'qiydi.

– Tushunarli, menga mos va chiroyli ism ekan.



Shunday qilib, ular tanishib olishdi. Moki Mars tarixini bir boshdan soʻzlab berdi. Uning aytishicha, million yillar oldin Mars juda soʻlim sayyora boʻlgan. Undagi ummonlar, dengizlar va oʻrmonlarda turli hayvonot va nabototlar yashagan. Sayyora aholisi esa juda baxtli kun kechirgan. Ammo yillar oʻtib marsliklarning taraqqiyoti sayyora ekologiyasiga jiddiy taʼsir qila boshlaydi. Marsliklar ekologiyaga bepisandlik qilib, uni tinimsiz turli chiqindilar bilan zaharlay boshlaydilar. Zavod va fabrikalardan chiqqan zaharli tutun atmosferani yemiradi, aholini kasallantiradi. Sayyora isib, dengiz va okeanlardagi suv bugʻlanib ketadi. Oxir-oqibat sayyora yadrosi ham soʻnadi – Mars iqlimi soviy boshlaydi. Mars aholisi esa ulkan yerosti shaharlarini qurib, ularda yashay boshlashadi. Ammo bu ham uzoqqa choʻzilmaydi. Yer ostida yashash turli kasalliklarni, noqulayliklarni keltirib chiqara boshlaydi. Marsliklar bu shaharlarga sigʻmay qoladi. Natijada oʻzaro nizolar kuchayadi. Urushlar boshlanadi. Xullas, falokatdan bir necha yuz yil oʻtib tirik qolgan marsliklar sayyorani tashlab, yangi makon izlab uchib ketishadi...

– Bu shahar robot va droidlarning shahriga aylanib qolgandi. Ammo million yillar davomida ularning hammasi ishdan chiqdi. Faqat men hozircha ishlab turibman.

– Qiziq, nega aynan sen saqlanib qolding? – hayron boʻlib soʻradi Margol.

– Bilmadim. Men juda mashhur muhandisning kotib-droidi edim. Balki, u meni oʻziga xos uslubda yasagandir. Lekin mening ham baʼzi uskunalarim ishdan chiqib ulgurdi.

– Hechqisi yoʻq, seni oʻzim yangiday qilib sozlab qoʻyaman, yana million yilga yetadigan qilib, – kuldi Margol.

– Margol, demak, Salmirning taqdiri ham Marsnikiga

o‘xshashi mumkin ekan-da? – so‘radi Ahmad.

– Ha, Mars – o‘lik sayyora! Kristalni topmasak, Salmirni ham shunday kelajak kutyapti!

– Qanday kristallni izlayapsiz?! – so‘radi Moki.

– N<sub>2</sub>G nomli kristallni. Uni sayyoraning so‘nayotgan yadrosiga tashlash kerak. Shunda...

– Sayyora yadrosi qayta jonlanadi, shundaymi? – dedi Moki Margolning gapini bo‘lib.

– Shunday, lekin sen buni qayerdan bilasan?

– Chunki marsliklar ham 300-yil davomida uni qidirganda! Aslida, men ham shu kristallni qidirishga mo‘ljallab yaratilganman.

– Xo‘sh, uni topdinglarmi? – toqatsizlanib so‘radi Margol.

– Afsuski, yo‘q. Bu kristallni Quyosh tizimidan topa olmaganmiz, – dedi droid. – Uni “Katta Magellan buluti” galaktikasidagi Oltin baliq yulduzi tizimidan topish mumkin. Mars olimlari Oltin baliq yulduziga olib boruvchi xaritani izlab to‘rt million yil oldin jo‘nab ketishgan. Oltin baliq juda uzoqda, xaritasiz unga milliard yilda ham yetib bo‘lmaydi.

\*\*\*

*Moki aytayotgan “Katta Magellan buluti” bizning “Somon yo‘li” galaktikamizga yo‘ldosh hisoblanadi. Ya‘ni u ham kichikroq galaktika, faqat “Somon yo‘li”ga ergashib yuradi. “Katta Magellan buluti” galaktikamizdan 163 ming yorug‘lik yili uzoqligida joylashgan. Demak, yorug‘lik tezligida uchilsa, 163 ming yilda unga yetib borish mumkin. Bu galaktikada yulduzlar “tug‘iladi”. Aniqrog‘i, bulutga o‘xshash samoviy changlar yig‘ilib, yangi yulduzlarni hosil qiladi. Olimlarning taxminicha, bu jajji galaktikada 30 milliardga yaqin yulduz mavjud. Bulutlikda Oltin baliq*

*nomi bilan mashhur bo'lgan yulduz turkumi bo'lib, u jami 32 ta yulduzdan tashkil topgan. Bu turkumni Yerdan turib oddiy ko'z bilan ham ko'rish mumkin. Gamma Oltin baliq yulduzi esa galaktikadagi eng yorqin yulduzlardan biri hisoblanadi. U bizning Quyoshimizdan 500 ming marta yorqinroq!*

– Ana xolos! – Margolning kayfiyati tushib ketdi.

– “Ko'kkezlar” bilan bu masofani uch oyda bosib o'tish mumkin. Faqat xarita topib, yo'nalishni to'g'ri belgilab olish kerak. Lekin men u yoqlarga bora olmayman. Tezroq uyga qaytishim kerak, – dedi Ahmad.

– Balki, seni Yerga tashlab, o'zim Oltin baliq yulduziga ucharman.

– Men ham sizga hamroh bo'lsam degandim, – gapga qo'shildi Moki, – kristallni topishda juda asqataman.

– Ana, yordamchi ham tayyor! Ahmad sen faqat bizga yo'nalishni belgilab bersang bo'lgani, – dedi Margol Ahmadga qarab.

– Qanday qilib, axir, qo'limda xarita yo'q-ku. Bizning olimlar hali u yerlarni o'rganmagan. Men gravitatsiya to'liqlari qayoqqa olib chiqishini bilmayman, – dedi Ahmad xo'rsinib.

Ahmadning e'tirozi o'rinli edi. Chunki manzilga olib boradigan yo'lni to'g'ri belgilash uchun shu yo'ldagi barcha osmon jismlarini, ularning hajmi va massasini bilish kerak. Aks holda, istalgan gravitatsiya to'liqiniga sho'ng'ishning oqibati yomon bo'lishi mumkin. Ya'ni kema bir tuynukdan kirib, koinotning umuman boshqa joyidan chiqishi va fazogirlar cheksiz koinotda adashib qolishlari mumkin. Shu sababli butun galaktikadagi yulduzlarning joylashish o'rni ko'rsatilgan xarita bo'lmasa, aytilgan manzilga yetib borish mushkul.

– Boshim qotdi, endi sayyoramizning taqdiri nima

kechadi?! – Margolning ko‘zlariga yosh keldi.

Shu payt Mokining bosh qismidagi chiroqlar yonib-o‘cha boshladi. Shaharning himoya tizimi esa ishlab ketib, katta karnaylardan “xavf yaqin... xavf yaqin...” degan ovoz jaranglay boshladi.

– Sayyoraga noma’lum uchar qurilma yaqinlashib qoldi, – dedi Moki himoya tizimini tekshirib.

– Hoynahoy, bu qaroqchi gikslar bo‘lsa kerak! Izimizni topishibdi-da! – dedi Margol tahlikali ovozda.

– Endi nima bo‘ladi?! – so‘radi xavotirga tushgan Ahmad.

– Qani, yuringlar, sizlarni maxfiy tunnel orqali kemangizga olib boraman, – dedi Moki shu payt.

Yuqorida raketa dvigatelining ovozi eshita boshlagandi. Ular Mokiga ergashib maxfiy tunnyelga kirishdi. Bir necha daqiqa tunnyel ichidagi poyezdga o‘xshash transportda yurib “Ko‘kkezar” turgan joydan chiqib kelishdi.

– Tezroq, hamma kemaga chiqsin, – dedi sheriklaridan tez chopayotgan Margol.

Birinchi bo‘lib kemaga yetib kelgan Margol lyukni ochib Ahmadni ham bir urinishda tortib oldi. So‘ng o‘ylab o‘tirmay Mokini ham kemaga chiqardi. Ular kemaga o‘tirib tezlik bilan uni o‘t oldirishdi. Endi uchmoqchi bo‘lishganida uzoqdan ular tomon uchib kelayotgan gikslarning qiruvchi kemasi ko‘rindi.

– Hoziroq uchmasak, ular o‘q uzishni boshlaydi, – dedi Moki.

Margol “start” tugmasini bosdi. “Ko‘kkezar” tezlik bilan yuqoriga ko‘tarila boshladi. Ammo qiruvchi kema ham ularning ortidan qolmayotgan edi.

– Ahmad, Yerga qarab ucha olmaymiz. Ular baribir ortimizdan ta‘qib qilishadi, – dedi Margol imkon qadar tezlikni oshirishga harakat qilib.

Margolning gapi to‘g‘ri ekanini Ahmad ham juda yaxshi bilardi. Sababi, qaroqchilar ularning ortidan Yergacha yetib borsa yerliklarga ziyon yetkazishi mumkin. Ammo qayoqqa qarab uchishlari kerak?!

– Unda qayoqqa uchamiz?!

– Bilmadim, Quyosh tizimidan chiqib ketishimiz kerak!

Shu payt qiruvchi kema bir nechta raketa uchirib hujumga o‘tdi. Bu raketalar “Ko‘kkezar”ning ketidan qolmay taqib eta boshladi. Shu sabab “Ko‘kkezar” ekipaji yanada tezroq uchib raketalarga chap berishga harakat qilardi. Shu tobda Ahmadning o‘ylab o‘tirishga bir soniya ham vaqti yo‘q – har onda raketalar “Ko‘kkezar”ga kelib urilishi mumkin. Chorasiz qolgan Ahmad, qanchalar xatarli bo‘lmasin, yo‘lda uchragan birinchi gravitatsiya tuynugiga kirib ketishga qaror qildi. Ikki soniya o‘tar-o‘tmas “Ko‘kkezar” eng yaqin gravitatsiya tuynugiga yetib keldi-da, unga sho‘mg‘ib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Obmaning josuslari esa nima bo‘lganini ham tushunmay hang-mang bo‘lib qolishdi. Chunki koinotda biror-bir kema bu qadar tezkorlik bilan g‘oyib bo‘lishiga hali ular guvoh bo‘lishmagandi.

“Ko‘kkezar” gravitatsiya to‘lqinida 15 daqiqa suzganidan so‘ng to‘lqinning narigi boshidagi boshqa bir tuynukdan chiqib keldi. Biroq shu 15 daqiqada “Ko‘kkezar” Quyosh tizimidan 17 yorug‘lik yiliga uzoqlashib, Al-Toyir yulduzi tizimiga yaqinlashib qolgandi.

## MEHMONDO‘ST ZAGUNLIKLAR

\*\*\*

*Al-Toyir – Yerga yaqin yulduzlarning yana biri. Bu yulduz Yerdan 16,8 yorug‘lik yili uzoqligida joylashgan. Bir yorug‘lik yili yorug‘likning bir yilda bosib o‘tadigan masofasiga teng ekanini hisobga olsak, Al-Toyirdan tarqalgan yorug‘lik Yergacha deyarli 17 yilda yetib keladi. Yerdan uchirilgan eng tez uchar qurilma – “Voyager-1” esa Al-Toyirga million yildagina yetib borishi mumkin. Endi “Ko‘kkezar”ning qanchalar tezkor ekanini tasavvur qilgan bo‘lsangiz kerak?! Ammo “Ko‘kkezar” qanchalar tez uchmasin, cheksiz koinot bag‘rida toshbaqaday imillab qolishini ham unutmang. Axir, Al-Toyirga o‘xshagan yulduzlar galaktikamizda 200 milliarddan ortiq. Bizning galaktikamizga o‘xshagan galaktikalarning esa koinotda sanog‘i yo‘q.*

*Xo‘sh, koinotdagi bu yulduzlar qanday qilib yorug‘lik nurini taratadi va nimaning hisobiga doim lovullab turadi? Keling, buni Quyosh misolida tushunib olamiz.*

*Quyoshni ulkan tajribaxonaga qiyoslash mumkin. Chunki uning ichidagi turli-tuman moddalar bir-biriga qo‘shilib yangi moddalarni hosil qiladi. Qizig‘i, Quyosh ana shunday “kimyoviy tajribalar” evaziga misli ko‘rilmagan issiqlik energiyasini ishlab chiqaradi.*

*Olimlarning aniqlashicha, Quyoshda 69 xil kimyoviy element bor. Lekin Quyoshning 98 foizi vodorod va geliydan tashkil topgan. Bilsangiz, vodorod ham, geliy ham hidsiz, rangsiz, juda yengil gaz hisoblanadi. «Unday bo‘lsa, Quyosh ham yengilgina havo shari ekan-da», – deyishga shoshilmang. Quyoshdagi vodorod va geliy juda zich bo‘lib, temirdan ham og‘irroq.*

*Quyoshda issiqlik energiyasi va yorug‘likning hosil*

*bo'lishi juda ham g'aroyib jarayondir. Quyoshning asosiy yoqilg'isi vodorod tarkibidagi yadrolar bir-biriga urilib geliy gazini hosil qiladi. Vodorod yadrolari bir-biriga urilayotgan vaqtda esa tasavvur qilish qiyin bo'lgan energiya hosil bo'ladi. Qarang, hatto ko'zga ko'rinmas o'ta mayda zarralarning ham ana shunday cheksiz energiyasi bor ekan. Fanda bu jarayon "yadroviy sintez" deb ataladi.*

*Bilasizmi, o'zi kichkina bo'lsa ham, katta davlatlarning kulini ko'kka sovurib yuboradigan dahshatli qurol – atom bombasi ham yadroviy sintez natijasidir. Quyoshning ichida esa soniyasiga millionlab "atom bomba"lari portlaydi.*

Xullas, bu safar "Ko'kkezar" ekipaji uchun kutilmagan voqea bo'ldi. To'g'ri, Ahmad istalgan tuynukka tavakkaliga kirib ketishning oqibati yomon bo'lishini yaxshi bilardi. Ammo u Yerdan bu qadar uzoqlashib ketishlarini kutmagandi. Shu sababli hozir hammadan ham Ahmadga qiyin edi. Shu tobda uning xayolida faqat bir o'y aylanardi: «Endi mening taqdirim nima bo'ladi? Axir, men bir kechada uyimga qaytmoqchi edim-ku!»...

Voqealar bunaqa tus olishini kutmagan Margol ham nima qilarini bilmay boshini changallaganicha o'tirib olgan. U har-har zamon "esiz, esiz" deb bir Ahmadga, bir Mokiga qarab qo'yardi. Bu vaziyatda uning kallasiga biror jo'yali fikr kelishi dargumon.

Ahmad "Ko'kkezar" oynasidan moviy rangdagi Al-Toyir yulduzini kuzatar ekan, gap boshladi:

– Uydan shu qadar uzoqqa kelib qoldikki, ortga qaytishning deyarli imkoni yo'q.

– Nega endi?! – so'radi Margol.

– Koinotda gravitatsiya to'lqinlari juda-juda ko'p. Ularning qay biri Yergacha olib borishini aniqlashga esa million yillar kerak bo'ldi. Men Quyosh tizimidagi barcha

sayyoralar, ularning joylashuv o‘rni haqida juda yaxshi bilardim. Shuning uchun kerakli yo‘nalishni aniqlash qiyin bo‘lmagan. Endi bo‘lsa hali o‘rganilmagan yulduz va sayyoralar qarshisida turibmiz!

– Galaktikaning mukammal xaritasi! – dedi Moki va nimanidir esdan chiqargan, shekilli, boshini qo‘llari bilan chayqata boshladi. – Judayam eskirib ketganman-da, eslolmayapman... Ha, senga galaktikaning mukammal xaritasi kerak!

– Shunday xarita bormi?

– Bor. Uni qadimgi meriyaliklar tuzishgan. Xaritadan Somon yo‘li galaktikasi va uning yo‘ldoshlari – Katta va Kichik Magellan bulutlarining barcha yulduzlari joy olgan. Faqat xarita hozir qayerda ekanini bilmayman.

– Agar uni topsak, “Ko‘kkezar” bilan galaktikaning istalgan joyiga borish mumkin bo‘ladi, to‘g‘rimi?! – Ahmadning ko‘ngli biroz yorishdi.

– Ha, bu xaritada galaktikadagi barcha jismlarning joylashgan o‘rni aniq ko‘rsatilgan, – dedi Moki. – Ammo uni izlab topishimizga ko‘zim yetmaydi. Chunki marsliklar ham shu xaritani juda uzoq yillar davomida qidirishgan.

– Tushkunlikka tushib o‘tirgandan foyda yo‘q! Yaxshisi, kallani ishlatib biror chora izlab topaylik, – endi Margol ham boshini ko‘tarib suhbatga aralashdi.

– Menda bir g‘oya bor, – dedi Ahmad ko‘rsatkich barmog‘ini yuqoriga ko‘tarib, – Al-Toyir juda katta yulduz, hoynahoy, uning atrofida ham sayyoralar bo‘lsa kerak.

– Al-Toyir tizimida 5 ta yirik sayyora mavjud. Ulardan eng mashhuri Zagun sayyorasi hisoblanadi, – dedi Moki.

– Zagun sayyorasi haqida men ham o‘qiganman. Kitoblarda zagunliklarni “juda mehmondo‘st” deb yozishgan, – Margol Mokining so‘zlarini tasdiqlab qo‘ydi.

Shundan so‘ng Ahmad do‘stlariga o‘ylagan g‘oyasini



tushuntirdi. Unga ko‘ra, Al-Toyir yulduzi atrofidagi biror tirik sayyoraga qo‘nib, u yerning tarixchi olimlaridan yordam so‘rash kerak bo‘ladi. Kim biladi deysiz, balki, zagunliklar galaktika xaritasi haqida eshitishgandir.

Xullas, Ahmadning taklifi hammaga birday ma’qul bo‘ldi. Shu tariqa ko‘ngillarida umid uyg‘ongan qahramonlarimiz Zagun sayyorasiga qarab uchib ketishdi.

Yerlik olimlar uchun hali ma’lum bo‘lmagan Zagun ekzosayyorasi Al-Toyir tizimidagi beshta sayyoraning biri edi.

\*\*\*

*Aytganday, Quyoshdan boshqa yulduzlar tizimida joylashgan sayyoralar fanda ekzosayyora deb ataladi. Birinchi ekzosayyora 1980-yilda kashf qilingan. 2012-yilda esa astronomlar quyoshga yaqin bo‘lgan Sentavr Alfasi yulduzlar turkumida Yerga o‘xshash sayyora borligini aniqlashgan. Unga Proksima-B nomi berilgan. Hozircha Proksima-B bizga eng yaqin “yashil” sayyora bo‘lib turibdi. Albatta, hali bu ekzosayyorada suv va hayot borligi isbotlanmadi. Ammo olimlar shunga umid qilishmoqda. Dunyo astronomlari hozirgacha 4000 ga yaqin ekzosayyorani aniqlashgan bo‘lishsa, shulardan 216 tasi Yer sayyorasiga juda o‘xshab ketadi. Bu ekzosayyoralarda dengizlar, yashil o‘rmonlar bo‘lishi mumkin. Har holda, Xabll teleskopidan uzatilgan suratlarda yashil sayyoralar aks etgan.*

“Ko‘kkezar” Zagunga bir zumda yetib keldi. Chunki unga olib boradigan yo‘llar Mokining xotirasidan o‘chmagan ekan. Bu sayyora bizning Yerdan 40-marta katta bo‘lib, asosan, tog‘lardan iborat edi. Sayyorada yashaydigan zaglar esa shu tog‘larni yo‘nib, juda chiroyli va ulkan

qasrlar qurishgan. Bu qasrlar shu qadar ulug‘vorki, ularni hatto fazodan turib ham ko‘rish mumkin.

“Ko‘kkezar” qo‘ngan joy qahramonlarimizga kimsasiz joyday tuyuldi. Ammo tez orada ularni bir nechta zaglar qarshi oldi. Avvaliga zaglarning ko‘rinishi bizning qahramonlarni biroz cho‘chitdi. Chunki zaglar ko‘rinishidan toshbaqaga o‘xshab ketar, gavdasi ham odamdan 5-6 barobar katta edi. Ammo ular haqiqatan mehmondo‘st, xushmuomala ekan. Zaglar kutilmagan mehmonlarning kimligini, Zagunga nima maqsadda kelganini obdan surishtira boshladilar. Qahramonlarimiz esa barini oqizmay-tomizmay so‘zlab berishdi. Shunda mezbonlarning biri dedi:

– Yordam so‘rab bizning sayyoraga uchib kelganingiz to‘g‘ri bo‘libdi. Adashib qo‘shni sayyoralarga borganingizda sizlarni surishtirib o‘tirmay hibsga olishar edi. Sizlar so‘ragan xarita haqida biz eshitmaganmiz. Ammo keksa Faylasufning bilmaydigan narsasi yo‘q.

– Faylasuf deganingiz kim? Uni qayerdan topsa bo‘ladi? – so‘radi Margol.

– U sayyoramizning eng keksa zagi, – dedi boyagi zag. – Yoshi esa o‘n mingdan oshgan! Faylasuf sayyoraning narigi burchagidagi ulkan tog‘ cho‘qqisida, g‘orda yashaydi. Uning uyiga o‘zingiz bora olmaysiz. Sizlarni o‘zimiz eltib qo‘yamiz.

Shunday qilib, qahramonlarimiz zagunliklarga ergashib yo‘lga chiqishdi. Ular turli daralar, tog‘u toshlar osha zagunliklarning mototsiklga o‘xshash g‘aroyib uchar transportida 5-6 soat davomida yo‘l yurishdi. Qosh qorayganda aytilgan manzilga yetib kelishdi. Bu Zagun sayyorasidagi eng ulkan tog‘ edi. Shu qadar ulkan ediki, agar Yer yuzidagi barcha tog‘lar birlashsa ham unga teng kelolmasdi. Tog‘ning etagida turib cho‘qqini, cho‘qqida turib esa pastni ko‘rishning imkoni yo‘q edi.

Yoshi o‘n mingdan o‘tgan Faylasuf shu tog‘ cho‘qqisida istiqomat qilar ekan. U bizning qahramonlarni juda iliq kutib oldi. Ayniqsa, Ahmadga alohida izzat-ikrom ko‘rsatdi. Boshqalar esa bu holdan ajablandi. Faylasuf negadir Ahmadga uzoq tikilib, unga boshdan oyoq razm sola boshladi. Bir muddat o‘tganidan so‘ng dedi:

– Bolaligimda bobom: “Qachonlardir sen Yer sayyorasidan kelgan maxluq bilan uchrashasan”, – deb aytar edi. Men shu kungacha odam degan maxluqning borligiga ishonmasdim. Uni ertaklardagi to‘qima qahramon bo‘lsa kerak deb o‘ylardim. Ammo, mana, sen qarshimda turibsan!

– Juda g‘alati-ku, qanday qilib bobongiz buni bilgan? – hayron bo‘ldi Ahmad.

– Bilmadim, bobom shunday bashorat qilgan. To‘g‘risi, o‘zim ham buni cho‘pchak deb o‘ylagandim.

– Axir, men bu yerga tasodifan kelib qoldim.

– Yo‘q, bolakay, koinotda tasodiflar bo‘lmaydi. Peshonamga sen bilan ko‘rishish yozilgan ekan, demak, bunda biror hikmat bor.

– Balki, taqdiringizga bizga yo‘l ko‘rsatish bitilgandir?!

– Ha, balki... Lekin buni aniq bilmayman. Men 10 ming yildan ortiq yashagan esam-da, hali taqdirga yozilganini o‘qishni o‘rgana olmadim. Har holda, buning imkoni yo‘q ekanini anglab yetdim-ku, shunisiga ham shukr...

Faylasuf birqancha vaqt o‘zi bilan o‘zi gaplashayotganday bidir-bidir qilganча keng xonada aylanib yurdi. Keyin yana Ahmadning yoniga kelib to‘xtadi.

– Xo‘sh, nima xizmat?

– Bilasizmi, biz galaktika xaritasini izlab yuribmiz.

– Xarita sizlarga nega kerak?

– Xarita mening sayyoram – Salmirni qutqarib qolish uchun kerak, – dedi Margol Faylasufga yaqinroq kelib.

– Tushunarli, sizlar Moviy toshni qidirib yuribsiz,

shundaymi?

– Moviy tosh?

– Ha, sizlar qidirayotgan kristallni aytyapman. Uni Moviy tosh ham deyishadi.

– Siz uni bilasizmi?

– Bilganda qandoq! O‘tgan ming yillar davomida bizning Somon yo‘li galaktikamizda qanchadan qancha sayyoralar halokatga uchramadi deysiz. Esimni tanibmanki, shu toshni qidirib yurgan fazogirlarni uchrataman.

– Uni topishganmi?

– Bilmadim, toshni izlab yurganlarni bir marta ko‘rib, qayta uchratmaganman. Shu paytgacha Moviy tosh topildi degan gapni ham eshitmadim. Ammo qadimgi kitoblarda uni Oltin baliq yulduzi tizimidagi Olmos sayyorasidan topish mumkinligi yozilgan.

– Marsliklar ham shu yulduzga qarab uchib ketishgan deb aytdim-ku, – dedi chetroqda turgan Moki.

– Bu toshni hatto qaroqchilar ham qidirishmoqda, – jiddiy ohangda so‘zladi Faylasuf.

– U qaroqchilarga nega kerak? – so‘radi Margol.

– Moviy tosh bitmas-tuganmas energiyaga ega. Atigi shu barmog‘imday keladigan Moviy tosh bo‘lagida kichikroq yulduzning quvvati jam bo‘ladi. Bunday tosh bilan esa juda ham yovuz qurollarni yaratasa bo‘ladi.

– Demak, qaroqchilarga bu tosh qurol yaratish uchun kerak ekan-da?!

– Shunday.

– Janob Faylasuf, Olmos sayyoraga olib boradigan galaktika xaritasini qanday topish mumkin? – deya savol berdi Margol sabrsizlanib.

– Galaktika xaritasi haqiqatan ham bor. Lekin uni 100 million yil ilgari 4 ta qismga bo‘lib tashlashgan, – deya gap boshladi Faylasuf. – Sababi, bu xarita to‘liq holda

bosqinchilarning qo‘liga tushib qolsa, ular xaritadan foydalanib butun galaktikani bosib olishlari mumkin.

– Demak, xarita qismlari hozir koinotning turli joylarida ekan-da?

– Ha, shunday. Menga qolsa, sizlar xarita qismlarini yig‘maganingiz yaxshi edi, – dedi Faylasuf.

– Nega endi? – e‘tiroz bildirdi Margol.

– Birinchidan, sizlar xaritani yig‘aman deb halokatga uchrashingiz hech gap emas. Ikkinchidan, agar xaritani topsangiz, nafaqat Salmir sayyorasi, balki butun galaktika aholisi xavf ostida qoladi. Chunki sizdagi xaritani istalgan qaroqchi tortib olishi mumkin.

– Janob Faylasuf, siz xarita qismlari qayoqda ekanini bilasizmi o‘zi? – so‘radi Ahmad.

– Bilaman. Xaritaning bir qismi Miks sayyorasida, biri Galaktika muzeyida, yana biri qaroqchi Obmada saqlanadi. Eng kichik, ammo eng muhim qism esa dom-daraksiz yo‘qolgan. – Faylasuf shunday deb Ahmadga yaqinroq keldi. Negadir uning ko‘zlariga tikilib qarab qoldi. – Shu so‘nggi qismning siriga hali hech kim yetganicha yo‘q. Bolakay, balki, bu sirni sen oshkor qilarsan?

– Men... men bilmadim... – dedi Ahmad kalovlanib.

– Sezib turibman, sen buni uddalashing mumkin. Ammo yodingda tut, sen yaratgan kema galaktikada yagona. Bunday kemaga ega bo‘lishni istaydigan yovuzlar esa juda ko‘p. Sizlar juda ehtiyot bo‘lishingiz kerak. Yo‘lingizda uchragan har kimga ham ishonavermang!

Faylasuf shunday deb so‘zini tugatdi. Qahramonlarimiz esa u bilan xayrlashib ortga qaytishdi. Ular zagunlik hamrohlaridan Maanen yulduzi yaqinidagi Miks sayyorasiga olib boruvchi yo‘lni bilib olishganidan so‘ng “Ko‘kkezar”ga o‘tirib yo‘lda davom etishdi.

## KOINOT XARITASINING BIRINCHI BO‘LAGI

\*\*\*

*Maanen Yerga eng yaqin yulduzlardan biri bo‘lsa-da, tungi osmondan uni teleskopsiz topa olmaysiz. Sababi, u mittigina oq yulduz bo‘lib, o‘zidan yorqin nur tarata olmaydi. Shunga qaramay, u galaktikamizdagi eng qari yulduzlardan biri hisoblanadi. Milliard yillar ilgari Maanen ham bahaybat yulduz bo‘lgan. Uning atrofida sayyoralar ham ko‘p edi. Vaqt o‘tib yulduz o‘zining asosiy yoqilg‘isi – vodorod gazini sarflab bo‘lgach, yadrosi siqila boshlagan. Yulduzning o‘zi esa bir necha 10 barobarga kattalashib, qizil rangli gigant olov sharga aylanadi. Million yillar davomida bu olovli shar ham atrofga tarqalib, yo‘q bo‘lib ketadi. Undan faqat shu mittigina oq yulduzcha qoladi, xolos. Qachonlardir bizning Quyosh ham Maanen kabi mitti yulduzga aylanadi. O‘shanda uning atrofidagi sayyoralar, hatto Yerning ham kuli ko‘kka sovuriladi. Lekin siz qo‘rqmasangiz ham bo‘ladi. Chunki, olimlarning hisob-kitobiga ko‘ra, Quyoshning qizil olovga aylanishi uchun hali bir necha milliard yil o‘tishi kerak ekan.*

Miks shu Maanen yulduz tizimida saqlanib qolgan yagona sayyora edi. Miks o‘z yulduzidan ancha olisda bo‘lgani sabab qizil olovdan omon qolgan. Bizning qahramonlar unga qo‘nganlarida bu joyda biror tirik mavjudotning yashashi mumkinligiga ishonqiramadilar. Sababi, sayyora iqlimi juda-juda sovuq bo‘lib, uning sathi faqat muz qoyalardan iborat edi.

– Miksliklar allaqachon qirilib ketgan yoki boshqa sayyora ko‘chib o‘tishgan bo‘lishsa kerak, – dedi Margol “Ko‘kkezar”dan tushar ekan.

– Hoynahoy, bu yerga anchadan beri mehmonlar kelmagan. Shuning uchun ham miksliklarning taqdiri haqida hech kim bilmaydi, – Margolning gapini tasdiqlab qo‘ydi Ahmad.

– Yo‘q, mendagi uskunalar sayyorada hayot borligini ko‘rsatyapti, – dedi Moki boshidagi antennani aylantirarkan.

Shu payt Moki hayot alomatlari borligini tasdiqlovchi turli to‘lqinlarni tutib oldi. Keyin bu to‘lqinlarni o‘z kompyuterida tahlil qila boshladi. 3-4 soniya o‘tar-o‘tmas:

– To‘lqin uzatilayotgan joy unchalik uzoq emas, – dedi. – Yuringlar, men yo‘lni aniqladim.

Ular uchar likopchaga o‘tirib Moki ko‘rsatgan yo‘l bo‘ylab uchib ketdilar. Yo‘l davomida qahramonlarimiz Miksning go‘zal manzarasini tomosha qilib ketishdi. Miks sathi billurga o‘xshash ulkan muz tog‘lardan iborat edi. Maanen yulduzi kichkina bo‘lgani sabab sayyoraning kunduzi ham unchalik yorug‘ emas, xuddi Yerdagi shom pallasiga o‘xshardi. Shunday bo‘lsa-da, mitti oq yulduzning nurlari sayyoradagi muzliklarga o‘zgacha jilo berib turar, bu noyob manzara, ayniqsa, Ahmad bilan Margolni hayratlantirardi.

Qahramonlarimiz uchar likopchada bir necha daqiqa yo‘l bosishganidan so‘ng Moki aytgan manzilga yetib keldilar. Umuman, Miksning hamma joyi bir-biriga o‘xshardi. Mana, ular yetib kelgan joy ham sayyorada ko‘p uchraydigan ulkan muz tog‘larining biri edi.

– To‘lqin shu tog‘ning ichidan uzatilyapti, – dedi Moki qo‘li bilan tog‘ga ishora qilib.

– Menimcha, ular ham zagonliklarga o‘xshab tog‘ ichiga uy qurishgan, – Margol shunday deb skafandrga o‘rnatilgan durbin bilan atrofga diqqat qilib nazar soldi. – Lekin u yerga to‘satdan yaqin borib bo‘lmaydi. Axir, bizni qanday kutib olishlarini bilmaymiz-ku. Bu juda xavfli!

– Balki, Moki infratovush orqali ularga xabar yuborar, nima deysiz? – dedi Ahmad.

– Bu juda zo‘r g‘oya! – dedi Margol.

\*\*\*

*Tabiatdagi har bir hodisa judayam murakkab va g‘aroyib. Masalan, oddiy tovushlar ham tabiat mo‘jizasi hisoblanadi. Bilasizmi, tabiatda quloqlarimizga eshitilmaydigan, ammo butun atrofimizni qamrab olgan tovushlar ham bor. Ular fanda infratovush deb ataladi.*

*Infratovush ham tabiatdagi tovushlarning bir turi. Ammo uning tovush chastotasi juda past – inson qulog‘iga eshitilmaydi. Ya‘ni inson qulog‘i ma‘lum bir balandlikdagi tovushlarnigina eshitib, tabiatdagi boshqa tovushlarni, aytaylik, hayvonlar so‘zlashadigan tovushlarni eshitmaydi.*

*Fillar biz eshitmaydigan shu infratovushlar orqali o‘zaro gaplashishadi. Ya‘ni bir-biridan 3-4 kilometr uzoqda turgan fillar infratovushlar orqali o‘zaro xabar almashishadi. Okeanda yashaydigan kitlar ham so‘zlashish uchun shu tovushni tanlashgan.*

*Bizga eshitilmagani bilan, infratovush ancha kuchli. Masalan, oddiy tovush devor va boshqa to‘siqlarni yorib o‘tolmaydi, infratovush esa, aksincha, to‘siqlardan o‘tib, uzoq masofagacha yetib boradi.*

*Kuchli shamol, bo‘ron, momaqaldiroq va yer qimirlashi kabi tabiiy ofatlar vaqtida ham atrofga infratovushlar tarqay boshlaydi. Kattalarning “Hayvonlar tabiiy ofatlarni oldindan sezadi” degan gapi ham shundan. Chunki bunday vaqtda infratovushlar hayvonlarning qulog‘ini qomatga keltirib yuboradi-da!*

*Qahramonlarimiz tushib qolgan vaziyatda esa infratovush orqali xabar yuborish eng to‘g‘ri yo‘l edi.*



*Sababi, tog‘ ichiga har qanday tovush ham kira olmaydi. Masalan, radioto‘lqin yo‘llarini bu baland tog‘lar to‘sib qolishi turgan gap.*

– Xo‘sh, ularga qanday xabar yuboray? – so‘radi droid.

Margol biroz o‘ylanib olgandan so‘ng dedi:

– Bunday yubor: “Biz «Ko‘kkezar” fazo kemasining ekipaji Margol, Ahmad va Moki bo‘lamiz. Miksga yordam so‘rab keldik. Agar sayyora aholisi hayot bo‘lsa, bizga bir muhim masalada ko‘mak berishlarini so‘raymiz».

Margolning so‘zlarini yozib olgan Moki uni tovushli to‘lqin sifatida bir necha marta uzatdi. 5 daqiqa o‘tar-o‘tmas javob ham keldi: “Biz mehmonlarni xushlamaymiz. Qolaversa, o‘zimiz ham yordamga muhtojmiz. Birovga yordam bera oladigan holimiz yo‘q. Iltimos, Miksni tark eting!”

– Ana xolos! – dedi Margol qo‘l siltab. – Endi nima qilamiz? Bostirib kira olmaymiz-ku.

– Boshqa biror chorasi bordir. – Ahmad biroz o‘ylanib so‘ng Mokiga dedi: – Ularga bunday xabar yuborib ko‘r: «Sizlarga yomonligimiz yo‘q. Balki, bizning ham sizlarga biror foydamiz tegib qolar. Axir, sizlarga ham yordam kerak ekan-ku».

Bu galgi javobning kelishi uzoqqa cho‘zildi. Hoynahoy, mikslıklar Ahmadning taklifini ancha vaqt muhokama qilib qolgan. Ammo kech bo‘lsa-da javob keldi: “Qurol va uskunalarigizni o‘sha joyda qoldirib, tog‘ga yaqinroq keling”.

Qahramonlarimiz bu xabarni eshitishlari bilan uchar likopcha va skafandrga mahkamlangan to‘pponchalarni qoldirib tog‘ tomonga yura boshladilar. Ular manzilga yaqinlashib qolganida to‘satdan gumburlagan ovoz eshitildi. Tog‘ning o‘rtasi yorilib, muz qoyalari pastga qulay

boshladi. Qahramonlarimiz vujudini bir zum qo‘rquv va vahima egalladi. Xayriyatki, bu tog‘ qa‘ridagi noma‘lum makonning darvozasi bo‘lib chiqdi. Balandligi yigirma qavatlik binoga teng keladigan, sirti muz bilan qoplangan bu darvoza anchadan buyon ochilmagani sabab qo‘zg‘alishi ham juda qiyin kechgandi. Nihoyat, ulkan darvoza qiyagina ochildi. U yerdan yuk mashinasini eslatuvchi uchar qurilma chiqib, to‘g‘ri “Ko‘kkezar” ekipaji tomon uchib keldi. Bu haydovchisiz boshqariladigan dron edi. Qahramonlarimiz unga minib ichkariga qarab yo‘l olishdi.

“Ko‘kkezar” ekipaji muz tog‘i ichiga kirishi bilan o‘zlarini boshqa olamga tushib qolganday his qila boshladi. Chunki bu katta bir g‘or yoki bino emas, balki butun bir boshli dunyo edi. Miksliklar ham xuddi marsliklar kabi sun‘iy iqlim yaratib, tog‘ ostiga shahar qurishgan ekan. Bizning qahramonlar mingan dron shahar bo‘ylab uchib borarkan, pastda yurgan miks aholisi mittigina bo‘lib ko‘rindi. Bir qarashda, miksliklarni chumolilar to‘dasiga ham o‘xshatish mumkin. Chunki ular chumolilar kabi tinim bilmas va saf tortib yurar edi.

– Miksliklar ham biz salmirlklarga o‘xshab kichkinagina bo‘lishsa kerak, – dedi Margol pastga qarab.

– Biz kelganimiz uchun harbiy safarbarlik e‘lon qilinganmi? – hayron bo‘ldi Ahmad.

– Rostdan ham pastda faqat harbiylarni ko‘ryapman.

Uchar dron pastlay boshlaganida shahar manzarasi yana ham aniqroq ko‘rindi. Chindan ham pastda biror-bir oddiy aholi uchramas, faqat tish-tirnog‘igacha qurollangan harbiylar u yoqdan bu yoqqa saf tortib yurishar edi.

– Qiziq, bizni qayoqqa olib ketishyapti ekan-a?

– Qayoqqa olib borishmasin, hushyorlikni yo‘qotmanglar. Faylasuf aytgan gaplar esingizdan chiqmasin, – dedi Margol Ahmad va Mokini ogohlantirib.

Birozdan soʻng ular mingan dron shahardagi eng baland bino ustiga kelib qoʻndi. Bu joyda ularni bir toʻda miksliklar kutib turardi. Miksliklarning koʻrinishi chindan ham chumoliga oʻxshab ketarkan. Ularning boshi katta, beli ingichka, dumi esa yoʻgʻon edi. Boshida antennani eslatuvchi bir dona shoxi ham bor. Qahramonlarimiz drondan tushishlari bilan miksliklar ularning qoʻlini bogʻlab, bir ogʻiz soʻz demay bino ichkarisiga olib kirib keta boshlashdi. Qanchalar kuchli boʻlmasin, hatto Margol ham ularga qarshilik qila olmadi.

– Bu nimasi, axir, biz yordam soʻrab kelganmiz-ku, – dedi kutilmagan munosabatdan qoʻrqib ketgan Ahmad.

– Ahmad, sen qoʻrqma. Bu ularning ehtiyot chorasi boʻlsa kerak. Menimcha, ular ham qoʻrqib qolishgan, nimadandir xavotirda, shekilli.

Miks harbiylari qahramonlarimizni ulkan majlislar zaliga olib borishdi. Katta qubbali bu zal tepasi yopiq futbol maydoniga oʻxshar edi. Faqat bu joy futbol maydonidan uchtoʻrt marta kattaroq edi. Zal boʻylab aylanisiga joylashgan oʻrindiqlarda minglab, balki millionlab miksliklar oʻtirar, qahramonlarimiz esa ulkan “maydon”ning qoq oʻrtasida, mezbonlardan ancha olisda turishar edi. Zal shu qadar kattaligidan ular turgan joydan hatto birorta mikslikning yuzi ravshan koʻrinmasdi. Qahramonlarimiz shu zaylda quloqni qomatga keltirib yuboruvchi shovqin ostida bir necha daqiqa turib qolishdi. Soʻng zalning shiftiga oʻrnatilgan bahaybat monitor yoqilib, undan juda bashang harbiy kiyim kiygan bir mikslik koʻrindi. Bir zumda zaldagi butun shovqin tin oldi. Bu miksliklarning eng katta rahbari boʻlsa kerak deya xayolidan oʻtkazdi Ahmad.

– Nega keldingiz? – dagʻal ovozdagi savol berdi oʻsha miks.

– Koinot xaritasini izlab yuribmiz, – dedi Margol bir

qadam oldinga chiqib.

– Xaritani nima qilasiz?

– U Moviy toshni topib, Salmir sayyorasini halokatdan qutqarishimiz uchun kerak.

– Biz uni hech kimga bermaymiz.

– Xo‘sh, uni saqlab o‘tirganingiz bilan nimaga erishasiz?

– Buning jiddiy sababi bor. Xarita o‘zimizga ham kerak.

– Qanday sabab, ayting.

Shu vaqtgacha indamay turgan Ahmad ham endi suhbatga aralashdi:

– Balki, o‘sha jiddiy masalada bizning yordamimiz kerak bo‘lar?

– Sen o‘sha ovoz egasisan, shundaymi? – so‘radi Miks rahbari.

Ahmad bunga javoban bosh silkidi.

– Agar sening ovozingni eshitmaganimizda, balki, sizlarni bu yerga qo‘ymagan bo‘lar edik. Ayt-chi, ey yerlik, rostdan ham sen bizlarga yordam berishing mumkinmi?

Miks rahbari nega Ahmadga bunday deytganini tushunish qiyin edi. U ham Zagun sayyorasidagi Faylasuf kabi Ahmadda boshqacha bir qobiliyatni, mo‘jizakor quvvatni his qildimikan?!

– Bilmadim... – kalovlanib javob berdi Ahmad. – Ayting, sizlarga o‘zi qanday yordam kerak?

– Biz mikslıklar harbiylar qavmidanmiz. Somon yo‘li galaktikasida biznikiday qudratli qo‘shin yo‘q. Bizning bobolarimiz ham harbiy bo‘lishgan, endi bolalarimiz ham harbiy bo‘lishadi. Bir vaqtlar Maanen tizimidagi barcha sayyoralarni qo‘riqlash bizga ishonib topshirilgan edi. Ammo boshimizga musibat keldi. Maanen yulduzi tizimi tanazzulga yuz tutdi. Qo‘shni sayyoralarning aholisi o‘zga yulduzlar tomon uchib ketgan. Biz esa hamon shu o‘lik

sayyoradamiz.

– Nega sizlar ham boshqalar kabi ko‘chib ketmaysiz?

– Chunki biz qo‘mondon Dordonsiz hech nima qila olmaymiz. Uni esa xastiklar asir olib, Yondosh olamdagi bizga noma’lum sayyorada zindonband qilishgan.

– Ichingizdan birortani qo‘mondon etib saylasangiz bo‘lmaydimi? – ajablanib so‘radi Margol.

– Yo‘q-yo‘q, bu an’anaga zid. Miks harbiylariga faqat qo‘mondonlik uzugiga ega kishigina rahbarlik qiladi. Bizlar qo‘mondonsiz, ayniqsa, uzuksiz hech qachon jangga kira olmaymiz.

“G‘alati an’ana ekan”, – o‘yladi Ahmad. Hozir mikslklarga uzukni nima qilasiz, zarurat bo‘lganda an’anadan voz kechib bo‘lmaydimi qabilidagi savollarni berish behuda. Chunki ular harbiy. Harbiylar yangi an’analarni o‘ylab topishni bilishmaydi. Ularning qo‘lidan jang qilish keladi, xolos.

– Xullas, – gap boshladi Miks rahbari, – bizlarga qo‘mondon Dordoni izlab topishda yordam berasiz. Biz esa evaziga xaritani beramiz.

Bu gapdan so‘ng Margol o‘ylab o‘tirmay:

– Mayli, kelishdik, – deb yubordi.

Margol shoshma-shosharlik qilib Miks rahbarining shartiga rozi bo‘ldi. Ammo na Margolning o‘zi, na Ahmad va na Moki o‘sha noma’lum sayyora haqida biror tasavvurga ega. Balki, ular bu joyning qanchalar xatarli ekanini bilishganida bu qadar tezkorlik bilan javob berishmasmidi. Kim bilsin... Lekin hozir ularning oldida boshqa yo‘l ham yo‘q edi, aslida.

## OBMA: GALAKTIKADA NIMA GAP?

General Obma haligacha sodir bo'layotgan voqealar jumbog'ini yecha olmay o'z qarorgohida behalovat o'tirardi. Shu kunlarda uning yoniga hatto eng yaqin mulozimlari ham kira olmas, biror nima sodir bo'lib sarkardaning g'azabiga uchrab qolishdan qo'rqishardi ular. General esa shu tobda josuslarining aloqaga chiqishini intiqlik bilan kutaypti. Nihoyat, uzoq kutilgan qo'ng'iroq ovozi eshitildi. General aloqa qurilmasining tugmasini bosdi. Monitorida josus giksning basharasi ko'rindi.

– Qo'ling qayrilmasin, general, – deya salom berdi josus giks.

– Sening ham. Qanday xabaring bor?!

– General, Yer yaqinidagi Qizil sayyorada juda g'alati voqea sodir bo'ldi. Uchta noma'lum fazogirni qo'ldan chiqarib yubordik.

– Ahmoq, axir, senda bizning eng tezkor kemamiz bor-ku!

– Ha, shunday. Lekin ularning kemasiday kema hatto butun koinotda yo'q. Ko'z ochib yumgunimizcha g'oyib bo'ldi. Radarlarimiz ham ko'rmay qoldi.

– Nima, yorug'lik tezligidan ham tezroq ucharkanmi?

– Ha, yorug'lik tezligidan bir necha o'n, balki yuz barobar tezroq! Agar yorug'lik tezligida uchganida, uskunalarimiz uni bir qancha muddat ko'rsatib turgan bo'lar edi. Bu kema esa butunlay g'oyib bo'ldi.

– Qanaqasiga? Qanday qilib? – tutaqib ketdi Obma.

Bu xabar general Obmani ancha hushyor torttirdi. Chunki u shu kungacha bunday kema bo'lishi mumkinligi haqida o'ylab ham ko'rmagan edi. Qaroqchi emasmi, shu tobda uning butun fikr-u xayolini o'sha kemani qo'lga kiritish orzusi egallab oldi.

– Kemada kimlar bor edi, aniqladingmi? – so‘radi general.

– Bizdagi uskunalar kemadagi ikki kishi va bir droidni aniqladi. Ikki kishining biri odam ekani aniq.

– Nima-nima, odam dedingmi?

– Ha, uskunalarimiz odamning DNKsini aniqladi.

– Jin ursin! Odamlarning bu mashmashaga qanday aloqasi bor ekan-a? Eh, borgan sari kalavaning uchi chigallashib ketyapti!

– General, ular ko‘zdan g‘oyib bo‘lgandan so‘ng kema o‘z ortidan g‘alati, yorug‘ bir iz qoldirdi. Changgami, tumangami o‘xshab ketadigan iz nuri uch-to‘rt daqiqa fazoda muallaq turib qoldi.

– Xo‘sh?!

– Biz izni tekshirib kema uchgan yo‘nalishni aniqladik. Taxminimizcha, ular Al-Toyir yulduzi tomonga uchishdi.

– Tushunarli. Sen ortga qaytaver, endi bu shaldiroq kemang bilan ularga yetib bo‘psan, – deb general aloqani uzdi.

Endi Obma sodir bo‘layotgan voqealarni yaxshilab o‘ylashi, tahlil etishi va eng to‘g‘ri qarorni qabul qilishi kerak. Hammasidan ham bu ishlarga odam bolasining aralashib qolganidan u hayratda edi. Chunki odamlar shu choqqacha galaktika ishlariga aralashmagan, hatto o‘zlariga eng yaqin bo‘lgan sayyoralarga ham borishmagan. Aslida, buning uchun odamda imkoniyat ham yo‘q. Shu sababli ular bilan hech kimning ishi ham bo‘lmaydi. Odamlarda qandaydir ulug‘vor bir qudrat borligi sabab galaktikaning biror qavmi ularga zarar yetkazishga jur‘at etmaydi. Lekin nega endi dabdurustdan galaktikadagi favqulodda bir voqeaga odam aralashib yuribdi?.. Shular haqida o‘ylarkan, Obmaning xayolini yana bir fikr egallab oldi: “Galaktikada o‘zi nimalar bo‘lyapti? Shuncha umr ko‘rib

bunaqa kema haqida eshitmagan ekanman. Yoki bu o‘zga galaktikaliklar kemasimikan? Nahotki, o‘zga galaktikalarda ham hayot bo‘lsa?!” Obma shu kabi o‘ylar bilan bir muddat chalg‘ib qoldi. So‘ng ishongan sarkardasi Ragoni chaqirib salmirliklarning yulduzlararo uchar kemasini safarga hozirlashni buyurdi.

– Bugun yangi kemamizda birinchi marta safarga chiqamiz. Manzil uzoq – Al-Toyir yulduzi. Ammo bizning kema uchun bu ikki kunlik yo‘l. Qani, ko‘raylikchi, o‘zi galaktikada nima gap ekan?

Shu tariqa general Obma boshchiligidagi eng sara 20 nafar qaroqchi salmirliklardan olib qo‘yilgan kemada yo‘lga chiqishdi. Yo‘l-yo‘lakay Obma va Rago safar rejalarini kelishib olishdi.

Qaroqchilar Al-Toyir yulduziga yaqinlashib, yulduz tizimidagi sayyoralarga o‘zlarining josuslarini yubora boshladilar. Bu josuslar osongina o‘z qiyofasini o‘zgartirib, borgan sayyorasida yashaydigan mavjudotlarga o‘xshab olishar edi. Ayyor josuslar sayyoralardagi aholi gavjum joylarga borib, ularning suhbatini tinglashar, bilmagan kishiday savol berishar va ko‘p narsani aniqlab olishardi. Mana, hozir ham Zagun sayyorasiga yuborilgan josus noyob fazo kemasiga ega “kelgindi”lar ikki kun oldin Maanen yulduzi tomonga uchib ketganini aniqlab qaytdi.

Bu xabarni olishi bilan Obma vaqtini boy bermay kema yo‘nalishini Maanen yulduzi tomonga burdi.

– General, Maanen yulduz tizimida mikslıklarning tengsiz lashkari bor, ulardan ehtiyot bo‘lishimiz kerak, – dedi Rago.

– Bilaman, shuning uchun Miks sayyorasiga yaqin bormaymiz. Oldin vaziyatni bilib kelish uchun eng yaxshi josusni mikslıklar qiyofasida sayyorağa yuboramiz. Balki, shundan so‘ng biror reja o‘ylab toparmiz.



## BESO'NAQAY "MIKS"

\*\*\*

*Yondosh olam deganimiz shunchaki fantastik xayol emas. Hatto dunyoning mashhur astrofiziklari ham bizning olamga yondosh (parallel) bo'lgan yana ko'plab olamlarning bo'lishi mumkinligini aytishmoqda. Ularning fikricha, bizning koinot ma'lum bir chegarada tugaydi. Shundan so'ng yangi bir osmon – olam chegarasi boshlanadi. Hozircha bu bir ilmiy faraz. Ammo matematik hisob-kitoblar va astrofizikadagi yangi ilmiy kashfiyotlarga qaraganda, bu faraz ham tez orada o'z isbotini topadi.*

Margol mikslıklar shartiga rozi bo'lganidan buyon Ahmad juda behalovat bo'lib qolgan. U shu kunga qadar yondosh olamlar haqida ko'p o'qigan. O'shanda u: «Yetti qavat osmon deganlari shu bo'lsa kerak-da», – deb o'ylardi. O'zi shundoq ham Yerdan uzoqlashib, galaktikaning bir chekkasiga kelib qolgan qahramonimizga endi boshqa olamga borib kelish yetmay turgan edi. Ammo u uyiga qaytishi uchun galaktika xaritasini qo'lga kiritishi kerak ekanini yaxshi biladi. Aslida, Margolning o'rnida uning o'zi bo'lganda ham mikslıklar shartiga ko'nmay iloji yo'q edi.

Mikslıklar ham paysalga solmay ertasi kuniyoq olim, muhandis va fazogirlar ishtirokida kichikroq majlis tashkil qilishdi. Majlisda “Ko'kkezar”ning barcha ekipaj a'zolari ishtirok etdi.

– Yondosh olamga faqat siznikiday tezkor kema bilan kirib borish mumkin, – deya gap boshladi majlisga rahbarlik qilayotgan olim miks. – Ammo bir o'zingiz qo'mondonni zindondan ozod qila olmaysiz.

– Ha, buning uchun eng baquvvat miks askarlaridan

kamida o‘nta kerak bo‘ladi, – tasdiqladi harbiylardan biri.

– Lekin muammo bor – “Ko‘kkezar”ga atigi 3 kishi bazo‘r sig‘ar ekan!

– Demak, bizning kemada ucha olmas ekanmiz, – dedi Margol o‘rnidan turib.

– Nega endi? Siz shu kemani yasagan ekansiz, demak, biror g‘oya o‘ylab topishingiz ham mumkin, – dedi qat‘iylik bilan mikslik olim.

– Aslida, kemani men emas, Ahmad yasagan. Men faqat yordam berganman, xolos, – Margol shunday deb joyiga o‘tirib oldi.

Bu gapdan so‘ng majlislar zali ari uyasiday g‘uvullab ketdi. Hamma hayron, yerlik mushtday bola koinotda yagona bo‘lgan kemani ixtiro qilsa-ya, deya majlis ishtirokchilari aqldan ozayozdi.

– Nahotki, shu odam-a?! – so‘radi Miks rahbari. Margol boshini qimirlatib tasdiqladi.

Endi hamma Ahmadning biror nima deyishini kuta boshladi. Buni sezib Ahmad o‘rnidan turdi va chizmalar chizish uchun doska yoniga keldi.

– “Ko‘kkezar” bir qarashda juda murakkab qurilmaga o‘xshagani bilan, uning konstruksiyasi juda sodda. Aytmoqchimanki, kemani harakatga keltiruvchi asosiy qurilma uning ichida emas, balki korpusga o‘rnatilgan tarvuzday keladigan matohda.

– Kechirasiz, – qo‘l ko‘tardi bir miks, – tarvuz deganingiz nima?

– U Yerda o‘sadigan, hajmi shu qovoq kallangizday keladigan mazali poliz ekini.

Boyagi miks o‘rinsiz savol berganini tushunib joyiga o‘tirib oldi. Yaxshiyamki, u Ahmaddan qovoq nima ekanini so‘rab qolmadi.

– Xullas, shu tarvuzday keladigan qurilma bir nechta

kemani ham boshqara oladi. O'sha o'nta askar sig'adigan kemani "Ko'kkezar"ga mana bunday qilib shatakka olishi mumkin.

U shunday deb doskaga o'z loyihagini chizib berdi. Bu vaqtga kelib miks olimlari bolakayga angrayib qarab qolgandi. Hatto ba'zi mikslarning peshonasidagi antenasiimon mo'ylovi qiyshayib qoldi.

– Yana bir muhim gap, – olim miks xuddi bir nimani unutib qo'ygandek so'zlay boshladi. – Shatakka olinadigan kema "Ko'kkezar"ga o'ta mustahkam bog'lanishi shart. Aks holda, neytron yulduzining tortishish kuchi kemani ikkiga bo'lib yuborishi hech gap emas.

– Neytron yulduzining bu safarimizga nima aloqasi bor? – so'radi Margol.

– Axir, Yondosh olamga faqat neytron yulduzi yaqinidan o'tish mumkin, – olim miks Margolga "nima buni bilmasmiding" deganday qarab qo'ydi.

– Nima-nima, neytron yulduzi?! Yo'q, buning hecham iloji yo'q, – endi Ahmad ham o'rnidan turib ketdi.

– Sizning kemangiz bilan imkoni bor!

– Nimalar deyapsiz, neytron yulduzining gravitatsiyasi oddiy yulduzga nisbatan 10 trillion marta kuchliroq bo'ladi. U bizni uzoq masofadan ham xuddi changyutgichdek tortib oladi. Unga yaqinlashishning imkoni yo'q.

– Istamasangiz bormang. Xaritani esa butunlay unuting, – cho'rt kesdi Miks rahbari.

Uning bu gapidan so'ng majlis bo'layotgan g'ala-g'ovur xonaga suv quygandek sukunat cho'kdi. Hamma Ahmad va Margolning og'ziga qarab tosh qotib turardi. Qahramonlarimizning holi juda tang edi. Shunda sukunatni Ahmadning o'zi buzdi:

– Mayli, na iloj, biz biror yo'lini o'ylab topamiz.

Xonada yana g'ala-g'ovur boshlandi.

– Bo‘ldi, menimcha, boshqa muhokama qilishga o‘rin qolmadi, – dedi Miks rahbari. Shundan so‘ng u mulozimlariga topshiriq berdi: – Zudlik bilan ishga kirishing. Bolakay aytgan loyihani yasashga bugunning o‘zida kirishamiz.

Ertasi kuni ertalabdan uchish rejasi tuzildi. Miks muhandislari esa loyihani bajarishda biroz kech qolishdi. Ularning ishi tush vaqtiga qadar cho‘zilib ketdi. Sababi, “Ko‘kkezar”ga boshqa kemani shatakka olishayotganda bir beso‘naqay miksni deb tutqichlarning biri sinib ketgandi. Hozir ham bu miks Ahmad va Margolga tez-tez olaqarash qilib qo‘yar, ba‘zan savollari bilan ularni chalg‘itar edi. Xullas, bu beso‘naqay yarim kunda hammaning joniga tegib ulgurdi.

Tushdan so‘ng barcha ishlar yakuniga yetdi. “Ko‘kkezar” ekipaji bilan birga uchish uchun eng abjir askarlar saralab olindi. Hademay ular yondosh olamga qarab yo‘l olishadi.

## **KALAVANING UCHI TOPILDI**

Bugun tong vaqtida Maanen yulduzi yaqiniga yetib kelgan general Obma hademay hamma savollariga javob olishidan umidvor edi. Shu paytda uning aloqa qurilmasi ham jiringlab qoldi. U javob tugmasini bosishi bilan monitorda boyagi beso‘naqay miksning basharasi ko‘rindi.

– Qo‘ling hech qachon qayrilmasin, general!

– Seniki ham. Qani, tezroq gapir.

– Ular hozir Yondosh olamga uchishmoqchi. “Ko‘kkezar” degan juda noyob, aql bovar qilmaydigan tezkor kemasi ham bor!

– Yondosh olamda pishirib qo‘yibdimi?

– Ular Dordonni zindondan ozod qilishmoqchi.

– Ha-ya, mening ittifoqdoshlarim Dordonni o‘g‘irlashgan edi-ku. Xo‘sh, bunga anavilarning nima aloqasi bor ekan?

– Ularning biri salmirlilik, biri yerlik, biri esa marslik droid. Hammasi galaktika xaritasini izlashmoqda.

– Xa-xa-xa! – Obmaning bu qah-qah otib kulishi shu qadar baland chiqdiki, go‘yoki butun kema silkinib ketganday bo‘ldi.

– Eh, nodonlar... tushunarli... tushunarli... ular xaritaning bir bo‘lagi menda ekanini bilisharmikan o‘zi? Xa-xa-xa...

– Bir qoshiq qonimdan kech, general. Men ularni nodon demagan bo‘lardim. Ayniqsa, anavi odam juda xavfli ekan.

Bu gapdan generalning kapalagi uchib ketdi. So‘ng jiddiy turib josusdan yana boshqa ma‘lumotlarni ham batafsil so‘rab oldi va dedi:

– Sen o‘sha askarlardan birining qiyofasiga kirgin-da, ular bilan birga uch. Boladan ehtiyot bo‘l. Bilib qo‘y, u menga tiriklayin kerak!

– Xo‘p bo‘ladi, general!

Aloqa tugadi.

Ayni damda koinotda Obmadan baxtliroq mavjudot yo‘q edi. Chunki u anchadan beri ich-etini tirnab kelayotgan savollarning javobini eshitdi. Endi u hammasi – salmirliliklar muammosi, N<sub>2</sub>G kristali, Ahmad, “Ko‘kkezar”, xarita va abadiy energiya generatori haqida biladi. “Bularni bilishim mening g‘alabamdan darak beradi”, – deb o‘yladi Obma. U shu tobda turli rejalar tuzarkan, hammasiga birdaniga erishishi mumkinligini o‘ylab sevinardi.

## YONDOSH OLAMDAGI QAMOQXONA

\*\*\*

*Yulduzlarning ham bir kun kelib halokatga uchrashi haqida bilib oldingiz. Ya'ni yulduzlar o'zining asosiy yoqilg'isi – vodorodni ishlatib bo'lgach portlaydi yoki ulkan qizil sharga aylanib shishib ketadi. Qizig'i, bu hodisadan so'ng yulduz butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, balki boshqa turdagi yulduzga aylanadi.*

*Quyoshdan bir necha barobar katta yulduzlar umrining oxirgi lahzalarida portlab ketadi. Bu portlash natijasida yulduz parchalari koinotga misli ko'rilmagan energiya shaklida tarqala boshlaydi. Ammo bu energiyani portlash natijasida vujudga kelgan gravitatsiya yana ortga – markazga torta boshlaydi. Favqulodda katta kuchga ega gravitatsiya yulduz parchalarini shu qadar zichlaydiki, oqibatda atom zarralari bir-biriga qapishib ketadi. Shu tariqa, koinotda Quyoshdan million marta kichkina, ammo trillion marta og'irroq neytron yulduzi tug'iladi.*

*Neytron yulduzi – koinotning sirli mo'jizalaridan biri. Tasavvur qiling, agar neytron yulduzining kichkinagina bo'lagidan bitta qoshiq yasash mumkin bo'lganida bormi, uni hatto millionta ko'tarma kran ham joyidan qo'zg'ata olmasdi. Ishonish qiyin, ammo bu haqiqat!*

*Neytron yulduzining ikki xil ko'rinishi bor. Ularning biri fanda pulsar, ikkinchisi esa magnetar deb ataladi.*

*Pulsarlarni "koinot mayoqlari" deb ham atashadi. Chunki pulsarning ikki yonidan shoxga o'xshab nur taralib turadi. Magnetar esa ulkan magnitning o'zginasi. U millionlab chaqirim uzoqlikdagi jismlarni ham xuddi magnitday o'ziga tortib oladi. Magnetar hatto yorug'lik nurini ham o'ziga tortib, yo'q qilib yuborishi mumkin.*

Yondosh olamga o'tish koinotda kamdan kam fazogirlarga nasib qilgan. Sababi, unga o'tish uchun neytron yulduzi atrofida misli ko'rilmagan tezlikda aylanish kerak bo'ladi.

Ayni damda, "Ko'kkezar" o'zining 13 kishilik ekipaji bilan neytron yulduzining eng haybatli turi – magnetar tomon uchib bormoqda.

– Men hozirdanoq magnetarning tortishish kuchini his qilyapman, – dedi Ahmad.

– Men ham, kema qandaydir silkinib uchayotganday.

– Lekin hali hech qaysi radar yulduzni aniqlamadi, – ajablandi Moki.

– Ehtiyot bo'lishimiz kerak, bu yulduz juda-juda qudratli. Birgina kichik xato qilsak bas, u bizni o'z domiga tortib ketadi, – dedi Margol tahlikali ohangda.

– Faqat yulduz atrofida juda katta tezlikda aylanibgina uning gravitatsiyasini yenga olamiz. – Ahmad shunday deb Yondosh olamga o'tish rejasini puxta tuzib chiqa boshladi. – Yer sayyorasing orbitasidagi sun'iy yo'ldoshlar yerga qulab tushmasligi uchun soniyasiga kamida 8 km tezlik bilan harakat qiladi. Bu tezlik Yerning tortishish kuchini yengib o'tishga yetarli. Neytron yulduziga qulab tushmaslik uchun esa "Ko'kkezar" yorug'lik tezligida – soniyasiga 300 000 km tezlikda harakatlanishi kerak bo'ladi. – U boshqaruv rulini tutib turgan Margolga qarab dedi: – Siz yulduzga juda yaqin bormang va juda uzoqlashib ham ketmang. Moki, sen kemanding tezligini nazorat qilasan. Men esa Yondosh olam tuynugi ochilishi bilan kemani unga qarab buraman.

Ahmadning rejasini hamma birday ma'qulladi. Ko'p o'tmay "Ko'kkezar" neytron yulduziga yaqinlashdi. Ulkan magnetar yulduzi qoraga moyil, tim ko'k rangda edi.

Belgilangan joyga yetib kelgan "Ko'kkezar" neytron

yulduzining atrofida yorug‘lik tezligida aylana boshladi. Bunaqa katta tezlik va kuchli gravitatsiyada oqibatida vaqt ham, hatto makon ham egri-bugri bo‘lib qiyshayib, so‘ng sariyog‘day erib ketadi. Bir necha daqiqalik parvozdan so‘ng “Ko‘kkezar” ekipaji ana shu g‘ayritabiiy holatni seza boshladi. Avvaliga ularning tovushlari o‘zgarib, aks sadoga o‘xshab bordi. Keyin hamma narsa sekinlashib qoldi. Qo‘l-oyoqlarning oddiy harakati bir necha soatga cho‘zilganday bo‘lardi. So‘ng birdan hammasi tezlashib ketdi. Bu xuddi videotasmadagi tasvirni tezlashtirib ko‘rganday edi. Bu hol biroz davom etganidan keyin kemandi ichi kengaydi, hamma narsa, hatto ularning tanasi ham rezinaday cho‘zila boshladi. Sodir bo‘layotgan bu voqea-hodisalar tushdagi kabi alg‘ov-dalg‘ov edi... Shu vaqtda Yondosh olamga o‘tadigan tuynuk ham ochiladi...

Ahmad yomon tush ko‘rgan odamday ko‘zini ocharkan, radar oldida turgan Mokiga ko‘zi tushdi.

– Neytron yulduzi ko‘rinmay qoldi, – dedi Moki uskunalarni tekshirib ko‘rarkan.

– Ha, biz allaqachon Yondosh olamdami, – dedi Margol o‘rnidan turib kema tuynugidan ochiq fazoga qarar ekan.

Yondosh olam bizning olamdan unchalik farq qilmasdi. Unda ham galaktika, yulduz va sayyoralar bor. Bitta farqi, Yondosh olam nisbatan kattaroq edi. Shunday ekan, undagi osmon jismlari ham bizning koinotdagiga nisbatan kattaroq bo‘lishi tabiiy. Albatta, bu olamda biz bilgan ayrim fizik qonuniyatlar ham o‘zgargan bo‘lishi mumkin. Ammo hozircha buni “Ko‘kkezar” ekipaji sezganicha yo‘q.

Endi qahramonlarimiz Qo‘shyulduzli tizimni qidirib topishlari kerak. Chunki Qo‘mondon Dordon yotgan zindon Qo‘shyulduzli tizimdagi tim qora sayyorada edi.

Aytganday, koinotdagi yulduzlarning hammasi ham



yolg'iz emas. Olimlar ikki yulduz, uch yulduz, hatto, to'rt yulduzli tizimlarni ham aniqlashgan. Bunday yulduz tizimida kattaroq yulduz kichkinasini o'ziga tortib turadi. Kichkinasi kattasining atrofida xuddi yo'ldoshday aylanib turgani uchun ular to'qnashib ketmaydi. Ammo ba'zan bu yulduzlar to'qnashib ketishi, katta yulduz kichigini "yeb" qo'yishi ham mumkin.

Qora sayyora esa o'zidan nur taratmaydi. Aniqrog'i, o'z yulduzining nurini aks ettirmaydi. Sababi, sayyora sirti qalin ko'mir bilan qoplangan. Ko'mir esa qora bo'lgani uchun atrofdagi barcha yorug'likni yutib yuboradi...

– Uskunalar 180 million km masofada sayyora borligini aniqladi. Menimcha, bu o'sha Qora sayyora bo'lsa kerak, – dedi Moki.

– Uni ko'rsak bo'ladimi? – so'radi Margol.

– Ha, mana u!

Moki aniqlangan sayyora suratlarini monitorga uzata boshladi. Bu tim qora, har joyida vulqonlar otilib turgan bahaybat sayyora edi. Uning sirtida daryoday oqib turgan lavalar uzoqdan xuddi insonning qon tomirlariga o'xshab ko'rinardi. Faqat bu qizil emas, olovli "tomir"lar edi.

– Qaroqchilar bu sayyorani bekorga qamoqxonaga aylantirishmagan, – dedi Margol sayyoraning har bir joyini sinchiklab kuzatar ekan. – Bunaqa joydan hatto yorug'lik nuri ham qochib qutula olmaydi!

– Endi xavfsizroq joy topib tezroq kemani qo'ndiraylik, – dedi Ahmad Mokiga.

Tez orada Moki "Ko'kkezar" qo'nishi uchun Qora sayyoradagi eng xavfsiz joyni izlab topdi. Ular sayyora sathiga qo'nishi bilan shatakka olingan ikkinchi qismdan Miksning jasur askarlari birma-bir chiqib kelishdi.

– Xo'sh, endi qutqaruv rejasini tuzib olsak, – dedi qamoqxonaning har bir qarich joyi tushirilgan chizmani

yoziq olgan Miks sarkardasi. – Qamoqxona bizdan bir chaqirim masofada joylashgan. Yayov boramiz. Binoni 2 mingta qurollangan soqchi qo‘riqlaydi. Qo‘mondonimiz esa qamoqxonaning 91-qavatidagi kamerada saqlanadi. Xullas, yo‘lda uchragan har qanday soqchini mahv etib, asosiy darvozani buzib kiramiz. So‘ng liftga chiqib, 91-qavatga ko‘tarilamiz. Qo‘mondonni ozod qilib, zudlik bilan ortga qaytamiz. Qani, olg‘a!

U shunday deb qo‘lidagi qurolni yuqoriga ko‘tarib yugura boshladi. Uning ortidan boshqa askarlar ham hayqirgancha ergashishdi.

– To‘xtang! – Ahmadning qichqirig‘idan hamma joyida qotdi. – Nima, endi shu sizning rejangizmi?!

– Ha, bu eng yaxshi reja! – javob berdi Miks sarkardasi.

– Yo‘q, bu reja emas, o‘zini o‘zi o‘ldirish. Siz 10 kishi bilan 2 ming qo‘riqchini yengmoqchi bo‘lyapsiz, axir! Bunday vaziyatda ochiq jang qilish g‘irt ahmoqlik. Shuncha masofa bosib kelib, bekordan bekorga o‘lib ketadigan ahmoq yo‘q.

Bu gaplardan so‘ng sarkardaning ham hovuri pasaydi. Ahmad bino loyahasini bir-ikki daqiqa o‘rganib chiqqanidan keyin dedi:

– Eng muhimi, binoga sezdirmay kirishimiz kerak. Buning uchun Moki binoning asosiy kompyuteriga ulanib xavfsizlik tizimini qo‘lga oladi. Barcha kuzatuv kameralarini ishdan chiqarish kerak. Binoga esa siz aytgan janubiy darvozadan emas, mana bu yerosti quvurlaridan sezdirmay kiramiz.

Shu vaqt chizmalarni o‘rganib chiqqan Margol ham Ahmadga qo‘shildi:

– Binoni shamollatib turadigan havo quvurlari orqali lift shaxtasiga o‘tib olamiz. Liftning ichida ko‘tarilish xavfli, shuning uchun lift tomiga chiqib olib, 91-qavatga

ko‘tarilamiz. Ammo shu yerda qo‘riqchilardan birma-bir xalos bo‘lish kerak.

– Qurol bilan shovqin ko‘tarish ham noto‘g‘ri. Mana bu elektr-falaj quroli bilan ularni falaj qilib qo‘ysak, kifoya, – deya qurolini ko‘rsatdi Ahmad.

– Qoyil, sizlarni noyob fazogir desak, tengsiz qaroqchi chiqib qoldingiz-ku, xa-xa-xa... – hazil qildi sarkarda.

Xullas, Ahmad va Margolning rejasi eng ma‘qul va xavfsiz deb topildi. Qutqaruvchilar 10 daqiqa yayov yurishganidan so‘ng balandligi Toshkent teleminorasidek keladigan osmono‘par qamoqxona yaqiniga yetib kelishdi. Bino hovlisi katta mayoqlar bilan yoritilar, uning har bir qarich joyida qo‘riqchilar va robotlar kezib yurardi. Qahramonlarimiz shu joydan yerosti quvuriga tushib, binoga qarab yo‘l olishdi. Bu vaqtda Moki markaziy kompyuterga ulanib, himoya tizimini ishdan chiqardi. Qo‘riqchilar e‘tiborini tortmaslik uchun kuzatuv kameralarini o‘chirmadi, ammo bir xil tasvir aylanib turadigan qilib qo‘ydi. Bundan foydalangan qutqaruvchilar binoga osongina, sezdirmay kirib olishdi. So‘ng havo quvuri orqali lift shaxtasiga o‘tishdi va liftning tomidan joy olishdi. Moki esa yana kompyuterga ulanib liftni harakatlantirdi. Ular bir zumda kerakli joyga ko‘tarilib, yana havo quvurlari orqali butun qavat bo‘ylab tarqalib ketishdi.

Miksning mohir askarlari bino qo‘riqchilarini birma-bir falaj qila boshladi. Margol, Ahmad va Mokiga esa qo‘mondon turgan kamera eshigini buzish vazifasi yuklatildi. Ko‘rinishidan bank seyfining eshigiga o‘xshab ketadigan kamera eshigi juda ham katta, boz ustiga, zirhli edi.

– Eshik qulfi mexanik ekan. Eshikni faqat qo‘l bilan ochish mumkin, – dedi Moki.

– Bunga qancha vaqt ketadi?  
– Bilmadim, balki, 2 daqiqa, balki, 30 daqiqa... Axir, bu kompyuter emas...

– Nima bo‘lsa ham tezroq harakat qil. – Margol shunday deb atrofni kuzatib turish uchun eshikdan uzoqlashdi.

Moki bor imkoniyatini ishga solib qulfni buzishga kirishib ketdi. U oldiniga eshikning har joyini chertib ko‘rdi. Keyin bir joyga kelganida o‘sha joyni 3-4-marta qayta chertdi. Eshikdan chiqayotgan ovozdan bir nimani sezgan Moki shu joyni belgilab, chap qo‘lidan burg‘ilab teshadigan qurilmani chiqardi. Sekin-asta juda ham mustahkam po‘lat eshikda kichkina teshikcha hosil bo‘la boshladi. Ammo oradan 5-6 daqiqa o‘tar-o‘tmas uzoqdan o‘q ovozlari eshitildi. Zum o‘tmay binoda xavfdan ogohlantiruvchi tovush ham yangray boshladi...

– Bo‘laqolinglar, ular sezib qolishdi, – dedi halloslagan cha yugurib kelgan Miks sarkardasi. Uning butun tanasi qonga botgan, aftidan, yelkasidan yaralangan edi.

– Hozir, hozir, juda oz qoldi, – dedi Moki uzun simga o‘xshash qurilmani yaqindagina o‘zi ochgan teshikchaga tiqarkan.

Shovqin-suron kuchayib, o‘q tovushlari borgan sari yaqinlashib kelardi. Shu paytda Margol ham chopib keldi.

– Bo‘ldi, hammasi tamom, barcha qo‘riqchilar biz tarafga ko‘tarilishyapti...

Moki esa bu gap-so‘zlarga parvo qilmas, o‘zining eng yoqimli ishini qilayotganday bamaylixotir ishlardi. Buni ko‘rib Miks sarkardasining jahli chiqdi.

– Nega imillaysan? – o‘shqirdi sarkarda.

– Unga baqirmang, – tez e‘tiroz bildirdi Ahmad. – U droid – siz va men kabi hayajonlanishni bilmaydi. Shundoq ham bor tezligida harakat qilyapti.

– Mana bo‘ldi! – Moki qulfni buzib bo‘lgan edi.

Hammalari birgalashib ulkan eshikni arang ochib olishdi. Ichkaridagi kichkinagina xonada o'tirgan Dordon o'z sarkardasini ko'rgach hammasini tushunib yetdi.

– Qo'mondon, tezroq chiqing, shoshilmasak bo'lmaydi, – dedi miks sarkardasi Dordonga qo'lini cho'zib.

Ularning yoniga miksning boshqa askarlari ham yetib kelishdi. Ayrimlarining jiddiy jarohati bor edi. So'ng hammalari devordagi tuynuk orqali birma-bir havo quvuriga kira boshladilar. Ular endi lift tomiga yetib kelishganida Ahmad sarosima bilan yon atrofiga qaray boshladi.

– Shoshmanglar, Moki qani?!

Moki ularning orasida yo'q edi. Boshqalar havo quvuriga kirayotganda uning qo'liga ulangan simsimon qurilma qulf teshigidan chiqmay qolgandi.

Ahmad ratsiya orqali droidni chaqira boshladi: “Moki, aloqaga chiq, meni eshityapsanmi?”. Lekin droiddan hech qanday javob kelmadi.

– U qolib ketibdi, hoziroq ortga qaytishimiz kerak, – dedi Ahmad havo quvuriga qaytib kirmoqchi bo'lib.

– Yo'q, bitta droidni deb hayotingni xavfga qo'yolmayman, – sarkarda Ahmadning qo'lidan mahkam tutib oldi.

– Qo'yib yuboring!

– Axir, u oddiy temir qurilma-ku, nega tushunmaysan?

– Aslo! U bo'lmasa, hozir liftni ham joyidan qo'zg'ata olmaymiz, – endi Margol ham e'tiroz bildira boshladi.

Bu gap Miks sarkardasini o'ylantirib qo'ydi. Chindan ham shu tobda Mokidan boshqa hech kim lift kompyuteriga ulana olmasdi. Ammo shu payt lift yurib ketdi. Ahmadning ratsiyasidan esa Mokining ovozi kela boshladi: “Ahmad, sizlar boraveringlar, men boshqa yo'l bilan pastga tushishga harakat qilyapman. Kema yonida ko'rishamiz”.

Mokining ovozini eshitgan Ahmadning ko‘zlariga yosh keldi. Chunki Moki uning chin do‘stiga aylanib qolgandi. Mana, hozir ham Moki o‘zi yolg‘iz qolib ketganiga qaramay, do‘stlarini unutib qo‘ymadi. Ularning joniga ora kirib, liftni yurgizib berdi.

– Seni tushundik, o‘zingni ehtiyot qili, droid do‘stim!

Qutqaruvchilar kelgan yo‘llari bilan tashqariga chiqib olishganida qamoqxona qo‘riqchilari uzoqdan ularni sezib qolishdi. Yana hamma qo‘riqchilar bir bo‘lib qahramonlarimiz ortidan quva boshlashdi. Chopag‘on Margol Ahmadni dast ko‘targancha oldi-orqasiga qaramay qochib qoldi. Miksliklar ham ularga qo‘shilib yugurishdi. “Ko‘kkezar”ga birinchi bo‘lib yetib kelgan Ahmad va Margol ratsiya orqali Mokini chaqira boshladilar: “Moki... Moki, qayerdasan?” Ammo Mokidan hech qanday xabar kelmadi. Bu orada miksliklar ham yetib kelishdi va zudlik bilan fazoga ko‘tarilishni talab qilishdi. Droid do‘stining yetib kelishiga qattiq ishongan Ahmad esa qarshilik qilib turib oldi:

– Yo‘q, hech qachon!

– Nega tushunmaysan, hozir uchmasak o‘sha Mokiga qo‘shilib hammamiz halok bo‘lamiz. Qara, qo‘riqchilar hademay kelib qolishadi.

Chindan ham qo‘riqchilar juda yaqinlashib qolishgandi. Ular katta o‘qotar qurollarini “Ko‘kkezar” tomonga qaratib o‘q uzishga tayyorgarlik ko‘rishardi.

Miks sarkardasi hech narsaga qaramay Ahmadni ko‘tarib kema ichiga olib kirdi. Vaziyatni tushunib turgan Margol ham bu safar qarshilik ko‘rsata olmadi. Bu orada bir nechta lazer o‘qlar “Ko‘kkezar”ning shundoqqina yonidan o‘tib ketdi. Xayriyatki, nishonga noto‘g‘ri olishdi deb o‘yladi Margol. Endi Ahmadning boshqa iloji qolmadi. U yum-yum yig‘lagancha boshqaruv rulini qo‘liga oldi va

“start” tugmasini bosdi. “Ko‘kkezar” osmonga ko‘tarila boshladi.

– Xayr, do‘stim. Bizni kechir! – pichirladi Ahmad.

Qamoqxona qo‘riqchilari yanada yaqinroqqa kelib endi o‘q uzmoqchi bo‘lib turishganida “Ko‘kkezar” yashin tezligida fazoga ko‘tarilib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Ahmad yo‘l bo‘yi o‘zini kechira olmay yig‘lab keldi. Margol esa uni yupatishga urinar, Mokiga hech narsa qilmasligini, qo‘riqchilar uchun bunday droidlar ahamiyatsiz ekanini tushuntirmoqchi bo‘lardi.

– Bilasanmi, Salmirga yetib borsak o‘zimning eng aqlli droidimni senga sovg‘a qilaman, – dedi Margol xuddi yosh bolani ovutganday.

Albatta, bu Ahmadga yoqmadi:

– U bir o‘yinchoq emas, mening do‘stim edi!

– Tushunaman, lekin na iloj... – shu tobda Ahmadni yupatishning sira iloji yo‘qligini his qilgan Margol yelkasini qisganicha joyiga o‘tirdi. Ular soatlar davomida churq etmay yo‘lda davom etishdi.

– Ahmad, neytron yulduzga yetib qoldik, – kutilmaganda ratsiyadan kelgan bu tovush Mokiniki edi.

– Moki, senmisan?! – Ahmadning ko‘zlari chaq nab ketdi. U nima bo‘layotganini tushunmay qoldi.

– Ha, menman, – javob berdi Moki juda xotirjam ohangda.

– Axir, qanday qilib, ratsiyalar buncha uzoq masofadan bir-biriga ulanmaydi-ku!

– Yo‘q, men shundoqqina tepangizdaman, kemanding ustida.

Bu kutilmagan voqea Ahmad bilan Margolni juda quvontirib yubordi.

– Sizlar xavotir olmay yo‘lda davom etavering. Axir men temirdan yasalganman, kislorod ham kerak emas. Kemanding tashi ham, ichi ham men uchun bir xil...

– Qiziqmisan, Moki, nega shuncha vaqtgacha hech nima demading? – hayron bo‘ldi Ahmad.

– Axir, mendan hech narsa so‘ramadingiz-ku, – yana xotirjam ohangda javob berdi Moki.

Shundan so‘ng Moki ularga bo‘lib o‘tgan voqeani so‘zlab berdi. Qamoqxonaning hamma qo‘riqchilari ularning ortidan quvib ketganida bino deyarli huvullab qoladi. Moki esa bemalol lift orqali tushib, asosiy darvoza bilan binodan chiqadi va jajji g‘ildiraklarini ishga solib shitob bilan kemaga yura boshlaydi. U “Ko‘kkezar” endi ko‘tarilayotgan vaqtda yetib kelgan va qo‘lidan chiqarilgan uzun sim arqon yordamida kemaga ilashib olgan. So‘ng qo‘l-oyoqlaridagi kuchli magnitlar yordamida kema sirtiga mahkam yopishib olgan ekan.

“Ko‘kkezar” Yondosh olamdagi boshqa bir neytron yulduzidan foydalanib o‘zimizning olamga o‘tib oladi, so‘ng to‘g‘ri Miksga qarab uchadi.

Qahramonlarni Miksda tantanali kutib olishdi. Miksliklar o‘zlarining xaloskorlarini qattiq olqishlashdi. Bizning mohir fazogirlarimiz ko‘rsatgan jasorat qo‘mondon Dordon tomonidan munosib taqdirlandi va ularga va‘da qilingan xarita bo‘lagi topshirildi. Bu xarita bo‘lagini qo‘liga olgan Ahmad oldiniga uning haqiqiy ekaniga ishongisi kelmadi. Chunki u bir parcha charmsimon qora mato edi. Unda hech qanday surat yoki belgilar ham yo‘q. Lekin Moki xarita bo‘lagini tekshirib uning asl nusxa ekanini tasdiqladi.

Shundan so‘ng Dordon qahramonlarimizga yaqinroq kelib dedi:

– Sizlar mening xalqimga juda katta yordam berdingiz. Garchi shartga ko‘ra faqat xarita bo‘lagini berishimiz kerak bo‘lsa ham, men buni kam deb hisoblayman. Shuning uchun qachondir bizdan biror yordam kerak bo‘lib qolsa, tortinmay so‘rang. Miks qo‘shini yordamga tayyor! – dedi Dordon.



Shundan keyin bizning qahramonlarimiz miks olimlaridan Koinot muzeyiga olib boradigan yo‘lni so‘rab olishdi. Keyin hamma bilan xayrlashib yana yo‘lga otlanishdi.

## MAANEN YULDUZI YAQINIDA

General Obma hali ham Maanen yulduzi yaqinida o‘z josusidan xabar kutib turardi. U “Ko‘kkezar” ekipajining Yondosh olamdan eson-omon qaytishiga unchalik ishonmasdi. Lekin negadir ko‘nglining tubida bir ovoz “Ular o‘ta abjir”, “Ulardan har narsani kutish mumkin” deb turardi.

Obma shu kabi xayollarga berilib turganida boyagi “beso‘naqay miks” yana aloqaga chiqib qoldi:

- Qo‘ling qayrilmasin, qo‘mondon, ular uchib ketishyapti.
- Qayerga, aniqladingmi?
- Koinot muzeyiga.

– Ha, ko‘nglim sezgandi. Axir xaritaning ikkinchi bo‘lagi shu muzeyda saqlanadi-ku... Mayli, sen tez ortingga qayt.

Generalning oldida hammasini eshitib turgan Rago boshlig‘iga ayyorona boqib dedi:

– Xo‘jayin, qara, o‘ljamiz o‘z oyog‘i bilan biz tarafga qaytib kelyapti. Pistirmadan hujum qilaylikmi?!

– Eh, nodon Rago, nima uchun men qo‘mondon-u sen esa oddiy xizmatkor ekaning haqida hech o‘ylab ko‘rganmisan?

– Bir qoshiq qonimdan kech, bu haqida aslo o‘ylamayman!

– Chunki sendaylar faqat burnining ostinigina ko‘radi, men esa uzoqni. Bilasan, men uzoq yillardan beri galaktika xaritasini jamlash orzusida yuraman, ammo buning imkonini hecham topolmayman. Mana, imkoni topildi. Ular men o‘ylagandan ham ancha chaqqon chiqib qolishdi. Qo‘yib

ber, xaritaning keyingi bo‘lagini ham qo‘lga kiritishsin. Biz ularni o‘shanda qo‘lga olamiz. Hozir esa Koinot muzeyiga qarab uchamiz...

## KOINOT MUZEYI

\*\*\*

*Galaktikamizda noyob yulduzlar ko‘p. Shulardan biri Rigel deb ataladi. U galaktikaning eng qudratli, eng yorqin yulduzlaridan biri hisoblanadi. Rigel bizning Quyosh tizimidan juda-juda olisda – 860 yorug‘lik yili uzoqligida joylashgan. Rigel Quyoshdan 74-marta katta va 130 barobar yorqinroq. Shuning uchun u o‘ta gigant yulduz hisoblanadi. O‘ta katta va yorqinligi sabab, olisda bo‘lsa ham, uni tungi osmonda oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkin. Qadimda bobolarimiz bu yulduzni “Pahlavonning oyog‘i” deb atashgan. Ayrim xalqlar bu yulduzni ilohiylashtirgan.*

*Rigel moviy rangda. Bu esa uning sirtidagi harorat juda issiqligidan darak beradi. Ha, olimlar yulduzlarning rangiga qarab uning haroratini aniqlashadi. Buni sodda yo‘l bilan tushunish uchun temirchilik ustaxonasiga borish kerak. Usta temirni qizdirayotganda metall dastlab to‘q qizil rangga kiradi, so‘ng temirning harorati ortgani sari u zarg‘aldoq, sariq va oxiri oq rangga kiradi. Agar temirni bundan yuqori haroratda qizdirish mumkin bo‘lganida u moviy rangga kirar edi. Shunga ko‘ra, qizil rangli yulduzlar 2500 – 3000°C, zarg‘aldoqlar 3500 – 4000°C, Quyosh kabi sariqlari 6000°C, oqlari 17000 – 18000°C, moviylari esa 25000 – 50000°C issiqlikda bo‘ladi.*

Koinot muzeyi mana shu Rigel yulduzining yaqinida

joylashgan edi. Qahramonlarimizning bu galgi safari naq 4 kun davom etdi. Zero, “Ko‘kkezar” qanchalar tezkor bo‘lmasin, 860 yorug‘lik yiliga teng masofa qarshisida imillab qolishi tabiiy.

Koinot muzeyi biror binodan emas, balki Yerdan 33-marta katta bo‘lgan butun bir sayyoradan tashkil topgandi. Bu sayyora galaktikadagi eng mashhur va eng gavjum sayyohlik markazi hisoblanar edi. Har kuni bu joyga milliardlab sayyohlar tashrif buyurar va yana shunchasi uchib ketardi. Muzey-sayyorada galaktikadan yig‘ib keltirilgan eng noyob eksponatlardan tashqari sayyohlar uchun yotoqxonalar, ko‘ngilochar bog‘lar, bozorlar, savdo markazlari, restoranlar, cho‘milish havzalari va yana minglab allambalo narsalar bor edi. Qisqasi, butun sayyorani aylanib chiqib undagi g‘aroyibotlarning barchasiga guvoh bo‘lish uchun ming yil ham kamlik qilardi.

Mana, hozir Ahmad Koinot muzeyini 400 km uzoqlikdan tomosha qila turib uni asalari uyasiga o‘xshatib yubordi. Chindan ham unga qo‘nib-uchayotgan kemalar asalarilar kabi g‘uj-g‘uj edi.

– Qo‘nib olishimiz ham oson kechmaydi, – dedi bu chigal manzaradan boshi qotgan Margol.

– Menimcha, biz ham navbatga turishimiz kerak. Qarang, boshqalar huv anavi tunneldan birma-bir ichkariga kirib ketishyapti.

Ahmad sayyoraning kemalar qo‘nish maydoniga olib boruvchi tunnel haqida gapirgandi. U yerda kelgan sayyohlar qatnovini tartibga solish maqsadida navbat tashkil qilingan. Bundan tashqari, har bir kema xavfsizlik nuqtayi nazaridan tekshiriladi, bojxona nazoratidan ham o‘tkaziladi.

Ko‘p o‘tmay bizning qahramonlarimiz ham mehmonlar tashkil qilgan navbatga qo‘shilib olishdi. Ularga “1440-navbat” degan qog‘oz ham berildi. Shu bir parcha

qog‘oz bo‘lmasa, ayrim uddaburonlar navbati qolib, oldingi saflarga o‘tib ketib qolishlari ham hech gap emas.

Tunnelga kirib olishning o‘zi uch soatga cho‘zildi. Avvaliga ularni xavfsizlik xizmati xodimlari tekshirdi. Kemani yaxshilab ko‘zdan kechirib, Margolning sovuq qurollarini: “Qaytib ketayotganingizda beramiz”, – deb olib qo‘yishdi. So‘ng ular bojxona nazoratidan ham o‘tishdi. Bojxonachilar kemada taqiqlangan mahsulotlar bormi-yo‘qmi, sotish uchun nimalar olib kelindi, ularning hujjati bormi – barini tekshirardi. “Ko‘kkezar” esa bu borada top-toza bo‘lgani sabab ular bu joyda ko‘p qolib ketishmadi. Nihoyat, “Ko‘kkezar” avtoturargohni esga soluvchi fazo kemalarining qo‘nish maydoniga kirdi. Bu maydon shu qadar katta ekanidan uning oxiri ko‘rinmasdi. Fazo kemalari ham turlicha: ba‘zilari tomi yopilgan futbol maydonidan ham katta bo‘lsa, ba‘zilari o‘yinchoq mashinaday kelar edi. “Ko‘kkezar” maxsus maydonchaga qo‘nishi bilan ularning oldiga xizmatchi droid yetib keldi.

– Xush kelibsiz, aziz mehmonlar! – dedi droid o‘ta rasmiy ohangda.

Margol esa gapni cho‘zmay maqsadga ko‘chib qo‘ya qoldi:

– Xushvaqt bo‘l. Bilmaysanmi, galaktika xaritasining bo‘lagi qayerda saqlanadi?

– Bilasizmi, muzeyimizda 10 trilliondan ortiq eksponat bor. Mening xotiramga eksponatlar katalogi sig‘maydi. Men shunchaki fazo kemalari turargohining nazoratchisiman.

– Tushunarli. Unda bizga shunchaki chiqish yo‘lini ko‘rsat.

– Chiqish yo‘li o‘ng tarafingizda. Lekin avval turargoh xizmatidan foydalanish haqini to‘lab qo‘yinglar.

– Nima?! – ajablandi Margol.

– Ha, sizdan 7 koinot lungi bo‘ladi.

– Bizda pul yo‘q-ku!

– Juda qiziq sayyoh ekansizlar-ku. Yuz yildan beri shu joyda ishlab hali puli yo‘q sayyohni ko‘rmaganman.

– Yo‘q, biz bu joyga umuman boshqa maqsadda kelganmiz, – Ahmad ham suhbatga aralashdi.

– Qanday maqsadda kelgan bo‘lsangiz ham, turargohimiz xizmatidan foydalanyapsiz-ku! Yaxshisi, sizlarga chek yozib beraman, qaytishingizda to‘lab ketarsiz. Ammo pulni to‘lamasangiz kemani ham ololmaysizlar.

Noiloj qolgan qahramonlarimiz to‘lov qog‘ozini olib yo‘lida davom etishdi. Ular fazo kemalari turargohidan chiqishganida odam hatto tushida ham ko‘rishi mushkul bo‘lgan manzara qarshisidan chiqishdi. Bu joy muzey emas, naq mo‘jizalar mamlakatining o‘zi edi. Osmonda muallaq uchib yurgan binolar va hovuzlar, tog‘dan emas, havoning o‘zidan tushib kelayotgan sharsharalar, bog‘lar, hashamatli shaharlar, o‘yin attraksionlari, gologrammali tasvirlar, uchar likopchalar va boshqa ko‘plab g‘aroyibotlar aqlni shoshirib qo‘yar edi. Bu yerda galaktikaning turli sayyoralaridan kelgan milliardlab sayyohlar ko‘ngilxushlik qilish bilan band edilar. Bu sayyohlarning shakl-shamoyili turli-tuman bo‘lib, ular orasida fildek keladigan beso‘naqaylari ham, sichqondek keladigan mittivoylari ham bor. Lekin hech kim hech kimga zarar keltirmas, hamma ahil-inoq vaqt o‘tkazardi. Ba‘zan kimdir bezorilik qilib qolsa, muzey nazoratchilari tezda uni tartibga chaqirib qo‘yardi.

– Bu yer bekorga sayyohlik markazi emas, har bir qadaming pul turadi, – dedi atrofga sinchiklab qarab chiqqan Margol hamrohlariga yuzlanib.

– Qiziq, safarimiz davomida pul kerak bo‘lishi mumkinligini oldinroq o‘ylab ko‘rmaganimizni qarang, – afsuslandi Ahmad.

Chindan ham bu sayyorada mushuk ham bekorga oftobga chiqmas ekan. Pul yo‘qligi sabab ular biror muzey binosiga

kira olishmadi. Sababi, bir kishilik chipta 50 koinot lungi turardi. Ma'lumotlar bazasidan xaritani qidirishmoqchi edi, ammo bu xizmat ham 2 koinot lungi turarkan. Muzeiy gidlari esa, pul bo'lmasa, salomga alik ham olmay ketaverardi. Xullas, bu chigal vaziyatda qahramonlarimiz borar joyini ham, qilar ishini ham bilmay qoldilar.

– Ahmad, balki, senda biror qimmatbaho narsa bordir?  
– so'radi Margol.

– Yo'g'-e, sumkamda bir futbolka va ishton, qotgan non, suv, turshak va yong'oqdan boshqa hech vaqo yo'q.

– Ha, juda-juda qashshoq sayyoh ekanmiz-da, – kuldi Margol, – Moki, balki, sen ma'lumotlar bazasi joylashgan kompyuterning himoya tizimini buzib ko'rarsan.

– Mayli, harakat qilib ko'ray. – Moki shunday deb baland bir binoning kirish eshigi oldida turgan monitori katta kompyuter oldiga bordi. Qo'llaridan o'sib chiqqan uzun naychani monitoring yon tarafidan ichkariga suqdi. Ammo shu payt himoya tovushlari ishlab ketdi. Bir soniya o'tmasidan to'rtta nazoratchi robot yashinday uchib keldi. Ular bir og'iz ham so'z aytmay Mokini ushlab, uchar qurilmaga mindirdilar-da, o'zlari bilan allaqayoqqa olib ketdilar. Margol bilan Ahmad esa turgan joylaridan qimirlashga ham ulgurmay qolishdi.

Buyerning himoyatizimi Qorasayyoradagi qamoqxonaga nisbatan ancha kuchli edi. Qahramonlarimizning o'zlariga ortiqcha baho berganliklari ularga qimmatga tushdi. Bundan tashqari, ular qonunga xilof ish qilayotganlarini ham, bunga yarasha jazo muqarrar ekanini ham bilishlari kerak edi. Mana oqibati – o'zi shundoq ham nima qilarini bilmay turgan jamoaning eng kerakli a'zosi mirshabxonaga olib ketildi.

Ahmad va Margol birpas qanday chora ko'rish kerakligini bilmay hali u yoqqa, hali bu yoqqa chopib

Mokini qidirishdi. Yaxshiki, pul olmaydigan sayyohlarning biri mirshabxonaga borish yo'lini bilar ekan – ularga yo'l ko'rsatib yubordi.

Hatto jamoat transportlaridan foydalanish uchun ham puli bo'lmagan qahramonlarimiz mirshabxonagacha 8 km masofani yayov bosib o'tishdi. Mahkamada ularni to'rt qo'lli barzangi zobit qarshi olib, nima maqsadda kelganlarini so'radi. Ular esa vaziyatni tushuntirishdi. So'ng ularni mahbuslar bilan uchrashish xonasiga olib borishdi. Birozdan keyin xonaga Moki kirib keldi.

– Salom, do'stlarim!

– Moki, qalaysan, senga hech narsa qilmadimi? – so'radi Ahmad.

– Yo'q, hamma qurilmalarim soz.

– Xo'sh, ular senga nima deyishdi?

– Men bilan suhbatlashishdi. Nega kompyuterga tekkanimni so'rashdi. Men esa bir ma'lumot juda kerakligi, pulim yo'qligi sabab uni ololmaganimni, qilgan ishim jinoyat ekanini bilmaganimni aytdim.

– Endi nima bo'ladi? – so'radi Margol.

– Menga ma'muriy jazo qo'llab, 1000 koinot lungi miqdorida jarimaga tortishdi.

– Ana xolos, 2 lungni deb 1000 lungga tushib o'tiribmiz, – qilgan ishlaridan afsuslandi Ahmad.

– Moki, sen xavotir olma. Biz pul topishga harakat qilamiz, – dedi Margol.

Shundan keyin ular Moki bilan xayrlashishdi. Tashqariga chiqishganida qosh qorayib qolgan ekan. Endi ular tunab qolish uchun joy axtara boshladilar. Afsuski, birorta ham tekin boshpana topisha olishmadi. Yaxshiyamki, Margolning lazer nurli laboratoriyasi yonida ekan. Ular laboratoriyani yo'lning chekkasiga o'rnatishdi-da, uning ichiga kirib uyquga ketishdi.

## TABIY TAOMLAR

Ertasiga qahramonlarimiz tong-sahardan uygʻonishdi. Buni qarangki, sayyorada uysiz, boshpanasizlar koʻp ekan. Chunki ular tunab qolgan yoʻl yoqasida yana oʻnlab mavjudotlar uxlab yotardi. Margol laboratoriyani yigʻdi, Ahmad esa nonushtaga hozirlik koʻrdi. U yegulikni tejash uchun ikkita turshak, ikkita yongʻoq va bir boʻlak qotgan non olib, dastroʻmolining ustiga qoʻydi. Ikkovlon birgalikda nonushta qila boshladi. Koʻp oʻtmay Ahmadning yelkasidan kimdir qoqdi.

– Kechirasiz, uch kundan beri tuz totmadim, iltimos, bir tishlam yegulik bering! – dedi chuvalchangga oʻxshab ketadigan notanish oʻzga sayyoralik.

Bunday vaziyatda birovning qoʻlini qaytarish Ahmadning axloqiga zid edi. Shu sabab oʻylab oʻtirmay mehmonni dasturxonga taklif qildi. Margol ham bunga qarshilik qilmadi. Mehmon juda ochiqqan ekan, ortiqcha manziratni kutmay turshakka qoʻlini choʻzdi. Turshakni ogʻziga solarkan, bu nima oʻzi deganday uni aylantirib qarab oldi. Soʻng ogʻziga solib chaynay boshladi. Bir necha soniya oʻtib mehmon: “Oh, oh, xuddi tabiiyga oʻxshaydiya”, – deb qoldi. Avvaliga uni tushunib boʻlmadi. Keyin u yana oʻziga oʻzi gapirdi: “Bunaqasini bolaligimda yegan boʻlsam kerak, xuddi tabiiy mevaga oʻxsharkan-a. Oh, qanday mazza!”

– Kechirasiz, boyadan beri nimalar deyapsiz? – soʻradi Ahmad.

– Faqat mendek bir kambagʻalning ustidan kulmang, lekin bu taom xuddi haqiqiyga oʻxshar ekan – gʻalati tirjaydi “chuvalchang”.

– Ha, chindan ham bu haqiqiy – oʻrikning quritilgani!

– Yoʻgʻe, ishonmayman. Hozirgi kunda tabiiy taomni



topib bo‘larkanmi? Yana uchragan kimsaga uni tutqazib qo‘yarmidingiz-a?! Quloqqa lag‘mon ilmang!

– Nega ishonmaysiz, bola rost gapiryapti. Bu Yer sayyorasidan keltirilgan tabiiy taom, – dedi Margol ko‘rsatkich barmoqlari bilan yuqoriga ishora qilib.

– Voy, o‘lmasam! Men uni yeb qo‘ydim-ku... Voy-voy, ana yutib ham yubordim! Nega oldinroq aytmaysiz! – e‘tiroz bildirishga o‘tdi mehmon.

– Nega, yana nima bo‘ldi?

– Axir, uni tabiiy taomlar restoraniga olib borib katta pulga sotsam bo‘lardi.

– Qanaqa restoran?! – so‘radi Margol.

– Galaktikaning eng boy shaxslari ovqatlanadigan restoran!.. Voy, o‘lmasam, men, ahmoq, nimalar qilib qo‘ydim-a?!.

Kelgan mehmon o‘zini o‘zi shu tariqa koyiy boshladi. Margol unga e‘tibor qilmay Ahmadga tezroq tur deganday imo qildi. Ahmad ham buni fahmlab o‘rnidan turdi. Endi ular birinchi uchragan maxluqdan tabiiy taomlar restoranini so‘rab yo‘lga chiqishdi. Yura-yura tushga yaqin restoranni ham topib kelishdi. Ichkariga kirib, bosh oshpazni so‘rashdi. Restoran xizmatchilari ularni ko‘rinishidan xuddi begemotni eslatib yuboradigan bosh oshpazning oldiga olib borishdi.

– Oldindan aytib qo‘yay, och-nahorlarga beradigan hech narsam yo‘q, – deya gap boshladi chaqirilmagan mehmonlarni ko‘rgan oshpaz.

– Bizga sizdan hech narsa kerak emas, lekin bizdagi narsa sizga kerak bo‘lib qolishi mumkin, – dedi Margol xotirjam turib.

– Siz kimsiz o‘zi?

– Biz savdogarlarmiz, tabiiy mahsulotlar savdosi bilan shug‘ullanamiz.

Bu gapni eshitgan oshpaz shosha-pisha fartugini yechdi va chopib kelib Margolning qo‘lini siqib qo‘ydi.

– Shuni oldinroq aytmaysizmi. Sizlarni tanimabman, eski qadrdonlarim.

Oshpaz yasama iltifot ko‘rsatib ularni o‘z xonasiga taklif qildi.

– Qorningiz ochdir, nima olib kelishsin?

– Yo‘q, biz shoshib turibmiz. Bizda turshak bilan yong‘oq bor edi, agar sizni qiziqtirsa...

– Albatta qiziqtiradi-da. Qani, ko‘rsating!

Ahmad bir dona turshakni olib stol ustidagi likopga qo‘ydi. Uni ko‘rgan “begemot”ning so‘laklari oqib, ko‘zlari kosasidan chiqib ketay dedi. Lekin u o‘zini tutib olib, shoshmasdan, ko‘zini turshakdan uzmay qo‘liga rezina qo‘lqop kiydi. Turshakni ushlab aylantirib-aylantirib razm soldi. Keyin kichkinagina pichoq bilan uning bir chetidan guruchday keladigan qismni kesib oldi. So‘ng bu bo‘lakni pinset<sup>1</sup> bilan ushlab og‘ziga soldi. Oshpazning otning kallasiday og‘ziga guruch donasiday narsani tashlab, “oh-oh”lab yeyishi juda kulgili ko‘rinardi. Ammo Ahmad kulmadi. Qaytanga, “begemot”ga rahmi keldi. Axir, ushoqday keladigan turshak bo‘lagini og‘ziga solib “oh-ohlab” turgan bu maxluqqa achinmay bo‘larkanmi? Nahotki, tabiiy taomlar shunchalik taqchil bo‘lsa?! “Hali bu sayyorada va galaktikada shu ushoqdek keladigan tabiiy mevani ham yemaganlar ko‘p bo‘lsa kerak? – o‘yladi Ahmad. – Bu o‘zga sayyoraliklar ilm-fanda taraqqiy topishga topibdi-yu, lekin evaziga ko‘p narsani boy berishibdi. Salmirliklar, marsliklar, gikslar – ularning bari taraqqiyotning qurboni bo‘lishmadimi? Ular

---

<sup>1</sup> Pinset – juda kichik narsalarni ushlab uchun mo‘ljallangan asbob.

fan va texnikani rivojlantirib, oqibatda o‘z sayyorasining, ona tabiatining kushandasiga aylanib qolishmadimi? Xo‘sh, biz, odamlar-chi, borgan sari shu o‘zga sayyoraliklarga o‘xshab qolmayapmizmi? O‘rmonlarni kesib, suvni, havoni bulg‘ab nimaga erishamiz?! Oqibati shunday tugamasmikan?!”

“Begemot” yana bir necha daqiqa ko‘zlarini yumgancha turshak bo‘lagini yutib yubormay chayqalib-chayqalib o‘tirdi. So‘ng dedi:

– Haqiqiy ekan! Bunaqasini oldin sira yemaganman. Xo‘sh, qancha so‘raysiz?

– Qancha berasiz?

– Uch ming koinot lungi.

Margol va Ahmad bir-birlariga so‘zsiz qarab olishdi.

– Yo‘q, besh mingdan kamiga sotmaymiz! – dedi Margol qat‘iy.

– Roziman! – dedi oshpaz qilgan xarididan xursand bo‘lib. So‘ng turshakni maxsus qutiga solib qo‘ydi va seyfdan besh ming koinot lungi olib berdi.

Margol va Ahmad avvaliga nima bo‘layotganini yaxshi anglay olishmadi. Chunki ular bu bitta turshakni shunchaki “reklama” uchun berishgan edi. Ammo oshpaz shu bitta turshakka pul to‘laganini fahmlab olishgach, Margol dedi:

– Bizda yana bitta yong‘oq ham bor. Faqat u juda qimmat, noyob narsa.

– Qani-qani, ko‘rsating! – dedi oshpaz shosha-pisha.

Ahmad bir dona chaqilmagan yong‘oqni olib stol ustiga qo‘ydi. Bu safar ham oshpaz shoshilmay maxsus uskuna bilan yong‘oqni chaqdi. Oldin hidladi, mikroskop bilan tekshirdi. Lekin negadir yeb ko‘rishga jur‘at qila olmadi. Hoynahoy, u yong‘oqni o‘zidan ham qizg‘angan bo‘lsa kerak.

– Qiziq, juda qiziq! Uni qayerdan olib keldingiz?!

– Yerdan.

– E, gapniyam olasiz-da! Afsonaviy Yer sayyorasi deng...  
Qo‘ysangiz-chi, molingizni bunchalar maqtab sotmasangiz ham olaveraman.

– Yo‘q, aldamayapmiz...

– Bo‘ldi-bo‘ldi, – qo‘l siltadi oshpaz baribir ishonmayman deganday, – xo‘sh, qancha so‘raysiz?!

– O‘n ming lung, – dedi Margol.

– Bo‘ldi, juda yaxshi, – oshpaz epchillik bilan o‘rnidan turdi-da, seyfdan yana o‘n ming sanab oldi. Keyin xunuk ishshaygancha pulni uzatdi.

So‘ng oshpaz mehmonlarni tashqariga kuzatib qo‘ydi. U bugun ikki savdogarni boplab laqillatganidan xursand edi. Chunki oshpaz endi bu taomlarni ellik yoki yuz ming koinot lungiga sotishi mumkinligini yaxshi bilardi.

Qahramonlarimiz ham restorandan chiqishlari bilan taksiga minib, to‘g‘ri mirshabxonaga borishdi. Moki uchun belgilangan jarima pulini to‘lab uni ozod qilishdi. Bu vaqtga kelib yana qorong‘i tushib qolgandi. Ular xarita qidiruvini ertangi kunga qoldirib, o‘n “yulduz”li mehmonxonaga joylashishdi. Uch kishilik shinam xonaga 200 koinot lungini to‘lagan qahramonlarimiz shu kecha “maza qilib” sun‘iy taomlar yeb uyquga ketishdi.

## **DIREKTOR BILAN UCHRASHUV**

Ertasiga tongdan fazogirlarimiz jiddiy reja tuza boshladilar. Chunki ular ikki kunlik vaqtni shunchaki havoga sovurib yuborishgandi. Ammo endi ularning puli ko‘p, demak, xaritani topish imkoni ham katta. Ular bitta tezkor taksi yollab sayyoradagi eng yirik muzey binolariga borishni reja qilib olishdi.

Birinchi bo‘lib tunab qolgan mehmonxonaga eng yaqin muzeyga kirishdi. O‘zlariga eng yaxshi gidni yollashdi.

Bu gid ularni muzeydagi eksponatlar bilan tanishtirdi. Haqiqatda, bu muzeydagi ko'p eksponatlar mo'jizaning o'zi edi. Ular galaktikamizning turli sayyoralaridan olib kelingan bo'lib, orasida qadimiy kompyuterlar, droidlar, uchar qurilmalarning bo'laklari, qimmatbaho buyumlar, taqinchoqlar, portretlar, kiyimlar, xullas, yo'q narsaning o'zi yo'q edi.

– Mana bu noyob eksponat afsonaviy Yer sayyorasidan olib kelingan, – deb qoldi gid.

Bu vaqtda Ahmad boshqa eksponatlarga mahliyo bo'lib turgandi, “Yer” so'zini eshitishi bilan tezda gid ko'rsatgan tomonga qaradi. Gid esa Leonardo da Vinchi chizgan “Mona Liza” portretini ko'rsatayotgan edi. – Uni Yerning buyuk musavviri Leonardo chizgan.

– Bu – soxta surat, – dedi Ahmad.

– Aslo soxta emas. Haqiqiy!

– Agar bilsangiz, haqiqiysi Parijdagi Luvr muzeyida saqlanadi.

– Esingda bo'lsa, bolakay, Yer hisobi bo'yicha 1911-yilda kartinani Vinchenso ismli odam o'g'irlagan. Ammo bir yarim yildan so'ng portret topilib, muzeyga qaytarilgan. Xullas, o'sha qaytgan portret, aslida, soxtasi. Haqiqiysi mana shu! O'sha Vinchenso esa galaktikaga mashhur o'g'ri edi. U odam qiyofasiga kirib “Mona Liza”ni o'g'irlashga muvaffaq bo'lgan.

– Voy, qalloblar-ey! Yer mulkini qaytarib bering!

– O'zingni bos, bolakay, uni biz yaqindagina naq yuz million koinot lungiga sotib olganmiz.

Ahmad boshqa gapira olmadi. U doim Luvrga borib “Mona Liza”ni ko'rishni orzu qilardi. Lekin Yerdan shuncha uzoqqa kelib uning haqiqiysini ko'raman deb hech o'ylamagan ekan...

– Janob gid, galaktika xaritasining bo'lagi ham shu

binodami? – so‘radi Margol.

– A, xaritami, u markaziy binoda. Shaxsan muzey direktori nazoratida turadi.

– Markaziy bino qayerda?

– Sayyoramiz markazida, albatta. Bu yerdan 6 soatlik yo‘l.

Fazogirlarimiz shu joyda muzey bo‘ylab sayohatni to‘xtatib, markaziy binoga otlanishdi. Qariyb 6 soatga cho‘zilgan safardan so‘ng balandligi osmonga tutashib ketgan muzey binosiga borishdi. Bu safar ular giddan to‘g‘ri xarita bo‘lagining oldiga olib borishni so‘rashdi. Xarita 2117-qavatda joylashgan bo‘lib, juda qattiq qo‘riqlanar ekan. Ular xaritani faqat zirhli oyna ortida turib 5 metr masofadan ko‘ra oldilar, xolos. Aslida, bu bo‘lak ham ulardagi bir parcha qora matodan farq qilmasdi.

– Hurmatli gid, bizni muzey direktorining oldiga olib bora olasizmi? – so‘radi Margol.

– Nimalar deyapsiz, muzey direktori shu sayyoraning rahbari hisoblanadi. Siz tugul, uning yoniga o‘zim ham bora olmayman, – sayyohlarning savolidan ajablandi gid.

– Unda, ayting-chi, qanday qilib u bilan ko‘rishish mumkin? Biz juda olisdan kelganmiz.

– Bilmadim, lekin sizlarga direktor kotibini ko‘rsatib qo‘yishim mumkin.

– Unda boshlang.

Ular bino bo‘ylab yana ham yuqoriroqqa ko‘tarilishdi. So‘ng katta bir zalga kirishdi. Shunda gid uzoqdan pingvinga o‘xshab ketadigan direktor kotibini ko‘rsatdi. Fazogirlar vaqtni boy bermay uning yoniga shoshilishdi.

– Janob kotib, muhim gapimiz bor edi.

– Eshitaman, – bir uyum qog‘ozni qo‘ltiqlab shoshib borayotgan kotib sayyohlarga o‘girib ham qaramadi.

– Bizlarni direktor bilan ko‘rishtiring, iltimos.

– Yo‘q, direktor juda band. – Kotib endi to‘xtab hayron

bo‘lganicha sayyohlarga razm soldi. – Ustiga-ustak, direktor duch kelgan bilan uchrashavermaydi, – kotibning ensasi qotgani sezildi.

Shundan keyin qahramonlarimiz ham o‘zlarining kiyim-boshiga bir-bir qarab olishdi. Chindan ham boshqa sayyohlar bilan taqqoslaganda ularning kiyimi juda juldur ko‘rinardi. Ammo Ahmad bunga parvo qilmay shoshib ketayotgan kotibning qarshisiga chiqib uning yo‘lini to‘sdi.

– Yo‘q, siz ularga Yerdan mehmon kelibdi deng, – dedi Ahmad ishonch bilan. U nega bunday deganini o‘zi ham bilmaydi. Ammo direktor Yerdan odam kelganini eshitsu uchrashishga yo‘q demasligini sezib turardi.

Kotib Ahmadga qarab biroz o‘ylanib qoldi. So‘ng xo‘p degandek boshini egib ichkariga kirib ketdi. U zum o‘tmay chiqib:

– Direktor sizlarni kutyapti, – dedi.

Direktorning xonasi ham katta muzeydan farq qilmasdi. U mehmonlar bilan iliq salomlashdi. So‘ng nima maqsadda kelganliklarini so‘radi. Margol esa hamma bo‘lgan voqeani aytib berdi.

– E-he, shuncha sarguzashtni boshdan o‘tkazdik deng. Ammo kechirasizlar-u, xaritani bera olmayman.

– Hammasi tugaganidan so‘ng uni qaytarib olib kelishga va‘da beraman! – dedi Margol o‘rnidan turib.

– Hech iloji yo‘q. U sayyoramizdagi eng noyob eksponat! Shu payt Ahmadning xayoliga ajoyib fikr kelib qoldi.

– Demak, u butun galaktikadagi eng noyob narsa ekan-da?

– Yo‘q, nega endi? Biz muzeyga olib kelishni orzu qiladigan narsalar ko‘p.

– Masalan?

– Masalan, Duradu kemasining qanoti. Duradu

galaktikadagi ilk yulduzlararo uchar kema bo‘lib, uni shu xaritani tuzgan qadimgi meriyaliklar yasashgan. Kema galaktikada yagona bo‘lgan eng mustahkam va sirli metallardan ishlangan. 100 million yil oldin Duradu Qumsoat tumanligi ichidan o‘tayotganda uning dum qismidagi qanot sinib tushadi. Chunki kema qancha mustahkam bo‘lmasin, tumanlikning ichidan o‘tish imkonsiz edi. Fazogir kemani bazo‘r eng yaqin sayyoraga qo‘ndiradi. Qo‘nish vaqtida esa kema ichida yong‘in chiqadi. Fazogirning o‘zi arang qutulib qoladi. Ammo Duradu portlab ketadi. Biroq o‘sha fazogir kemandagi bir bo‘lagi tumanlik qa‘rida ekanini aytgan. Bilasanmi, bolakay, agar o‘sha qanot topilsa, meriyaliklar million yillar davomida sir saqlab kelgan noyob metallning siri ham ochiladi.

– Demak, qanot hozir ham Qumsoat tumanligining qa‘rida ekan-da? – so‘radi Ahmad.

– Ha, shunday! Ammo hozirda tumanlikka yetib borish deyarli imkonsiz, yetib borilgani bilan, tumanlikning ichiga kirishning sira iloji yo‘q. Buning uchun kema o‘sha noyob metallardan tayyorlanishi shart.

– Agar biz o‘sha qanotni keltirib bersak-chi?

– Bolakay, nimalar deyapsan? Bu haqida orzu ham qila ko‘rma!

– Yo‘q, siz savolimga javob bering.

– Nima qilardim, uni xaritaga alishtirishim mumkin.

– Kelishdik, qo‘l tashlang, – Ahmad shunday deb direktorga qo‘l cho‘zdi. Direktor ham o‘ylanib o‘tirmay Ahmadning qo‘lini siqdi.

Qahramonlarimiz shu kunning o‘zida Qumsoat tumanligining aniq koordinatalarini bilib olishgach, muzey-sayyorani tark yetishdi. Kun davomida ularning ortidan qolmay kuzatib yurgan Obmaning josusi ham shu kuni o‘z kemasiga qaytdi.



Obma josusdan bo‘lib o‘tgan voqealarni batafsil so‘rab oldi. U endi “Ko‘kkezar”ning izidan bora olmasligini yaxshi bilardi. Zero, salmirliklarning kemasi tumanlikka kamida 10 yilda yetib boradi. “Yaxshisi, ularni shu yerda kutaman. Shunda Duraduning qanotiga ham o‘zim egalik qilishim mumkin”, – o‘yladi Obma.

## QUMSOAT TUMANLIGI

\*\*\*

*Koinotda tumanliklar ko‘p. Bu tumanliklar fazoviy chang va turli gazlardan tashkil topgan bo‘lib, koinotning biror joyida tuman kabi suzib yuradi. Astronomlar shu kunga qadar ko‘plab tumanliklarni aniqlashgan. Ulardan Ot boshi, Mushuk ko‘zi, Qumsoat va Chig‘anoqsimon tumanliklari fanda mashhur. Ularning har biri osmondagi bulutlar kabi biror shaklga o‘xshab ketadi. Olimlar esa shu shaklga qarab ularni nomlashgan.*

*Qumsoat tumanligi Quyosh tizimidan 8000 yorug‘lik yili uzoqligida joylashgan. O‘tgan boblarda Rigel yulduzining 860 yorug‘lik yili uzoqlikda joylashgani va bu tasavvur qilish ham mushkul bo‘lgan masofa ekani haqida yozgan edik. Qumsoat tumanligi esa Rigeldan ham 10-marta uzoqroqda.*

*Bu tumanlik ko‘rinishidan qumsoatga o‘xshagani uchun ham shu nomni olgan. Bir-biriga tutashib ketgan ikki doira shaklidagi tumanlik qumsoatga juda o‘xshaydi. Ular tutashib turgan markazda esa mitti oq yulduz mavjud. Xabbl teleskopi fazoga uchirilganidan so‘ng qurilma mazkur tumanlikning go‘zal suratlarini olib Yerga yubordi.*

*Qachonlardir bu tumanlik Quyoshdan 8-marta katta yaxlit yulduz bo‘lgan. Ammo vaqti kelib yulduz qariydi*

*va portlab ketadi. Hozirgi tumanlik shu portlashning asoratidir. Yana ming yillar o'tib bu tumanlik ham tarqab, fazoda faqat mitti oq yulduzning o'zi qoladi.*

“Ko'kkezar” Qumsoat tumanligiga yetib borish uchun bir oyga yaqin uchdi. Fazogirlar yo'l davomida ancha zerikib ham qolishdi. Chunki yo'l davomida kema faqat gravitatsiya to'lqini bo'ylab yuradi. Bu to'lqinning ichi esa xuddi tunnelga o'xshaydi – atrofdan hech vaqo ko'rinmaydi. Lekin ularga salmirliliklarning uyqu eliksiri juda asqatdi. Bu eliksir koinotda uzoq safar qiladiganlar uchun maxsus yaratilgan bo'lib, uni ichgan odam bir necha haftaga uxlab qoladi. Mana, hozir ham uyquchi fazogirlarimizni yo'l bo'yi faqat bir nuqtaga qarab kelgan Moki uyg'otdi. Sababi, ularning kemasi allaqachon Qumsoatga yetib kelgan edi.

Tumanlikning ichiga kirish haqiqatda juda xavfli. Chunki u vodorod, geliy kabi gazlarning quyuq bulutlaridan tashkil topgan. Bu gaz bulutlarining tubida juda kuchli kimyoviy jarayonlar sodir bo'ladi. Ya'ni vodorod atomining yadrolari o'zaro urishib, geliy gazini hosil qiladi. Mazkur jarayonda juda katta energiya ajralib chiqib, xuddi atom bombasi portlaganday bo'ladi. Bundan tashqari, fazoviy chang ham turli hajmdagi metall va tosh bo'laklaridan iborat. Ular kemaga urilib uni chil-parchin qilib yuborishi mumkin. Shuning uchun “Ko'kkezar” ekipaji, mana bir kun o'tsa ham, aniq reja tuza olmay tang holatda. Bu xavfli vaziyatda nima qilishni bilmay boshi berk ko'chaga kirib qolishgan.

– Menimcha, tumanlik ichiga kira olmaymiz. Bu mening oxirgi xulosam, – dedi Margol qat'iy ohangda.

– Tumanlikka kirmasdan qanday qilib qanotni olib chiqamiz?!

Ayni shu savol hammaning boshini og'ritayotgan edi. Hatto Moki ham bu savollardan charchagan, shekilli, oxiri o'zini o'zi uxlatib, ya'ni o'chirib qo'ydi.

– Margol, menda bir zo‘r g‘oya bor! – Ahmad o‘rnidan sakrab turdi. – Burg‘ilovchi qurilmangiz necha kilometrgacha chuqur qazir edi?

– 50 kilometrgacha.

– O‘sha qurilma yer qazishning o‘rniga o‘z quvurini fazoda muallaq cho‘za oladimi?

– Bu qaytaga osonroq-ku, lekin nima naf?

– Duraduning qanoti – noyob metall. Ya‘ni metall tarkibidagi atomlar murakkab tuzilmaga ega. Sizning burg‘ilovchi qurilmangiz ham  $N_2G$ , ya‘ni o‘ta murakkab atom tuzilmali moddani qidiradi. Demak, o‘sha burg‘ilovchi qurilmaning maxsus uskunalari metallarni bir-biridan farqlay oladi. Aytmoqchimanki, qurilma tumanlikdagi turli-tuman metall bo‘laklari ichidan biz uchun keraklisini topib, qayerda joylashganini ko‘rsatib beradi. Buning uchun tumanlikka imkon qadar yaqinlashib, burg‘ilovchi qurilmaning quvurini 50 kilometr ga cho‘zamiz. Agar shu hududda noyob metall aniqlansa, demak, u biz izlayotgan qanot bo‘lib chiqadi.

– Aqlingga qoyil! – Margol o‘zida yo‘q xursand bo‘lib ketdi, ammo birdan yana o‘ylanib qoldi. – Qanotni aniqladik ham deylik, biroq uni qanday olib chiqamiz?

– Juda kuchli magnit yordamida! – javob berdi Ahmad ko‘rsatkich barmog‘i bilan ta‘kidlab.

– Axir bizning kemada unday magnit yo‘q-ku.

– Margol, shu yerda fizikadan olgan bilimlarimiz bizga qo‘l keladi. Kemada magnit bo‘lmasa ham, abadiy energiya generatori va yetarlicha sim bor, shundaymi?! Bundan tashqari, siz elektr toki magnit maydonini hosil qilishini ham bilsangiz kerak?

– Ahmad, sening aqlingga yana bir bor qoyil qoldim! Juda to‘g‘ri, bu reja albatta amalga oshadi!

\*\*\*

*Elektr tokini hech kim ixtiro qilmagan. U shundoq ham tabiatda mavjud. Masalan, chaqmoq chaqqanida juda kuchli elektr toki vujudga keladi. Yana ayrim jonzotlar, xususan, meduzalar o'z tanasida elektr toki ishlab chiqarishi mumkin.*

*Hozirda hayotimizni elektr tokisiz umuman tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu borada biz Volta, Faradey, Maksvell, Amper kabi olimlardan minnatdor bo'lishimiz kerak. Chunki mazkur olimlarning elektr toki borasida qilgan kashfiyotlari tufayli insoniyat shu darajada rivojlanib ketdi.*

*Elektr toki o'z atrofida magnit maydonini hosil qiladi. Bunga kichik bir tajriba o'tkazib o'zingiz ham guvoh bo'lishingiz mumkin. Buning uchun o'tkir bo'lmagan temir bo'lagini sochingizga yaxshilab ishqalaysiz, so'ng uni mayda qog'oz parchalariga yaqinlashtirasiz. Temir qog'oz parchalarini o'ziga tortib oladi. Chunki ishqalanish natijasida temir tarkibidagi zarralar zaryadlanib qoladi. Zaryadlangan zarralar esa boshqa zarralarni o'ziga tortadi. Yana bir usul: simni g'altak kabi o'rab, uning ikki uchini batareykaga tegizsangiz, shunda simli g'altak magnitga aylanib qoladi.*

Ahmadning rejasiga ko'ra ekipaj a'zolari ochiq kosmosga chiqib ishlashi kerak bo'ladi. Shuning uchun ular skafandrlarini kiyib birin-ketin "Ko'kkezar" bortiga chiqa boshladilar. Avval Margol, keyin Moki, oxirida esa Ahmad chiqdi. Ularning har biri maxsus arqon bilan o'zlarini "Ko'kkezar" bortiga boylab olishdi. "Ko'kkezar" ichida gravitatsiyani me'yorlashtiruvchi uskuna bo'lgani uchun fazogirlar vaznsizlikni his qilmaydilar. Ammo ochiq kosmosda ular uchib yurar edi. Ahmad uchun bu judayam

hayajonli jarayon edi, chunki u birinchi marta ochiq kosmosga chiqqan edi.

– Koinotning haqiqiy chiroyini, mana, endi ko‘rayotgandayman, – dedi Ahmad vaznsizlik holatida uchib yurarkan.

– Nimasini aytasan, kemamizning jajji oynalaridan butun manzarani ko‘rib bo‘lmaydi.

– Qarang, tumanlikning o‘rtasidagi yulduz xuddi ko‘zga o‘xshab ketarkan...

Ular shu tarzda suhbatlashib burg‘ilovchi qurilmani ishga tushirdilar. Qidiruv ishlari uzoq vaqtga cho‘zildi. Keyinroq fazogirlar navbat tashkil qilishdi. Ya‘ni ekipajning bir a‘zosi ochiq fazoda qurilma bilan ishlaganda ikki fazogir dam olib turadi. Bu esa ishning samaradorligini ancha oshirdi. To‘rt kun deganda qurilma noyob metallni aniqladi.

– Margol, Moki, tashqariga chiqinglar, qurilma nimanidir aniqladi, – Ahmad uxlab yotgan hamrohlarini ratsiya orqali chaqira boshladi.

Margol shosha-pisha skafandrlarni kiyib Moki bilan kema bortiga chiqdi. Ular ham birma-bir qurilma ko‘rsatayotgan ma‘lumotlarni tekshirib ko‘rishdi. Haqiqatda bu noyob metall edi. U yulduzning portlashidan so‘ng hosil bo‘ladigan metall parchalariga sira o‘xshamasdi.

– Ha, bu o‘sha qanot bo‘lsa kerak, – Margol xursand edi, – Ahmad, menimcha, ishning ikkinchi bosqichiga o‘tishimiz kerak. Qani, magnitni yasaylik unda.

Fazogirlar shu zahoti ichkariga kirib kemasidagi barcha simlarni yig‘a boshladilar. Ular hozircha ishlatilmayotgan qurilmalarning ichidagi simlarni chiqarib oldilar. Hatto Moki ham o‘zining ichidagi ortiqcha simlarni chiqarib berdi. Keyin Ahmad simni g‘altak kabi o‘ray boshladi.

– G‘altak qancha katta bo‘lsa, magnit ham shuncha kuchli bo‘ladi, – tushuntirdi u.

Shundan so‘ng g‘altakning bir uchi generatorning musbat, yana bir uchi manfiy tarafiga ulandi. G‘altak atrofida kuchli magnit maydoni hosil bo‘lib, atrofdagi temir qurilmalarni, hatto Mokini ham o‘ziga tortib oldi.

Qo‘lbola magnit sinovdan o‘tganidan so‘ng ular yana kema bortiga chiqishdi. Burg‘ilovchi qurilmaning 50 kilometr ga cho‘ziladigan quvuri uchiga magnitni mahkamlashdi. So‘ng quvurni yana tumanlik tomonga cho‘zishdi. Ammo aniqlangan metall olisda ekan, magnitning quvvati uni tortib olishga yetmadi. Hamma urinishlar zoye ketdi.

– Margol, tumanlikka yaqinroq bormasak bo‘lmaydi. Magnitning quvvati yetmayapti, – dedi Ahmad.

– Bundan ortiq yaqinlasholmaymiz. Qara, hatto shu yerning o‘zi ham ancha xavfli-ku!

– Margol to‘g‘ri gapiryapti – dedi Moki tumanlikka razm solib. – Huv anavi tinimsiz chaqmoq chaqib turgan hududni ko‘ryapsizmi? U yerda olmos yong‘iri bo‘lyapti. Bitta olmos donasining kattaligi mening boshimday keladi. Halokatga uchrashimiz uchun shu olmosning bittasi yetarli. Biz izlayotgan metall esa aynan o‘sha hudud yaqinida.

– Ahmad, bilasan-ku, olmos eng qattiq tosh hisoblanadi. U joyga yaqinlashish o‘lim bilan barobar.

\*\*\*

*Siz rivoyatlardagi qirg‘og‘i oltindan, o‘zani dur-u yoqutdan bo‘lgan daryolar haqida ko‘p eshitgansiz, to‘g‘rimi? Ammo bunday daryolarni odamzod hali o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan. Shuning uchun ayrimlar bunday rivoyatlarga ishonmaydi. Lekin yaqindagina AQSHdagi Medison universiteti olimlari koinotdagi ayrim sayyoralarda olmosli daryo va ummonlar borligini aniqlashdi. Masalan, Yupiter ana shunday sayyoralar sirasiga kiradi.*

*Oldingi boblarda Yupiter haqida ma'lumot bergan edik. Yupiter gaz sayyorasi bo'lib, uning sirti qattiq jismlardan emas, balki vodorod, geliy, metan kabi gazlardan tashkil topgan. Sayyoraning quyuq gazli atmosferasida esa tinimsiz chaqmoq chaqib turadi. Bu chaqmoq ko'rinishidan Yerdagi chaqmoqlarga o'xshaydi, lekin bir necha o'n barobar kuchliroq chaqnaydi.*

*Chaqmoq tufayli Yupiter atmosferasida o'ta yuqori harorat yuzaga keladi. Natijada quyuq gazli bulutlarda yomg'ir tomchilari o'rniga kristallar hosil bo'ladi. Bu aynan siz biz bilgan olmos kristallining ayni o'zidir. Boshqacha aytganda, vodorod, geliy, metan va boshqa turdagi gazlarning favqulodda kuchli haroratda qizdirilishi uglerod moddasini, ya'ni olmosni hosil qiladi. So'ng olmos "yomg'iri" gazdan og'ir bo'lgani uchun pastga – Yupiterning yadrosiga "yog'a" boshlaydi. Ammo yadro juda-juda issiq. Olmoslar bunday haroratga dosh berolmay erib ketadi. Suyuq olmoslar esa daryo va dengizlarni hosil qiladi.*

*Qumsoat tumanligi ham biz yuqorida sanab o'tgan gazlardan xoli emasligini hisobga olsak, u yerda ham olmos yomg'irlari kuzatilishi mumkin.*

Olmos yomg'iri har qancha xavfli bo'lmasin, shu tobda Margol ham, Ahmad va Moki ham oldilarida boshqa yo'l yo'qligini yaxshi bilishar edi. Maqsadga yetishlari uchun "Ko'kkezar" imkon qadar olmos yomg'iriga yaqin borishi shart. Balki, o'shanda fazogirlarning omadi kelib, metallni tortib olishning imkoni tug'ilar. Qahramonlarimiz shu umid bilan turgan joylaridan qo'zg'alib, tumanlikka yanada yaqin borishdi. Ular olmos kuchli yog'ayotgan hududdan sal uzoqroqda to'xtashdi. Bu joyda tarvuzday keladigan olmoslar onda-sonda qulab turgani uchun "Ko'kkezar"

ularga chap berishni uddalay oladi.

– Endi bu yerdan bir metr ham qo‘zg‘ala olmaymiz, – Moki kema rulini tutib olgancha olmos bo‘laklariga chap berishga urinardi.

– Bo‘ldi, qani, ishga kirishaylik, Ahmad, biz sen bilan tashqariga chiqamiz. Moki esa kemani boshqarib turadi, – Margol skafandrni kiyishni boshladi.

Ular ochiq fazoning eng xavfli sharoitida ishlashni boshlashdi. Avvaliga bu urinishlar hech qanday natija bermadi. Ammo o‘n daqiqadan keyin qurilma noyob metallning sekin-asta yaqinlashib kelayotganini ko‘rsatdi. Ko‘p o‘tmay metall butunlay magnitga yopishdi.

– Qoyil, Ahmad, biz uddaladik, do‘stim, ko‘ryapsanmi?!  
– Margolning sevinchi ichiga sig‘may ketdi.

– Moki, vaqt ziq, sen kemani ortga buraver. Biz esa yo‘l-yo‘lakay kemaning ichiga kirib olamiz, – dedi Ahmad burg‘ilovchi qurilmaning quvurini yig‘ishtirib olarkan.

“Ko‘kkezar” xavfsiz joyga kelib to‘xtadi. Bu vaqtga kelib 50 kilometrga cho‘zilgan quvur ham yig‘ilib qoldi.

– Ana-ana! Bu haqiqatda Duraduning qanoti ekan! – qichqirdi Margol yaqinlashib qolgan metall parchasini ko‘rsatib.

Ha, bu chindan ham qadimiy kemaning dum tomonidagi qanoti edi. Ko‘rinishidan avtomobilning eshigiga o‘xshab ketadigan qanot bo‘lagi tilla rangda bo‘lib, ayrim joylariga naqsh tushirilgan, yana ayrim joylariga meriya alifbosida bir nimalar yozilgan edi. Fazogirlar qanotni kemaga ortib tezlik bilan Koinot muzeyi tomon otlanishdi. Yo‘lda esa Margol va Ahmad yana uyqu eliksirini ichib uzoq muddatli uyquga ketishdi.



## PISTIRMA

“Ko‘kkezar” gravitatsiya to‘lqinidan chiqishi bilan Moki sheriklarini uyg‘otdi. Ular Koinot muzeyiga 1000 km masofa qolganida to‘lqindan chiqishgan edi. Ahmad “Ko‘kkezar”ni sayyora sathiga qo‘ndirish uchun kemalar saf tortib turgan tarafga burildi. Ammo shu vaqtda kutilmagan kuchli zarbadan kema chayqalib ketdi. Ahmad har qancha urinmasin, “Ko‘kkezar” unga bo‘ysunmasdi.

– Qandaydir kema bizni po‘lat arqonlar bilan tutib oldi. U bizni ochiq fazo tomon tortmoqda, – Moki monitorni yoqib, bo‘layotgan voqeani tashqaridan ko‘rsata boshladi. Ekranda kattaroq bir kemanding baliq tutadigan to‘rga o‘xshash narsani “Ko‘kkezar”ning ustiga tashlab o‘zi tomon tortayotgani ko‘rinardi.

– Axir, bu bizning kema-ku! – Margol hayratdan yoqasini ushladi. – Nahotki, Obma yovuz ishlarida bizning kemadan foydalanayotgan bo‘lsa?!

Obma “Ko‘kkezar”ning kelishini naq ikki oy kutdi. O‘tgan vaqt davomida u bir daqiqa ham uxlamadi. Chunki u har onda, har daqiqada “Ko‘kkezar”ning kelib qolishi mumkinligini bilar, biroz chalg‘isa bir umr kutgan o‘ljalaridan mahrum bo‘lishini yaxshi anglar edi. Hammasi u kutganday bo‘ldi. Obma bir nuqtaga tikilib turarkan, “Ko‘kkezar” uchun tayyorlab qo‘ygan pistirmasi ish berishidan umid qildi. Bir payt u o‘zlariga yaqin joyda juda g‘alati, yorqin bir gardishning hosil bo‘lganini ko‘rib qoldi. U o‘sha gardishga yaqinlashib bordi. Oradan bir daqiqa o‘tar-o‘tmas gardish ichidan “Ko‘kkezar” chiqib keldi. Obmaning askarlari po‘latdan yasalgan ulkan to‘r-qopqonni “Ko‘kkezar”ning ustiga tashlab, uni osongina tutib olishdi. Endi o‘ljani xoliroq joyga olib borib, keyin ularning masalasini hal qilish qolgandi, xolos.

– Ahmad, sen aqlliroqsan, biror chora o‘ylab top! – Margolning ko‘zlarida umidsizlik ko‘rina boshladi.

– Bilmadim, bilmadim! – Ahmad boshini changallagan-cha o‘tirib oldi.

Bu orada kema Koinot muzeyidan ancha uzoqlashib qolgandi.

– Hozir qochib qolmasak, aniq bilaman, bizni omon qo‘yishmaydi! – dedi Margol Ahmaddan najot kutganday.

– Bilmadim! Axir, o‘sha Obma minib olgan kema sizlarniki bo‘lsa... – Ahmad ozroq muddat bir nuqtaga tikilib qoldi. – Shoshmang, kema haqiqatda sizlarniki-ku!

– Ha-ha, bizniki...

– Moki, o‘sha kemaning kompyuteriga masofadan ulana olasanmi?

– Amallasa bo‘ladi, – javob berdi Moki.

– Unda urinib ko‘r. Siz esa, Margol, kompyuterning maxfiy parolini eslang.

– Qanday parol? Men hech qanday parolni bilmayman!

– Favqulodda vaziyatlarda ishlatiladigan maxsus parol bo‘lsa kerak, axir? Faqat salmirliliklar biladigan parolchi, bormi?

Margol ko‘zlarini katta-katta ochib angrayib Ahmadga qarab turardi. O‘zga sayyoraliklar bir narsani eslashga qattiq harakat qilsalar shunaqa g‘alati holatga kirib qolardi. Bu vaqt ichida Moki qo‘shni kema kompyuteriga ulanishni qoyilmaqom tarzda uddaladi.

– Men kompyuterga ulandim! Ammo u dasturga kirish parolini so‘rayapti.

– Ha, ha, to‘g‘ri aytasan, – qotib qolgan Margolning butun tanasi birdan qimirlashni boshladi. – Kirish paroli bor! Bu... bu “salmir-03101SQ89”.

Moki zudlik bilan Margol aytgan parolni kiritdi.

– Bo‘ldi, parol tasdiqlandi. Endi kema to‘liq bizning ixtiyorimizda, – dedi Moki qo‘llarini ko‘tarib. – Ammo shoshilish kerak. Ular ham kompyuterning himoya tizimini

buzib kirishlari mumkin. Lekin eng kamida besh daqiqa vaqtimiz bor.

– Tushunarli. Moki sen eng avval kemani to‘xtat. So‘ng esa hamma chiqish eshiklarini berkit!

Moki Ahmad aytganiday qildi. Salmir kemasi taqa-taq to‘xtadi. Obma va boshqa qaroqchilar nima bo‘layotganini tushunolmay qolishdi. Ular tez tashqariga chiqishmoqchi bo‘lishganida hamma eshiklar mahkam yopilib qolganini ko‘rishdi.

– Qani, Margol, skafandrni kiying, tashqariga chiqib po‘lat to‘rni lazer bilan kesib tashlaymiz, – dedi Ahmad qo‘liga lazer qurolni olib.

Ular eshikni ochib tashqariga chiqishdi. Ahmad uzoqdan Obmaning darg‘azab qiyofasini ko‘rib biroz qo‘rqdi. Ammo buni sezdirmadi. Obma shu paytda Salmir kemasining ulkan oynalaridan hammasini kuzatib turgandi. U qo‘llarini musht qilib Ahmadga o‘qtaldi. Ammo Ahmad ham bo‘sh kelmadi, qo‘lingdan hech narsa kelmaydi deganday qo‘l siltab qo‘ydi. Uning bu qo‘l siltashi Obmaning jon-jonidan o‘tib ketdi. G‘azablangan qaroqchining butun tanasi shishib, ustidagi kiyimlari va sovutlari har tarafga otilib ketdi. Gikslar o‘ta g‘azablanganida shunaqa shishib ketishardi. Bu Obmaning umri davomidagi birinchi shishishi edi.

Bu orada Margol chaqqon harakatlar bilan po‘lat to‘r halqalarini bir-bir kesa boshlagandi. To‘rt daqiqa o‘tganidan so‘ng Mokidan xabar keldi.

– Tezroq qimirlanglar! Ular parolni buzishga juda yaqin turishibdi.

– Hozir, bir-ikkita halqa qoldi, xolos.

Qahramonlarimiz “Ko‘kkezar”ni ozod qilishi bilan qaroqchilar ham parolni buzib Samir kemasini o‘t oldirishdi.

– Moki, bizni kutib o‘tirmay Koinot muzeyiga hayda! – qichqirdi Margol.

Moki kemandi bor quvvatini ishga solib sayyora tomon uchdi. Lekin tezkorlikda Salmir kemasi ham qolishmasdi. “Ko‘kkezar” gravitatsiya to‘lqinida emas, balki ochiq fazoda uchayotgani sabab qaroqchilar “Ko‘kkezar”ni izma-iz quvib kela boshlashdi. Ko‘p o‘tmay qaroqchilar o‘q uzishni ham boshlashdi. Kema bortida qolib ketgan va maxsus arqon bilan kemaga boylangan Margol va Ahmad ochiq fazoda piri-pirak bo‘lib uchib borishar, qaroqchilar otgan o‘qlar esa ularning shundoqqina yonidan o‘tib ketar edi.

Xayriyatki, fazodagi to‘qnashuvdan xabar topgan Koinot muzeyi harbiylari zudlik bilan chora ko‘rishdi. “O‘q uzishni to‘xtating, ogohlantiraman, o‘q uzishni to‘xtating” degan ovoz keldi yaqinlashib qolgan harbiy kemadan. O‘zlariga qarshi butun bir armiyaning oyoqqa turganini ko‘rgan qaroqchilar chekinishga majbur bo‘lishdi. “Ko‘kkezar”ni esa muzey harbiylari qurshab oldi.

## **BU NIMASI?**

Qaroqchilar Koinot muzeyidan 500 000 000 km uzoqlikda to‘xtashdi. Juda-juda darg‘azab bo‘lgan Obma o‘zini qo‘yarga joy topa olmay qolgandi. Zero, shu kunga qadar galaktika bo‘yicha hali hech kim uni bunchalik chuv tushirmagan edi. Doim istaganiga erishgan, hech qachon og‘zidagi oshini oldirib qo‘ymagan Obma bugun sharmanda bo‘ldi. Uni mittigina odam bolasi yengdi! “Bu nimasi, menga nima bo‘lyapti? – o‘z-o‘zini koyiy boshladi Obma. – Shu bir odamga bas kelolmasam-a! Nima, u mendan ham qudratliroqmi?! Meni ko‘rib hatto qo‘rqmadi ham, shunchaki qo‘l siltab qo‘ydi-ya! Yo‘q, buni shunday qoldira olmayman. Endi bir tomchi qonim qolgunicha

senga dushmanlik qilaman, odam bolasi”.

Obma shu zahoti Ragoni chaqirib dedi:

– Meni zudlik bilan Koinot muzeyi direktoriga ula. Unga aytadigan muhim gapim bor.

Rago xo‘jayinining aytganini qildi va tez orada xonadagi ulkan monitorda muzey direktori ko‘rindi.

– Salom, janob Obma, – direktorning bu kutilmagan aloqadan qattiq qo‘rquvga tushgani uning aft-angoridan bilinib turardi.

– Senda menga tegishli narsa bor!

– Sizni tushunmadim, siz olib kelgan narsalarning hammasi uchun pul to‘laganman-ku.

– Yo‘q, men yerlik odam va unga tegishli narsalar haqida gapiryapman.

– Kechirasizu janob Obma, ular bizning mehmonimiz.

– Yo‘q, kechirmayman, – o‘shqirdi Obma. – Hoziroq menga o‘sha odamni, kemani, xaritani va Duraduning qanotini topshirasan. Bo‘lmasa, sayyorangning kulini ko‘kka sovurib tashlayman.

Bu gaplarni eshitgan direktorning esi chiqib ketayozdi. Uning lablari qo‘rquvdan dir-dir titray boshladi.

– General, menga biroz vaqt bering, o‘ylab olay!

– Senga 30 daqiqa muhlat.

Aloqa tugadi...

## MUZOKARA

Direktor zudlik bilan xavfsizlik kengashini chaqirdi. Kengashda “Ko‘kkezar” fazogirlari ham qatnashdi.

– Hozir general Obma bilan gaplashdim, – gap boshladi yuzi oqarib, terlab ketgan direktor. – Obma sizlarni unga topshirishimni talab qilyapti. Agar uning talabini bajarmasam, Koinot muzeyiga hujum qilmoqchi.

– Nega endi?! Biz sizning mahbusingiz emasmiz. Biz erkin fazogirlarmiz, – e'tiroz bildirib boshladi Margol. – Siz qanotni olib, bizga va'da qilingan xarita bo'lagini topshiring. Bir daqiqada ko'zdan g'oyib bo'lamiz.

– Xo'sh, sizlar ketganingizdan keyin-chi? – o'rnidan turdi muzey qo'shini sarkardasi. – Bizning sayyora bir sayyohlik markazi, xolos. Katta qo'shin saqlamaymiz. Qaroqchilar o'n daqiqada muzeyimizni yakson qilib yuboradi.

– Sarkarda to'g'ri aytyapti. Bizning boshqa choramiz yo'q, Obma menga 30 daqiqa muhlat bergan, – dedi direktor.

– Qanday qilib? – ajablandi Ahmad. – U 30 daqiqadan so'ng hujumga o'ta olmaydi. U kichkinagina yulduzlararo uchar kema bilan sayyorangizni yakson qilib tashlaydimi?

– Ahmadning gapi to'g'ri, – dedi Margol. – Hozir qaroqchilar biz salmirliklarning ekspeditsiyalar uchun mo'ljallangan kemasida uchib yurishibdi. Ularning asosiy kemasi 800 yorug'lik yili uzoqlikda joylashgan. Bu yergacha ikki oyda yetib kelsa ham katta gap!

– Josuslar bu gapni tasdiqlaydi, janob direktor, – o'rnidan turib dedi boshqa bir harbiy.

– Menimcha, ularni qaroqchilarga topshirsak, juda katta xato bo'ladi, – endi qahramonlarimizga yordam bergan direktor kotibi ham o'rnidan turdi. – Agar galaktikada Koinot muzeyi rahbariyati kelgan mehmonlarni qaroqchilar qo'lga topshiribdi degan gap tarqalsa, hammasi tamom. Bizning muzeyga sayyohlar kelmay qo'yadi. Bankrot bo'lamiz!

Bu gapdan so'ng barcha majlis ishtirokchilari sergak tortib qoldi. Haqiqatan ham kotibning e'tirozi juda o'rinni edi.

– Unda nima qil deysiz? – jahl qildi direktor.

– Bizni qo'yib yuboring, – Ahmad gap boshladi. – Biz to'g'ri Miks sayyorasiga uchib, katta qo'shin bilan

qaytamiz. Qaroqchilar o‘zlarining asosiy kemalari bilan qaytib kelgunicha biz Miks qo‘shini bilan himoyalanişga ulguramiz.

– Miks qo‘shini bizga yordam berarkanmi? – ishonqiramadi direktor.

– Yo‘q, ular sizga emas, bizga yordam berishadi. Miks qo‘mondoni Dordon har qanday vaziyatda yordamga shay ekanini aytgan. U bir so‘zli harbiy.

Ahmadning taklifi bu vaziyatda eng ma‘quli edi. Direktor ham muzey, ham sayyohlar manfaatidan kelib chiqib bu taklifga ko‘ndi. Ammo ular katta qo‘shin bilan ortga qaytmaguncha xaritani bermasligi va adolat yuzasidan qanotni ham olmasligini aytdi.

“Ko‘kkezar” ekipaji majlis tugashi bilan Miks sayyorasiga uchib ketdi. Direktor 30 daqiqadan keyin Obma bilan bog‘lanib, xotirjam ohangda mehmonlarning qochib ketganini aytdi. Bir kunning o‘zida ikkinchi marotaba chuv tushgan Obma sharmandalarcha ortga qaytishga majbur bo‘ldi. Endi u Koinot muzeyiga qaroqchilarning katta qo‘shini bilan qaytishga qasd qilgandi.

## JANGGA HOZIRLIK

“Ko‘kkezar” to‘rt kun deganda Miks sayyorasiga yetib bordi. Qo‘mondon Dordon qahramonlarimizni iliq kutib oldi. Bo‘lgan voqealarni eshitib juda g‘azablendi. U qaroqchi gikslarga qarshi jang qilishga tayyor ekanini bildirib:

– O‘zi shu qaroqchilar sabab galaktika xalqlarining tinchi buzildi. Mayli, shu bahonada galaktikamiz bu kallakesarlardan xalos bo‘ladi, – dedi.

Qo‘mondon Dordon o‘zining 50 millionlik askari, 1 millionta harbiy kemasi va 30 millionta robot-droidi bilan jang qilishni rejalashtirgan edi. Ammo Miks qo‘shinida “Ko‘kkezar”dek kema yo‘qligi sababli Dordon Koinot muzeyiga faqat ikki oydagina yetib borishi mumkinligini aytdi. Bu muddatni oldindan bilgan Ahmad va Margol e’tiroz bildirishmadi. Chunki Obma salmirliliklar kemasida o‘z qarorgohiga qaytib borib, qo‘shini bilan Koinot muzeyiga kelgunicha uch oyga yaqin vaqt kerak bo‘ladi. Bu vaqt ichida Miks qo‘shini Koinot muzeyiga yetib borib, jang oldidan yaxshilab tayyorgarlik qilib olishi ham mumkin edi.

Bir oy deganda g‘azab otiga mingan Obma ham o‘z qarorgohiga yetib keldi. U Koinot muzeyida Miks qo‘shini bilan jang qilishini hali bilmasdi. Shu sababli unga raqiblari juda ojizdek ko‘rindi. Lekin, baribir, bor kuchi bilan jangga kirishga qaror qildi. Chunki uning raqibi – odam bolasi juda “ayyor”, aytish mumkinki, Obma shu kungacha bunday jiddiy raqibga duch kelmagan edi. “Ikki marta meni dog‘da qoldirgani yetar. Bu safar uni tiz cho‘ktirmasam, qo‘shinim mendan yuz o‘girishi aniq”, – deb o‘yladi Obma. U o‘zining qirq millionlik qaroqchi-qo‘shini, bir millionta kemasi va oltmish millionta vahshiy robot-droidlari bilan jangga otlandi.

Koinot muzeyining ham ixcham qo‘shini bor bo‘lib, bu qo‘shin ixtiyorida besh millionta askar, uch yuz mingta kema va ikki millionta robot-droid bor edi.

Ikki oydan so‘ng Miks qo‘shini Koinot muzeyiga yetib keldi. Qo‘mondon Dordon va muzey direktori o‘zaro ittifoq tuzib, jang rejasini kelishib olishdi. Oradan bir oy o‘tib josuslar qaroqchi gikslarning ham yaqinlashib qolganligi haqida xabar berdilar.

Hademay Somon yo‘li galaktikasida misli ko‘rilmagan



katta jang boshlanishi tayin edi. Bunday katta ko‘lamdagi jang hali galaktika tarixida bo‘lmagandi.

## **GALAKTIKA URUSHI**

Miks va Koinot muzeyi qo‘shinidan tashkil topgan ittifoqchilar jang vaqtida sayyohlarni bezovta qilmaslik maqsadida qaroqchilarni sayyoradan besh million km uzoqlikda kutib oladigan bo‘lishdi. Jang rejasiga ko‘ra ittifoq qo‘shini uchga bo‘lindi. Qaroqchilarni esa shu qo‘shinning faqat bir qismi bilangina kutib olishga kelishildi. Chunki hali Miks qo‘shinidan bexabar bo‘lgan Obma juda ko‘p jangchilarni ko‘rib ortiga qochib qolishi ham mumkin. Shu sababli ittifoqchilar avvaliga Obmani jangda mutlaq ustun ekaniga ishonitirishmoqchi. Shunday qilinsa, raqibini mensimagani Obma puxta reja tuzib o‘tirmaydi.

Xavfsizlik nuqtayi nazaridan “Ko‘kkezar” ekipaji jangga kirmay, jarayonni uzoqroqdan kuzatib turadigan bo‘ldi.

Ittifoqchilar kutganiday, belgilangan joyga yetib kelgan Obma manmanlik qilib to‘satdan hujumga o‘tdi. Qaroqchilar P-2 nomli eng kichik harbiy kemalari bilan urushga kirishdi. Bu harbiy kemalar ko‘rinishidan dazmolga o‘xshab ketardi. Kichkina bo‘lishiga qaramay, kuchli lazer quroli bilan jihozlangan kemalar dushmanga katta talafot yetkazishi mumkin edi. Shunday bo‘ldi ham. Ko‘p o‘tmay himoya tizimlarini osongina yorib o‘tishga va o‘qlarga chap berishga moslashgan P-2 kemalari ittifoq qo‘shiniga jiddiy tahdid sola boshladi. Katta kemalarning tom qismiga o‘rnatilgan pulemyotlar esa ularni deyarli urib tushira olmay qoldi.

Aslida, bu ham ittifoq rejasining bir qismi edi. Ular jang boshlanishida dushmanga yon berishni oldindan reja

qilib qo'yishgan. Bundan maqsad Obmani to'liq hujumga o'tishga chorlash bo'lgan. Shuning uchun qo'shinning bu qismi jonli askarlardan emas, balki faqat robot-droidlardan tashkil topgandi. Obma har qancha kuchli zarba bermasin, hali birorta askarga zarar yetkaza olmagan edi.

Dastlabki hujumdayoq qo'li baland kelayotganidan g'ururlangan Obma asosiy kuchlarni ham jangga tushira boshladi. Bu orada ittifoq qo'shini ham Rutuy nomli qiruvchi kemalarni qaroqchilarga qarshi uchira boshladi. Rutuylar ham bir uchuvchilik ixcham kema bo'lib, ular P-2 kemalarini ta'qib qila boshladi.

Obmaning qudratli kemalari esa ittifoq qo'shini tomon dahshatli raketalarni uchirdi. Ittifoqchilar tezda himoya chorasini ko'rishdi. Ular raketalarga qarshi ko'ptokka o'xshash nurlarni otishdi. Bu nurlar xuddi sovun pufagiday raketalarni o'rab olardi. Raketa esa shu pufak ichida portlab zararsizlantirilardi. Ammo ayrim raketalar himoya tizimiga chap berib markazda turgan katta kemalarga borib urildi. Bir kema butunlay portlab ketdi. Yana ikkitasi yaroqsiz holatga kelib qoldi. Bundan ruhlangan Obma sarkardalariga to'liq kuch bilan hujumga o'tishni buyurdi. Endi qaroqchilarning butun qo'shini oldinga siljiy boshladi. Voqeani kuzatib turgan qo'mondon Dordon ana endi asosiy hujumning vaqti kelganini angladi. Ittifoqchilarning sayyora ortiga yashirinib olgan ikki qo'shini dushmanni o'ng va chap tarafdin aylanib o'tib, qurshab oldi. Bu qaroqchilar uchun umuman kutilmagan hol edi. Buncha katta qo'shinni ko'rgan kallakesarlar esankirab qolishdi. Dushmanning sarosimaga tushganidan foydalanib ittifoq qo'shini barcha kuchlari bilan hujumga o'tdi.

Jang boshlanganiga 24 soat bo'lganiga qaramay, Obma qo'shinining hali yengilgisi kelmasdi. Ammo qaroqchilar qanday kuchli, qanday dahshatli qurol ishlatmasin, baribir,

ittifoqning himoya tizimini yorib o‘ta olmadi. Ittifoqchilar uchirgan raketalar esa dushman qo‘shinidagi kemalarni birma-bir yakson qildi. Jang boshlanganiga 36 soat bo‘lganida Obma qo‘shinining yengilishi aniq bo‘lib qoldi. Ko‘pchilik qaroqchilar oq bayroq ko‘tarib yengilganini tan olishdi. Ammo ayrim qaroqchilar qochib qolishga ham ulgurdi.

Shu payt jangni kuzatib turgan Ahmad Obmaning boshqa bir kemaga minib qochishga harakat qilayotgani ko‘rib qoldi. Ahmad bu haqida tez Dordonga xabar berdi:

– Qo‘mondon, Obma sezdirmay jang maydonidan qochishga urinyapti. U hozirgina o‘z kemasidan tushib, chap qanotdagi jigarrang kemaga mindi.

– Ahmad, tushunarli. Hoziroq uni ta‘qib qilishni boshlaymiz.

Lekin Ahmad va Margol buni kutib o‘tirmay “Ko‘kkezar” bilan o‘sha jigarrang kemani o‘zlari quva boshladilar. Jigarrang kema jang maydonidan qochib chiqqanidan so‘ng katta tezlik bilan uchib keta boshladi. “Ko‘kkezar” ham uning ortidan izma-iz quvardi. Sal orqaroqda esa Dordonning shaxsiy kemasi ham ular tomonga kelayotgan edi. Jigarrang kemaning ta‘qibi bir necha soatga cho‘zilib ketdi. Bu orada Dordonning shaxsiy kemasi “Ko‘kkezar”dan ham oldinroqqa o‘tib olib, Obmaning kemasiga o‘q uza boshladi. Obma bu ketishda uzoqqa bora olmasligini tushundi, shekilli, Rigel yulduzi tizimining so‘nggi sayyorasi Xokidga qo‘ndi.

Xokid o‘lik sayyora bo‘lib, unda bu yerda yashagan qadimgi xalqlardan qolgan turli tashlandiq obidalar ko‘p edi. Obma oltita qo‘riqchisi bilan ana shu tashlandiq binolarning biriga kirib yashirindi.

Qo‘mondon Dordon boshchiligidagi o‘n beshta miksluk askar va bizning fazogirlar Obma yashiringan binoni yarim

kun davomida izlashdi. Axiyri u berkingan joy aniqlandi. Miks askarlari binoni har tarafdan qurshab olishdi. Ammo Obma taslim bo'lgisi kelmay bino tepasidan turib o'q uza boshladi. Hatto ular otgan o'q ikki mikslilik askarni yaraladi.

– Yo'q, bu turishda boshqa askarlarim ham yaralanadi yoki nobud bo'ladi. Yaxshisi, binoning ichiga bostirib kirib, qo'qqisdan hujum qilamiz, – dedi Dordon.

– Men ham sizlar bilan boraman, – dedi Margol qurolini ko'tarib. – Ahmad, sen shu yerdan bir qadam ham jilmay tur. Ichkariga kirish sen uchun juda xavfli.

Ahmad shunday qildi. Qolganlar, hatto Moki ham bino ichiga kirib ketdi. Ko'p o'tmay o'q ovozlari eshitila boshladi. Uzoq davom etgan otishma birdan to'xtab qoldi. Ahmad biznikilar g'olib bo'lishgandir, hozir chiqib qolishadi deb kutib turdi. Ammo hadeganda ular chiqishmadi. Yarim soat o'tganidan so'ng Ahmad noiloj bino ichiga kirib, tepadagi qavatlariga ko'tarila boshladi. U tepaga ko'tarilarkan, jonsiz yotgan bir nechta qaroqchiga ko'zi tushdi. Ahmad sira tushunolmasdi. Qaroqchilarning bari o'lgan bo'lsa, nega biznikilar tezroq tusha qolmaydi deb o'ylardi u. Ahmad bino bo'ylab yanada yuqoriga chiqarkan, tepadagi qavatdan shovqin eshitildi. Kimdir: "Joyingdan qimirlama, yo'qsa, otaman", – deb baqirar edi. Ahmad oyoq uchida tepaga ko'tarilib, shovqin bo'layotgan xonaning ochiq eshigidan asta mo'raladi. Bu Obmaning tovushi edi. Obma Margolning bo'ynidan changallab olganicha to'pponchasini uning boshiga tirab turardi. Qolganlarga esa: "Yaqinlashma, yo'qsa, uni otib tashlayman", – deb tahdid qilayotgan edi.

Vaziyatni to'liq tahlil qilib olgan Ahmad jim qarab turib bo'lmasligini angladi. U qo'lga katta g'isht bo'lagini olib Obmaning ortidan unga yaqinlashdi. Old tarafda Ahmadni ko'rib turganlar yuraklarini hovuchlagancha vaziyatni

kuzatar edilar. Qahramonimiz Obmaga yaqinlashib borib, bor kuchi bilan uning boshiga g‘ishtni otdi. Ammo bir bo‘lak g‘ishtning zarbasi Obmaning fildek gavdasiga ta‘sir ham qilmadi. Cho‘chib ketib ortiga o‘girilib qaragan Obma Ahmadni ko‘rdi.

– Ha, tirmizak, hali senmi menga qo‘l ko‘targan!

Obma qurolini Ahmadga o‘qtalib uni otmoqchi bo‘ldi. Shu payt Margol vajohat bilan Obmaga tashlandi. Uni ko‘tarib siltadi va yon tarafdagi devorga qattiq urdi. Bu orada Dordon ham yugurib kelib gurzisi bilan Obmaning boshiga kuchli zarba berdi. Bu zarbadan so‘ng qaroqchilar boshlig‘i yiqildi qoldi.

Shundan so‘ng ular hushsiz yotgan Obmaning qo‘l-yog‘ini bog‘lab ortga qaytishdi. Yetib kelishganida jang allaqachon yakuniga yetgan va qaroqchilar taslim bo‘lishgan ekan. Qaroqchilarning bari direktor buyrug‘iga binoan hibsga olingandi.

Direktor qaroqchi Obmani shu joyning o‘zida otib tashlash kerak deb turib oldi. Ammo qo‘mondon Dordon bunga ko‘nmadi, “Bu kallakesarga qanday jazo berilishini Galaktika Oliy sudi hal qiladi”, – dedi qat‘iy ohangda.

Obmani zindonband qilishlaridan oldin Ahmad unga yaqinlashib bo‘ynidagi tumorni uzib oldi. Bu o‘sha ular izlayotgan xarita bo‘lagi edi.

– Seni imkoniyatim bo‘lganida Miks sayyorasi yaqinida tutib olmaganimdan afsusdaman. Aslida, seni o‘shandayoq gumdon qilishim kerak ekan, – dedi Obma Ahmadga qahrli tikilib.

Ahmad esa uning qahrli ko‘zlariga xotirjam boqdi:

– Ha, lekin unday qila olmading. O‘z nafsingning qurboni bo‘lding. Bilib qo‘y, hech qanday yomonlik jazosiz qolmaydi!

U shunday deb ortiga o‘girildi. Obmani esa olib ketishdi.

Miks harbiylari qo'lga tushgan mahbuslarni birma-bir ro'yxatga olisharkan, Obmaning eng ishongan sarkardasi Ragoning jang tugamasdan burun Salmir kemasiga minib qochib qolgani ma'lum bo'ldi. Xayriyatki, u salmirlik tutqunlarni qoldirib ketgan ekan. Xoynahoy, u tutqunlarni o'zi uchun ortiqcha yuk deb bilgan bo'lsa kerak. Ustiga-ustak, Rago yolg'iz o'zi qochmagan, o'zi bilan eng ashaddiy kallakesarlarini ham olib ketgan edi.

Sillasi qurigan salmirlik olimlar esa zudlik bilan shifoxonaga yotqizildi. Ularning ayrimlari juda og'ir ahvolda edi. Chunki qaroqchilar ularni bir necha oy davomida qattiq qiynoqqa solishgan va ochlik bilan jazolashgan. Margol ozib-to'zib ketgan kapitan Gedar Vu bilan ko'rishdi. Kapitan bo'lib o'tgan voqealarda Margolning qo'li borligini, bularning bari, aslida, Salmir sayyorasini qutqarish uchun qilinganini eshitib juda quvondi. O'sha kuni zaxira kapsulasida o'zi yoki boshqa olimni emas, aynan Margolni uchirganida xato qilmaganini tushunib yetdi. Margol esa kapitan bilan keyingi rejalarini o'rtoqlashdi. Ahmad haqida so'zlab berdi. Nasib qilsa, ular sog'ayib, oyoqqa turib olgunlaricha xaritaning to'rtinchi bo'lagini ham topishini, so'ng Katta Magellan bulutiga uchib u yerdan N<sub>2</sub>G ni topib kelishini aytdi.

## **TO'RTINCHI BO'LAKNI QIDIRIB**

Jangdan keyin muzey direktori qahramonlarimizga Duraduning qanoti evaziga va'da qilingan xarita bo'lagini topshirdi. Ahmad shu zahoti uchta xaritani birlashtirib ko'rdi. Qora rangli mato bo'laklari bir-biriga shunchalar mos keldiki, xato ulanganda choklari sezilmadi. Ammo dumaloq matoning o'rtasida tangadek keladigan joy ochiq

qolgandi. Bu joy xaritaning to‘rtinchi bo‘lagiga tegishli edi.

Shu kuni qahramonlarimiz o‘zlari uchun ikki kunlik ta’til e’lon qilishdi. Ular bu ikki kun davomida Koinot muzeyidagi turli ajoyibotlarni ko‘rishdi, ko‘ngilochar bog‘larda miriqib hordiq chiqarishdi. Ta’tildan so‘ng ular qo‘mondon Dordon va muzey direktori bilan uchrashishdi.

– Mana, sizning qo‘lingizda koinot xaritasining uchta qismi yig‘ildi, – salmoq bilan gap boshladi Dordon. – Aslida, men koinot himoyachisi sifatida bunga yo‘l qo‘ymasligim kerak. Zero, ajdodlarimiz bu xarita bo‘laklarining yana yig‘ilishini sira istashmagan. Bordi-yu xarita yovuz kuchlarning qo‘liga tushib qolsa bormi, hammasi tamom!

Bu gaplardan Margol va Ahmadning rangi oqara boshladi. Nahotki, bu ikki rahbar bir bo‘lib ulardan shuncha mashaqqat bilan erishilgan xaritani tortib olishsa? Yo‘q, bunga aslo ko‘nib bo‘lmaydi.

– Biz qo‘mondon Dordon bilan kelishib, – endi direktor so‘zga kirdi, – sizlarni yolg‘iz qo‘ymaslikka qaror qildik.

Qahramonlarimiz endi yengil nafas ola boshladilar. Xayriyatki, ularning maqsadi boshqa ekan.

– Ha, bundan keyin men o‘zinning shaxsiy kemam va xos askarlarim bilan sizlarga hamrohlik qilaman. N<sub>2</sub>G ni topib, Salmirni halokatdan qutqarguningizcha mening nazoratimda bo‘lasiz. Safar so‘ngida esa xaritani o‘zimga qaytarib berasiz.

– Juda yaxshi, biz qarshi emasmiz, to‘g‘rimi, Ahmad? – Margol Ahmadga yuzlandi.

– Albatta, qo‘mondonning kemasi “Ko‘kkezar”ga shatakka olinsa bas.

– Unday bo‘lsa, qiladigan ishlarimizni kelishib olsak, – dedi Dordon Ahmadga savolomuz boqib.

Lekin hozirgi vaqtda na Ahmadda va na Margolda biror reja bor edi. Chunki xaritaning to‘rtinchi bo‘lagi dom-

daraksiz yo‘qolgan. Million yillar oldin meriyalik olimlar uni juda maxfiy tarzda yashirib qo‘yishgan. Hozirga kelib qadimgi meriya xalqi yo‘q bo‘lib ketgan. Ularning yashirin faoliyatidan xabardor biror jonning borligi esa katta shubha ostida edi. Shuning uchun qahramonlarimiz to‘rtinchi bo‘lakni topish oson bo‘lmasligini, ularni hali oldinda juda og‘ir sinovlar kutayotganini yaxshi his qilib turishgan edi.

Kutilganidek, to‘rtinchi bo‘lakni qidirish jarayoni qiyin kechdi. Mana, bir necha oy o‘tsa hamki, xaritadan biror darak yo‘q. Bu vaqt oralig‘ida fazogirlarning galaktikada bormagan joyi deyarli qolmadi. Tarixchilar, yozuvchilar, etnologlardan<sup>1</sup> so‘rab-surishtirishdi, ammo birorta kimsadan jo‘yali ma‘lumot chiqmadi.

Shunda Ahmad va Margol koinot o‘tmishini boshqalardan yaxshiroq biladigan galaktikadagi eng kuchli tarixchini topib u bilan suhbatlashishga qaror qilishdi. Endi ular ko‘proq o‘sha tarixchini qidirishga vaqt sarflay boshladilar. Yaxshi tarixchilarni esa galaktikaning eng qadimiy yulduzlari yaqinidan topish mumkin edi. Sababi, bunday yulduzlar tizimidagi sayyoralarda galaktikaning eng qadimiy xalqlari yashar, bu xalqlar koinotda sodir bo‘lgan barcha voqealardan xabardor bo‘lib turar edilar.

– Xo‘sh, o‘sha qadimiy yulduzni qayerdan topamiz? – so‘radi bir kuni qidiruv ishlaridan charchagan Dordon.

– Bunday yulduzlar galaktikamizda ko‘p bo‘lsa kerak, – javob berdi Ahmad. – Masalan, 2014-yilda yerlik olimlar galaktikadagi eng qari yulduzning birini aniqlashgan.

---

<sup>1</sup> Etnolog – jahon xalqlarining kelib chiqish tarixi, madaniyatini o‘rganuvchi mutaxassis.



Bu yulduzning yoshi 13,5 milliard yilga teng, “Katta portlash”dan ko‘p o‘tmay paydo bo‘lgan. Yulduz Yer sayyorasidan 6000 yorug‘lik yili uzoqlikda joylashgan. Yulduzlar qarigani sari kichrayib, soviy boshlaydi va o‘zidan juda kam yorug‘lik nuri chiqaradi. Keksa yulduzlarni shu jihatiga qarab ham aniqlab olish mumkin.

– Yo‘-o‘q, – e‘tiroz bildirdi Margol. – Bizga undan ham qari yulduz kerak. Aytishlaricha, bunday kekse yulduzlarni faqat galaktikamizdagi ikkinchi Qora tuynuk yaqinidan topish mumkin ekan...

\*\*\*

*Suv to‘ldirilgan hovuzda hosil bo‘lgan girdobni ko‘rganmisiz? Bu girdob suvga qo‘shib undagi hamma narsani yutib ketishi mumkin. Bilasizmi, koinotda ham ana shunday “girdob”lar mavjud. Olimlar bu “girdob”larni Qora tuynuk deb atashadi.*

*Qora tuynuk olamdagi eng sirli, eng g‘aroyib jism hisoblanadi. U tim qora ko‘rinishda bo‘lib, ulkan yulduzning portlashidan so‘ng yuzaga kelgan. Qora tuynuk koinotdagi yulduzlarni, sayyoralarni, hatto yorug‘likni ham so‘rib oladi. Uning ichiga tushgan narsa izsiz g‘oyib bo‘ladi. Ba‘zi olimlar Qora tuynukni koinotning darchasi deb hisoblashadi. Ya‘ni bu tuynukdan boshqa sirli olamga o‘tish mumkin ekan. Lekin haligacha bu g‘aroyib tuynukning asl siri aniqlanganicha yo‘q.*

*Qora tuynuk judayam zich, judayam qudratli yulduzdir. Tasavvur qiling, no‘xatday keladigan Qora tuynuk Yer sayyorasini osongina yutib yuborishi mumkin.*

*Bizning Somon yo‘li galaktikamiz markazida ham Qora tuynuk mavjud. Shu g‘aroyib tuynuk bo‘lmaganida, bizning galaktika koinotga sochilib ketgan bo‘lar edi. Barcha yulduzlar qatori Quyoshimiz ham Qora tuynuk atrofida aylanib turadi.*

*2016-yilda bir guruh yapon astrofiziklari olamshumul kashfiyot qilishdi. Ular galaktikamiz markaziga yaqin joyda yana bir kichikroq Qora tuynuk bor ekanini aniqlashdi. Bizning qahramonlarimiz esa shu ikkinchi Qora tuynuk tomon yo'lga o'tlanishgan edi.*

Fazogirlar uzoq vaqt davom etgan bahsdan keyin bir to'xtamga kelishdi. O'sha kuni Dordonning shaxsiy kemasi tag'in "Ko'kkezar"ga ulandi. Kemalar suv, oziq-ovqat, kislorod va turli uskunalar bilan to'ldirilib, uzoq safarga hozirlik ko'rildi. Ertasiga Qora tuynuk tomon uchib ketishdi.

Bir necha haftaga cho'zilgan qidiruv ishlaridan keyin Qora tuynuk yaqinida kichikroq bir yulduz borligi aniqlandi. Bu yulduz deyarli so'nib bo'lgan, o'zidan juda past harorat va kuchsiz yorug'lik taratib turardi. Moki yulduzning nurlarini kompyuterda tahlil qilib, uning yoshi naq 13 milliard 600 millionda ekanini aniqladi. Tez orada bu yulduz yaqinida judayam qadimiy Batkech nomli sayyora ham borligi ma'lum bo'ldi. Bu voqea esa fazogirlar qalbida yana umid uchqunlarini paydo qildi.

Batkech sayyorasida galaktikada saqlanib qolgan eng qadimgi batke xalqi yashar edi. Batkech ancha sovuq va qorong'i sayyora bo'lib, ko'p shaharlari xarobaga aylanib ketgan. Aholi ham juda kam – ko'pchilik sayyorani tashlab ketgan yoki og'ir sharoitga dosh bermay nobud bo'lgan edi.

Fazogirlar surishtira-surishtira bir qari tarixchining uyini topib kelishdi. Tarixchi juda kichkina gavdali, shalpillagan quloqlari uzun, juda qarib ketganidan yuzi burishib osilib qolgan, munchoqdek kichkina ko'zlaridan boshqa narsasi ko'rinmasdi. Avvaliga tarixchi ularni uyiga kiritmadi. Ammo Dordon unga yegulik va suv va'da qilganidan so'ng mehmonlarni ichkariga chorladi. Tarixchining aft-angoriga boqib uning juda qari ekani va sillasi quriganini sezish qiyin

emasdi. U Dordon bergan yegulikni yeb, suvdan ichganidan so‘ng biroz tetiklashdi. Hammaga bir-bir razm solib chiqdi.

– Nega keldingiz? – so‘radi tarixchi.

– Koinot xaritasining izsiz yo‘qolgan to‘rtinchi bo‘lagini qidirib yuribmiz, – javob berdi Dordon. So‘ng shu kungacha bo‘lib o‘tgan voqealarni qisqacha so‘zlab berdi.

– Bitta kitob yozsa bo‘ladigan tarixiy voqealar sodir bo‘libdi-ku. – Yuzini burishtirib jilmayishga harakat qildi tarixchi. – Ammo men o‘sha kitobni yozmayman. Menga endi tarixning qizig‘i qolmadi. Chunki hammasi bir chaqaga qimmat narsalar ekanini anglab yetganimga ham bir asrdan ko‘p bo‘ldi. Baribir, asl tarixni hech kim yozmaydi, hatto bilmaydi, bilolmaydi ham... – Tarixchi yana bir nimalar dedi, ammo uning so‘nggi gaplariga tushunishning sira imkoni bo‘lmadi. Keyin u bir nuqtaga qarab turib qoldi. So‘ng dedi: – Siz bormoqchi bo‘lgan o‘sha Oltin baliq yulduzi koinotda borligini aniq bilasizmi o‘zi?

– Bu nima deganingiz, ana, osmonda yaraqlab turibdi-ku! – hayron bo‘ldi qo‘mondon.

– Har doim ham ko‘rgan narsalarimiz haqiqat bo‘lavermaydi. Siz ko‘rayotgan o‘sha nur yulduzdan qolgan sharpa bo‘lsa-chi?!

– Sharpa deysizmi?!

Bir qarashda tarixchining savollari ahmoqona tuyulishi mumkin. Ammo bu savollar chindan-da asosli edi...

\*\*\*

*Siz osmonda ko‘rgan yulduzlarning hammasi ham mavjud bo‘lavermaydi. Ya‘ni, aslida, ular yuz yillar oldin so‘nib qolgan bo‘lishi ham mumkin. Juda qiziq, shunday emasmi? Buni tushunish uchun yorug‘likning tezligi haqida bilim kerak bo‘ladi.*

*Yerga eng yaqin yulduz Quyoshdir. U bizdan o‘rtacha*

*150 million km uzoqlikda joylashgan. Yorug'lik nuri esa bir soniyada 300 ming km masofani bosib o'tadi. Demak, Quyoshdan taralgan nur Yergacha sakkiz daqiqada yetib keladi. Ya'ni siz ko'rib turgan yorug'lik Quyoshdan shu zahoti emas, balki sakkiz daqiqa ilgari yo'lga chiqqan.*

*Al-Toyir yulduzi ham Yerga eng yaqin yulduzlardan biri hisoblanadi. Undan taralgan nur bizga o'n olti yilda yetib keladi.*

*Koinot esa juda-juda katta. Ba'zi yulduzlarning nuri Yergacha million, hatto milliard yildagina yetib kelishi mumkin.*

*Endi o'zingiz tasavvur qiling: vaqti kelib biror yulduz portlasa va mayda-mayda zarralarga aylanib yo'q bo'lib ketsa, biz buni shu zahoti ko'ra olamizmi? Yo'q, albatta! Yulduz portlaguniga qadar taratgan nurlarni biz yana million yillar davomida ko'rib turaveramiz. Ya'ni biz uning portlaganini million yildan keyin bilamiz! Demak, ba'zan osmonda yulduzni emas, uning sharpasini ko'ramiz, xolos.*

– Yo'q, biz bormoqchi bo'lgan yulduz aniq mavjud, – dedi Ahmad suhbatga qo'shilarkan. – Ko'rinishiga qaraganda, u hali yosh yulduz – yana bir necha milliard yil davomida nur sochib turadi.

– Ha, shunaqami? – tarixchi kutilmaganda chaqqonlik bilan bo'ynini ikki metrga cho'zib, boshini Ahmadga juda yaqin olib keldi. – Demak, sen ekansan-da bu tarixiy voqealarning boshida turgan odam bolasi?

– Men shunchaki... salmirliklarga yordam bermoqchi bo'ldim, xolos, – dedi biroz dovdirab qolgan Ahmad bunga javoban.

– Bo'ldi, bas! – qo'mondonning jahli chiqdi. – Siz o'zi bizga yordam berasizmi-yo'qmi?

– Yo‘q, men xaritaning qayerda ekanini bilmayman. Uni o‘sha xaritani tuzgan yosh yigit galaktikaning qaysidir burchagiga yashirib, so‘ng ortga qaytayotganida kemasidan ayrilgan, keyinroq o‘zi ham halok bo‘lgan.

– Nega u o‘zi yaratgan xaritani bunchalik sir saqlagan?

– Meriyaliklar koinotdagi eng qadimgi xalq bo‘lgan. Ular ilm-fanda juda taraqqiy etishgan. Aslida, xaritani meriyalik olimlar emas, bir o‘spirin bola tuzib chiqqandi. U favqulodda o‘tkir zehni bo‘lib, kattalar bilmagan narsalarni bilardi. Hatto misli ko‘rilmagan katta tezlikda uchadigan Duradu kemasini ham o‘sha bola yasagan. Bola Duraduga minib butun galaktikani aylanib chiqqan va mukammal xarita yaratgan. Ammo kutilmaganda uning xaritasidan yovuz kuchlar xabar topadi. Ular xaritani ko‘lga kiritib galaktika bo‘ylab bosqinchilik, xunrezlik qilishni rejalashtiradi. Shunda bola meriyalik olimlar bilan kelishib, xaritani to‘rt qismga bo‘lib tashlaydi. Elchilar xaritaning uchta qismini olib galaktikaning uchta tarafiga qarab ketgan. Qolgan bitta qismni esa bola o‘zi shaxsan yashirishga qaror qiladi. U xaritani olib uzoq safarga chiqadi. Ammo ortga qaytmaydi. Xullas, bola bu sirni o‘zi bilan olib ketgan.

Tarixchining hikoyasidan so‘ng Margol va Ahmad tushkunlikka tushib qoldi. Rostdan ham tarixchi aytgan gaplar to‘g‘ri bo‘lsa, endi xaritani izlash befoyda edi. Ularning qalbidagi umid chirog‘i deyarli so‘nib qolgandi.

– Lekin sizlar xaritani qidirishdan to‘xtamang. Sezib turibman, shu odam bolasining taqdiriga Salmir sayyorasini halokatdan qutqarish bitilgan. Yo‘qsa, sizlar bu yergacha yetib kela olmagan bo‘lardingiz, – tarixchi shunday deb biroz o‘ylanib qoldi. – Siz Qutb yulduziga uchding. U yerda Koinot kutubxonasi bor. Kutubxonaning keksa xodimi Ko‘rsichqon ko‘p narsani biladi. U kutubxonadagi barcha kitobni o‘qib chiqqan. Lekin uning ko‘zi ko‘rmaydi, qulog‘i

esa deyarli eshitmay qolgan. Ammo o'sha Ko'rsichqondan biror jo'yali gap chiqishi aniq!..

## KOINOT KUTUBXONASI

\*\*\*

*Qadimda dengizchilar yoki sahrodagi karvonlar yulduzlarning joylashishiga qarab yo'lni aniqlashgan. Yulduzlarni o'rganib, ularning xaritasini chizib beradigan kishilarni esa munajjim deb atashgan.*

*Bilasizmi, yulduzlarning ham "yulduzi", ya'ni mashhurlari bo'ladi. Qutb yulduzi ana shundaylardan biri. Chunki u o'tgan davrlar mobaynida ko'plab adashganlarga yo'l ko'rsatib, o'z manzillariga eson-omon yetib olishlarida ko'makchi bo'lgan.*

*Qutb yulduzi osmondagi eng yorqin yulduzlardan biri bo'lgani uchun uni topib olish qiyin emas. Olimlarning aytishicha, kunlar, oylar, ba'zan yillar o'tishi bilan yulduzlarning samodagi o'rni o'zgarib turar ekan. Faqatgina Qutb yulduzi o'z joyidan hech qachon jilmaydi, doim osmonning shimoliy qismida yaraqlab turadi. Shunday o'ziga xos xususiyati tufayli sayyohlar Qutb yulduziga qarab shimol, janub, sharq va g'arbni aniqlay olishgan.*

*Qutb yulduzi Katta ayiq yulduz turkumiga kiradi. U Quyoshdan 120-marta katta bo'lib, 10 ming marta kuchliroq nur taratadi. Odamlarga yo'l ko'rsatib turgani uchun uni "Yo'lchi yulduz" deb ham atashgan. Juda olisda bo'lgani bois ushbu yulduz nurlari Yergacha 472-yilda yetib keladi.*

Bu galgi safardan Ahmadning umidi katta. Chunki Qutb yulduzining ikkinchi nomi “Yo‘lchi yulduz” edi. Balki, shu yulduz haqiqatda qahramonlarimizga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatar? Ahmad shu haqida o‘ylarkan, ko‘ngli yorishib ketdi. Uning nazarida, Koinot kutubxonasining ayni shu yulduz yaqinida joylashganida o‘ziga xos ma’no, hikmat borday edi.

Koinot kutubxonasi xuddi Koinot muzeyi kabi butun bir sayyoradan tashkil topgan bo‘lib, sayyoradagi har bir bino kutubxonaning bir qismi edi. Bu binolarda milliard yillar davomida koinotda nashr qilingan barcha kitoblar saqlanadi. Hatto Yerda chiqarilgan kitoblarni ham bu joydan osongina topish mumkin.

Biznikilar izlayotgan Ko‘rsichqon nafaqat kutubxonaning, balki galaktikaning eng qari maxluqlaridan edi. Uni topish qiyin bo‘lmadi. Ko‘rsichqon markaziy binoning o‘quv zalida mutolaa bilan band ekan. Biznikilar uni ko‘rib hayratdan yoqa ushlab qoldilar. Chunki Ko‘rsichqon kitobni ko‘zi bilan emas, balki qo‘llari bilan o‘qirdi. Yo‘q, bu ko‘zi ojizlarga mo‘ljallangan braylcha yozuvdagi kitob emasdi. U oddiy kitobni paypaslagancha o‘qirdi.

Qahramonlarimiz Ko‘rsichqonga qanchalar baland ovozda salom berishmasin, u pinagini buzmadi. Axiyri qo‘mondon Dordon uni turtib mutolaadan to‘xtatdi. Salom-alikdan keyin muddaoga o‘tildi:

– Sizning oldingizga juda uzoqdan uchib keldik. Biz galaktika xaritasining to‘rtinchi qismini qidiraypmiz. Bizga yordam bering.

So‘ng ko‘rsichqon ular qayerdan qanday kelganini va xarita nima uchun kerak ekanini so‘radi. U mehmonlar ichida yerlik odam borligini eshitib quvonib ketdi.

– Yer, odamlar haqida ko‘p o‘qiganman. Ayniqsa,

Arastu, Beruniy va Nyutonning kitoblarini o‘zgacha zavq bilan mutolaa qilaman, – dedi yon-atrofnı burnı bilan iskab Ahmadni topib olgan Ko‘rsichqon. – Siz izlayotgan Moviy tosh galaktikadagi eng noyob va eng sirli modda hisoblanadi. Shuning uchun uni koinot javohiri deb ataydilar. Hatto toshni bir vaqtlar yerliklar ham qidirishgan ekan. Menimcha, yerlik alkimyogarlari falsafa toshi haqida o‘zga sayyoraliklardan eshitishgan bo‘lsa kerak. Xullas, bu toshni har davrda, hamma maxluqotlar qidirishgan. Lekin shu yoshga kirib biror kimsaning Moviy toshni topgani haqidagi xabarni eshitmadim. Kitoblardan esa bu tosh haqidagi turli afsonalarni o‘qıdim, xolos.

– Xaritachi, u haqida ham o‘qiganmisiz? – so‘radi Ahmad.

– Ha, albatta, ko‘p o‘qiganman, – u o‘rnidan turib Ahmadga yaqinlashdi. Katta qo‘llari bilan bolaning yuzini paypaslab ko‘rdi. – Sening bu yerga kelganingni eshitib xursand bo‘lib ketganingning boisi bor. Chunki kuni kecha sen haqingda qiziq bir ma‘lumotni o‘qib qoldim.

– Men haqimda?!

– Aniqrog‘i, odamzod haqida.

– Qanday ma‘lumot ekan? – qiziqib so‘radi Ahmad.

– Kel, yaxshisi, o‘sha kitobni o‘zing o‘qib ko‘r. – Ko‘rsichqon tokchadan katta bir kitobni olib stol ustiga qo‘ydi va kerakli sahifani ochdi. Ammo bu kitob o‘zga sayyoraliklar yozuvida edi.

– Mana bu ko‘zoynakni taqib kitobni o‘zing bilgan alifboda o‘qishing mumkin, – Ko‘rsichqon tortmadan oddiy ko‘zoynak olib uzatdi va so‘zida davom etdi: – Bu kitobni uncha taniqli bo‘lmagan bir tarixchi yozgan. Kecha menga uning yozganlari cho‘pchakdek tuyulgandi. Bugun esa... Iltimos, mana shu joyini ovozingni chiqarib o‘qi.

Ahmad ko‘zoynakni taqqanida kitobdagi yozuvlar



o‘zgarib, o‘zimizning lotin yozuvi paydo bo‘ldi. Keyin Ahmad ovozi chiqarib o‘qiy boshladi:

– “... Bu voqea meni juda qiziqtirib qo‘ydi. Keyin xarita haqida bobomdan so‘radim. Bobom esa o‘z bobosidan eshitganlarini aytib berdi. Afsonalarga ko‘ra, meriyalik yigit xaritani yashirish uchun galaktikaning olis bir burchagidagi Quyosh degan yulduzning yoniga uchib boribdi. Keyin afsonaviy Yer sayyorasiga qo‘nib xaritani o‘sha joyga yashiribdi. – Shu joyga kelganda Ahmadning tovushi titray boshladi. Kuchli hayajondan tomog‘i bo‘g‘ilib, so‘zlarni bazo‘r o‘qiy boshladi. – Bob... bob-o-omning... aytishicha, Yerda odam degan maxluq yashar ekan. Yigit xaritani shu odam... ...ning barmoq... shu odamning barmoqlariga yashirib qo‘yibdi...” – bu jumlaning o‘qigandan so‘ng, Ahmad uzoq vaqt kitob sahifasiga tikilib qarab qoldi. Keyin u tovush chiqarmay matnni qayta-qayta o‘qiy boshladi. So‘ng titragan qo‘llari bilan kitobni asta yopdi. Arang boshini ko‘tardi. Atrofdagilarga bir-bir qarab oldi. Sheriklarining unga qarab taxtaday qotib turganini ko‘rdi. Faqat Ko‘rsichqongina xotirjam – miyig‘ida jilmayib turardi...

Ahmad “katta qiyinchilik” bilan ular tomonga butun tanasi bilan o‘girildi. Hayajon bilan sekin cho‘ntagidan xarita bo‘laklarini chiqardi. Titroq bosgan qo‘llari bilan bo‘laklarni stol ustiga qo‘yib bir-biriga uladi. Xarita o‘rtasidagi tangadek keladigan ochiq joyga razm soldi. Endi boshqalarning ham ko‘zi shu tangadek joyga qadalgan – Ahmadning keyingi harakatini intqlik bilan kutishayotgan edi. Ahmad o‘ng qo‘lining bosh barmog‘ini shu tangadek joyga ohista bosdi. Shunda birdan xaritaning ulangan choklari yaraqlay boshladi. Keyin bu yaraqlash butun xaritani qamrab oldi. Judayam yorqin va sehirli nurlar xuddi soch tolalaridek xarita ustidan unib chiqib boshladi. Bu

nurli “soch tolalari” borgan sari uzunlashib, qalinlashib bir zumda butun o‘quv xonasini qamrab oldi. So‘ng bu nurdan sekin-asta galaktikadagi yulduz va sayyoralarning kichkina modellari ajralib chiqdi. Shu tarzda katta o‘quv zalida Somon yo‘li galaktikasining kichkina modeli – xaritasi vujudga keldi.

Xaritaning ochilishi judayam g‘aroyib, ta’rifi yo‘q hodisa edi. O‘quv zalida bunga guvoh bo‘lib turganlarning bari sal qolsa aqldan ozay dedi. Bir muddat ular joylaridan ham qo‘zg‘alolmay tosh qotib turishdi. Chunki ularning yon-atrofida uchib urgan yulduzlar xuddi rostakamga o‘xshar, tegib ketsang, kuydiradigandek tuyulardi. Bu sukunatni Ahmadning o‘zi buzdi:

– Margol, men qo‘limni qimirlata olmayman, xarita o‘chib qolishi mumkin. Siz Katta Magellan bulutini izlab topishga harakat qiling.

Karaxt bo‘lib qolgan Margol Ahmadning gapidan so‘ng bir necha soniya jim turdi. Keyin uni Moki asta turtib qo‘ydi. Margol uyqudan cho‘chib uyg‘ongan odamdek o‘ziga keldi. Hozir deb shunchaki qo‘llarini qimirlatgandi, xarita ham xuddi globus singari aylana boshladi. Margol aylantira-aylantira Katta Magellan bulutini, so‘ng uning ichidagi Gamma Oltin baliq yulduzini qidirib topdi. Shundan keyin yulduzning ustiga barmog‘ini tekizgandi, yulduz ustida uning koordinatalari paydo bo‘ldi. Birdan xarita ichida boshqa bir xarita paydo bo‘lib, Oltin baliq yulduziga olib boradigan yo‘lni ravshan ko‘rsatib berdi.

– Moki shu yo‘lni xotirangga saqlab qo‘yishing kerak!  
– dedi Ahmad.

Moki shu zahoti ko‘zlaridan taralgan lazer nurlari bilan xaritani skaner qilib oldi.

– Bo‘ldi, men uni xotiramga joylab qo‘ydim.

Ahmad hammasi risoladagidek ekaniga amin bo‘lgach

xaritadan barmog‘ini oldi. Xarita nurlari shu zahoti so‘ndi.

– Qara-ya, xaritani shuncha vaqtdan buyon barmog‘ingda olib yurgan ekansan! – dedi haligacha hayajonini bosa olmagan Margol.

– Aql bovar qilmaydi-ya! – Qo‘mondon holsizlanib kursiga o‘tirib qoldi. – Shu kunlarda koinotda ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan narsalar bo‘lyapti o‘zi...

Bu vaqtda Ahmad o‘zining barmoq izlariga sinchiklab qarash bilan band edi. U oldin ham bu izlarga ko‘p qaragan, lekin o‘sha kezlarda bu sirli izlar zamirida galaktika xaritasi yashiringan ekani xayolining bir chekkasiga ham kelmagandi. Ammo bugun u barmog‘idagi maxfiy kodlarning sirini anglab yetdi. Shu mo‘jaz barmoqlarida galaktikaning bir bo‘lagini olib yurganidan faxrlana boshladi. O‘zining naqadar kerakli va muhim inson ekanini his qildi.

Shu kuni qahramonlarimiz biroz hordiq chiqarib olishga qaror qilishdi. Chunki endi ular uchadigan manzil 169 ming yorug‘lik yili uzoqligida edi. Aslida, bunday masofani abadiyatga tenglashtirish ham mumkin. Zero, galaktikaning u boshidan bu boshigacha bo‘lgan masofa 100 ming yorug‘lik yilini tashkil qiladi. Katta Magellan buluti esa bizning Somon yo‘li galaktikasidan ham tashqarida, ancha olisda, joylashgan. Bunday uzoq yo‘lni bosib o‘tish galaktikada hali biror-bir fazogirga nasib qilmagan.

## **QAROQCHINING SO‘NGGI CHORASI**

Ertasi kuni ertalabdan yaxshilab dam olgan fazogirlar kemalarni safarga hoziray boshlashdi. Bu orada Ahmad donishmand Ko‘rsichqon bilan uzoq-uzoq suhbatlar qurdi. Ko‘rsichqon ham bu noyob bolakayga o‘zgacha mehr qo‘ydi. Ahmad sabab yerliklarni yanada ko‘proq hurmat

qila boshlaganini aytdi. Keyin Ko‘rsichqon yerlik do‘stini kutubxonadagi “Yer sayyorasi bo‘limi”ga olib bordi. Uni Yerdan olib kelingan nodir kitoblar bilan tanishtirdi. Ahmad balandligi 100 metr keladigan kitob javonlarining peshtaxtasidagi yozuvlarni bir-bir o‘qib kelarkan, ko‘zi “Ulug‘bek xazinasini” deb nomlangan javonga tushib qoldi. Ha, bu o‘sha, Mirzo Ulug‘bek vafotidan oldin shogirdi Ali Qushchi ko‘magida yashirishga muvaffaq bo‘lgan, ammo shu kunga qadar topilmagan xazina edi. Bu javonda Qadimgi Misr, Bobil, Xitoy, Yunoniston, Arabiston va Movarounnahr olimlarining eng sara asarlari jam bo‘lgandi. Bularni ko‘rgan kitobsevar qahramonimiz juda sevinib ketdi. Albatta, mazkur xazinani Yerdan olib ketishgani uchun o‘zga sayyoraliklardan o‘pkaladi va Ko‘rsichqonga yuzlandi.

– Axir, bu kitoblar Yerning mulki-ku! – dedi jahli chiqqanini yashira olmay.

– To‘g‘ri, ammo ularni biz olib ketmasak ham, odamlar baribir topa olishmasdi. Kitoblar esa yer ostida chirib ketgan bo‘lardi.

– Kitoblarni saqlab qolganingiz uchun rahmat! – biroz hovuridan tushdi Ahmad. – Ammo endi “xazina”ni o‘zimiz bilan olib ketaman.

– Kechirasan-u, lekin buning sira imkoni yo‘q. Kutubxonadagi har bir kitob Galaktika mulki hisoblanadi. Hatto men ham birortasini o‘zimiz uchun ololmayman.

– Nima, galaktikada adolat degan tushuncha yo‘qmi?!

– Bor, albatta! Agar da‘voying bo‘lsa, Galaktika Oliy Sudiga murojaat qil. Faqat, aytib qo‘yay, Sud arizangni ko‘rib chiqib, xulosa chiqargunicha bir yildan bir asrgacha vaqt o‘tib ketishi mumkin...

– Eh-he, bunaqa nayranglar boshqa joylarda ham bor ekan-da, – yana tumtayib oldi bola.

– Ahmad, sen meni ma'zur tut. Men shunchaki bu joyning oddiy xodimiman, xolos. Bu masalada senga yordam berolmayman...

Endi Ahmad boshqa chorasi yo'q ekanini tushunib yetdi. U do'stlaridan uni yana ikki soat kutib turishlarini iltimos qildi. O'zidagi noyob fotografik xotiradan foydalanib "Ulug'bek xazinasi"dagi o'nta eng nodir kitob matnini yodlab oldi. Shundan keyin juda charchab qolgan Ahmad Ko'rsichqon hamrohligida kemaga qarab yo'l oldi.

Bu vaqtda ekipajning boshqa a'zolari birin-ketin kemalarga mina boshlagandi. Jajji do'stiga o'rganib qolgan Ko'rsichqon uni kema yonigacha kuzatib qo'ydi. Mikslar ham, Margol va Moki ham kemaga chiqib ketishdi, ammo Ahmad hali ham Ko'rsichqon bilan kemanding yonginasida nimalarnidir gaplashib turardi. Axiyri ularning suhbatı poyoniga yetdi, shekilli, Ahmad qariyaning qo'llarini siqib qo'yib kema tomonga burildi. U endigina kema eshigiga qo'l cho'zgandi, kutilmaganda bir maxluq o'qday uchib keldi. Maxluq Ahmadni xuddi burgut o'z o'ljasini changallab olib ketganday bir hamlada yerdan uzib oldi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Bu maxluq Obmaning ishongan sarkardasi Rago edi. U Koinot jangi vaqtida qochib qutula olgan va jangdan omon qolgan boshqa qaroqchilar bilan yangi to'da tashkil qilgan edi. Xo'jayini Obma uchun qasos olishga qasam ichgan Rago "Ko'kkezar"ni anchadan buyon ta'qib qilib yurgandi. Mana, bugun ertalab u salmirliklarning tezkor kemasida Koinot kutubxonasiigacha yetib keldi. Bu safar Rago faqat Ahmadni mo'ljaliga oldi. Chunki u Ahmadsiz qolgan fazogirlar hech narsa qila olmasligini allaqachon anglab yetgandi.

Rago uchar mototsikliga o'tirib qahramonlarimizni uzoq vaqt kuzatib turdi. Uning baxtiga, hamma fazogirlar

kemalarga minib olganida ham Ahmad tashqarida sichqonga o'xshaydigan kattakon maxluq bilan suhbatlashib qoldi. Bu esa Rago uchun eng qulay vaziyat edi. U yashin tezligida uchib kelib epchillik bilan Ahmadni dast ko'targanicha qaroqchilar qo'nalg'asi tomon ketdi.

Ko'p o'tmay Ahmad o'zining o'g'irlanganini fahmlay boshladi. Ammo uning boshiga qop kiydirib qo'yishgani uchun qayerdaligini ham, uni kimlar o'g'irlaganini ham bilolmadi. Lekin tez orada uning boshidagi qopni olishdi. Shunda u o'zini bir to'da qaroqchilar qarshisida ko'rdi.

– Buni qaranglar, odam deganlari hali og'zidan suti ketmagan go'dak ekan-ku, – masxara qila boshladi Rago. Endi unga qo'shilib to'dadagi boshqa qaroqchilar ham qah-qah otib kula boshlashdi. Chindan ham ular Ahmadni haybatli va qo'rqinchli maxluq sifatida tasavvur qilishgan edi. Chunki butun boshli galaktikani zir titratgan qaroqchilarning mahv etilishida Ahmadning hissasi katta edi-da.

– Biz odamlarda bir maqol bor, – Ahmad shunday deb gap boshlashi bilan bir-birini tutib, yelkalarini qoqib kulayotgan qaroqchilar jim bo'lib qolishdi. – Aql yoshda emas, boshda... Ha, yana bir maqol – Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r – mingni. Xullas, biz, yerliklar, odamning yoshiga yoki kuchiga emas, balki aql-farosatiga qarab baho berishga harakat qilamiz.

– Bo'ldi-bo'ldi, bunaqa mahmadonaliging bizga o'tmaydi, – gapda yengilib qolgani uchun qo'pollik qilishga o'tdi Rago. – Xo'sh, mana shu aqling bilan hozir mening tutqunim bo'lib o'tiribsan-ku!

– To'g'ri, lekin bu ham men uchun bir sinov bo'lishi mumkin!

– Unda o'ta og'ir sinovga tayyor tur. Men seni suvsiz, ovqatsiz zindonband qilmoqchiman! Qachonki

hamtovoqlaring mening shartlarimni bajarishsa, ozod bo‘lishing mumkin. – Rago shunday deb qaroqchilarning biriga ishora qildi. Qaroqchi esa Ahmadni qo‘ltig‘idan mahkam ushlab tortqilagancha temir qafasga olib borib qamab qo‘ydi.

Qaroqchilar Koinot kutubxonasi sayyorasining ovloq joyi – chiqindixonadan qo‘nim topishgan bo‘lib, bu joyda chirib, yaroqsiz holga kelib qolgan kitoblar saqlanar edi. Uyum-uyum bo‘lib yotgan millionlab kitoblarga qurt tushib ketgan. Juda zax bo‘lgani uchun hasharotga o‘xshaydigan jonzodlar urchigan joy edi bu. Ahmad tez orada sovqota boshladi. Xayoliga kelgan birinchi narsa qochish haqidagi fikr emas, balki “Har holda, bu kitoblardan nusxa ko‘chirib olingan bo‘lsa kerak?” degan o‘y bo‘ldi.

## RAGONING SHARTLARI

Ahmadning o‘g‘irlanishi “Ko‘kkezar”ning boshqa fazogirlari, mikslıklar va Ko‘rsichqonni qattiq qayg‘uga solib qo‘ydi. Chunki ular, mana, bir necha soat o‘tsa hamki, Ahmadni kim nima maqsadda olib ketganini bilolmay tang ahvolda edilar. Fazogirlarimiz har qancha keng qamrovli qidiruv ishlarini olib borishmasin, bolakaydan biror iz, darak topib bo‘lmasdi. Chunki sayyora juda katta edi-da!

Hammadan ham Margolga juda qiyin edi shu lahzalarda. Chunki u jajji do‘stining hayoti uchun mas‘ul. Shu sabab Ahmadni bir daqiqaga nazoratsiz qoldirgani uchun o‘zini hech kechira olmayotgandi shu tobda.

Biroq tushdan keyin Moki “Ko‘kkezar”ning shundoqqina tagidan xat topib oldi. Xatni noma‘lum

kimsa ular qidiruv ishlarini olib borishayotganda tashlab ketgandi. Moki xatni tez ochib boshqalarga ham eshittirib o‘qiy boshladi:

*«Men General Obmaning o‘ng qo‘li, ishongan sarkardasi Rago bo‘laman. Sizning odamingiz bizda. Uni asir olganmiz, ammo quyidagi shartlarimizga ko‘nsangiz, uni qaytaramiz:*

*1. Genaral Obmani ozod qilasiz.*

*2. Xaritaning hamma qismlarini bizga berasiz.*

*3. “Ko‘kkezar” va abadiy energiya generatorini ham olishimiz shart!*

*Agar shartlarim ertaga yulduz botgunicha bajarilmasa, Ahmadni Qora tuyrukka uloqtirib yuboramiz. Biz bilan aloqaga chiqish uchun radioto‘lqindan xabar yuboring. To‘lqinni o‘zimiz tutib olamiz. Tamom».*

– Endi shunisi yetmay turgandi. Bu qaroqchilarning dastidan galaktikada tinchlik yo‘g‘-a! – tutaqib ketdi qo‘mondon Dordon.

– Yo‘q-yo‘q, ularga xabar bering, tezroq hammasini bajaramiz deng, – talvasaga tushib qolgan Margol Dordonning zirhli kiyimidan tortqilay boshladi.

Ammo Dordon harbiylarga xos sovuqqonlik bilan Margolning ko‘zlariga tik boqdi. So‘ng qo‘llarini Margolning yelkasiga qo‘yib, qattiq siqib qo‘ydi:

– O‘zingizni bosib oling, shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmang! – tanbeh berdi qo‘mondon. – Birinchidan, ularning shartlarini bajarish imkonsiz, ikkinchidan, shartlarni bajarganimiz bilan, ular Ahmadni qo‘yib yuborishiga kafolat yo‘q!

– Nega imkonsiz bo‘lar ekan?!

– Axir, xaritaning bir bo‘lagi uning barmog‘ida-ku! Nima, barmog‘ini kesib bermoqchimisiz?! Bundan tashqari, Obmani ikki hafta oldin Sudga topshirganmiz. Uni



allaqachon qatl qilishgan bo‘lishlari ham mumkin.

– Lekin nimadir qilishimiz kerak-ku!

– Ha, hozir men shu haqda o‘ylayapman. Kimda qanday fikr bor, sizlar ham taklif bering. – Dordon hammaga bir-bir qarab chiqq boshladi.

Shu payt Mokining boshidagi chiroqlari lipillab yonib, unda ajoyib g‘oya tug‘ilganidan darak berdi:

– Mayli, ularga radioto‘lqindan xabar jo‘natamiz. Ammo ulardan javob kelganida to‘lqin qayerdan kelganini aniqlab, o‘sha joyga bostirib boramiz!

Bu g‘oya haqiqatda yaxshi edi. Qo‘mondon zudlik bilan Mokining antennalari orqali qaroqchilarga xabar yubordi: “Men qo‘mondon Dordonman. Sening shartlaringga rozimiz, faqat bizga vaqt ber. Obmani ertagacha ozod qilish imkonsiz. Chunki u olis Galaktika Sudi binosida”.

Tez orada Ragoning ovozi yozilgan javob ham yetib keldi: “Yo‘q, vaqt bermaymiz. O‘sha olis joyga «Ko‘kkezar» bilan ertalabgacha yetib borsa bo‘ladi». Ular javobni eshitib bo‘lgunlaricha Moki to‘lqin kelayotgan joyni aniqladi. Shu zahoti hamma o‘sha to‘lqin uzatilgan joyga uchib bordi. Ammo bu joyda hech kim yo‘q edi. Chunki Rago ham unchalik ahmoq emasdi. U javobni o‘z qo‘nalg‘asidan chiqib umuman boshqa joydan yuborgan, keyin javob uzatilishi bilan iziga qaytgan edi. Mokining rejasi chippakka chiqqanidan so‘ng fazogirlarning hafsalasi pir bo‘lib yana ortga qayta boshlashdi. Yo‘l davomida o‘ylanib kelgan Margol boshqa bir taklifni aytdi:

– Qanday bo‘lmasin Ahmadning ovozini eshitishimiz kerak. Ishonchim komil, u biror chora o‘ylab o‘zi turgan joyni bizga bildiradi.

Shuday qilindi ham. Ragoga “Ahmadning ovozini eshitib, uning sog‘-salomat ekaniga ishonch hosil qilmagunimizcha hech qanday chora ko‘rmaymiz” degan xabar yuborishdi.

Bu xabarni olgan Rago Ahmadning yoniga kelib, chiqindixonona haqida churq etmaslik sharti bilan sheriklariga xabar yo'llashiga ruxsat berdi. Rago bu xabarni yozib olib yana sayyoraning boshqa bir burchagiga uchib ketdi.

Yangi kelgan xabarda Ahmad jo'rttaga o'zini qiynalib, qo'rqib ketganga solib gapirgani sezilib turardi: "Meni tezroq qutqaring. Ularning hamma shartlariga rozi bo'ling, iltimos! Bu joy juda sovuq, dahshatli suvarak va qurtlardan juda qo'rquyapman".

Bu xabarni hamma birgalikda eshitdi. Ko'pchilik Ahmadning turgan manzili haqida hech narsa demaganidan afsuslandi. Donishmand Ko'rsichqon esa boshini sarak-sarak qilganча miyig'ida kulib dedi:

– Obbo, bola tushmagur-ey, axir, bu kutubxonamizning chiqindixonasi-ku!

Hamma birdan Ko'rsichqonga hayron boqib qoldi.

– Chiqindixonona juda zax, sayyorada faqat o'sha joyni turli hasharotlar bosib ketgan.

Endi hammasi ayon bo'ldi. Ahmad o'zining zehni bilan yana bir bor do'stlariga yordam berayotgandi. Fazogirlar zudlik bilan qutqaruv rejasini tuzib, keyin chiqindixonona tomon yo'l olishdi. Ammo bu safar o'zlarining kemasida emas, balki chiqindixonona har kuni yaroqsiz kitoblarni olib boradigan yuk tashuvchi kemada yo'lga chiqishgandi. Qaroqchilar ularni sezib qolishmasligi uchun esa ustlaridan uyum-uyum chirigan kitoblarni ham bostirib olishdi.

Haydovchisiz yuk kemasi chiqindixonona tez-tez kelib turgani sabab bu safar ham qaroqchilar unga e'tibor berishmadi. Ko'p o'tmay kema chiqindiga qo'shib bizning fazogirlarni ham yerga to'kib, ortiga qaytib ketdi. Bu vaqtda Rago Dordondan hali ham javob kelmayotgani uchun tutaqib, u yoqdan bu yoqqa tinimsiz yurib turardi. Shu

payt chiqindilar oralab emaklab kelayotgan qutqaruvchilar hech nimadan bexabar o'tirgan qaroqchilarga qo'qqisdan hujum qilib qolishdi. Bu vaziyatda qaroqchilar quollarini qo'lga olish tugul, o'rinlaridan turishga ham ulgurishmadi. Bir zumda hammaning peshonasiga to'pponcha qadaldi. Dordon to'g'ri Ragoning oldiga bordi-da, uning yoqasidan g'ijimlab yuqoriga ko'tardi, qaroqchining ko'zlariga nafrat bilan tik boqdi. So'ng bir og'iz so'z demay qattiq siltadi-da, chiqindilar orasiga uloqtirib yubordi. Askarlar tez borib yerda chalpak bo'lib yotgan Ragoning qo'llarini kishanladi. Margol esa yugurib borib Ahmad o'tirgan qafasni ochdi. Jajji do'stini qattiq quchoqlab, undan kechirim so'radi. Ahmad esa unga hech narsa qilmaganini, hammasi ortda qolganini aytib Margolni tinchlantirishga urindi.

Bu voqea hamma uchun dars bo'lgandi. Qo'mondon Dordon fazogirlardan bir lahza bo'lsa ham hushyorlikni yo'qotmaslikni talab qildi. Shu kuni qaroqchilarning bari qo'l-oyoqlari boylanganicha ikki miksluk askar tomonidan salmirluklar kemasiga o'tqazilib, Obmaning yoniga – Koinot Sudiga olib ketildi. Dordon o'z askarlariga qaroqchilarni Sud hukmiga topshirgandan so'ng to'g'ri Koinot muzeyiga borishni va u yerdan salmirluklarni olib Salmir sayyorasiga uchishni buyurdi. Bizning qahramonlarimiz esa o'z kemalarida Katta Magellan bulutiga yo'l olishdi. Rejaga ko'ra fazogirlar Gamma Oltin baliq yulduzi yaqinida yagona hisoblangan Olmos sayyoraga qo'nishlari kerak.

“Ko'kkezar” Katta Magellan bulutigacha naq uch oy uchdi. Bu vaqt ichida Mokidan tashqari hamma uyqu eliksirini ichib, uyquga ketgandi. Kema Gamma Oltin baliq yulduziga yetib kelganda Moki hammani bir-bir uyg'otib, ularga qaynoqqina qahva quyib berdi.

## MOVIY TOSH

\*\*\*

*Koinotda chindan ham sof olmosdan iborat bo'lgan ekzosayyoralar mavjud. Fan tilida ular "Uglerodli sayyoralar" nomi bilan mashhur. Chunki bu sayyoralarning asosiy qismi uglerod moddasidan tashkil topgan. Sayyoraning tortishish kuchi uglerodni shu qadar kuchli siqqanki, natijada bu modda olmosga aylanib qolgan. Qarangki, bu sayyoralardagi tog '-u toshlar ham olmosdan bo'lar ekan!*

Mokining aytishicha, Olmos sayyorada  $N_2G$  g'ij-g'ij emish. Uni qadimgi marslik olimlar uzoq yillik tadqiqotlar natijasida aniqlashgan. Buning uchun ular Olmos sayyorani teleskop orqali kuzatib, undan taralayotgan nurlarni tahlil qilishgan. Bu jarayonlarda Mokining o'zi ham ishtirok etgan ekan.

Fazogirlarimiz ham vaqtni boy bermay to'g'ri Olmos sayyora tomon borishdi. Ular sayyora sathiga qo'nib, kemadan tashqariga chiqishganida Ahmad o'zini ertaklardagi billur shaharga tushib qolgandek his qildi. Chunki bu sayyorada hamma narsa: tog'lar, toshlar, hatto tuproq ham olmosdan edi-da!

Margol esa hech narsaga qaramay burg'ilovchi qurilmasini ishga tushirib  $N_2G$  ni qidirishni boshlab yubordi. Ahmad ham unga ko'maklashdi. Ko'p o'tmay qurilma bir joydan moviy tosh borligini aniqladi. Bu vaqtdagi Margolning quvonchini so'z bilan ta'riflash mushkul. Uning ko'zlaridan oqayotgan duv-duv quvonch yoshlari hammasi haqida so'zlayotgandek edi go'yo!

Margol maxsus uskuna bilan ko'rsatilgan joyni qazib, besh dona, hajmi yong'oqdek keladigan kristall topdi. U

toshlarning uchtasini o‘zi uchun olib, qolgan ikkitasini Ahmadga uzatarkan dedi: “Bu senga. Qachonlardir, Yer sayyorasining yadrosi ham so‘nishi mumkin. O‘shanda odamlar Moviy toshni qidirib, galaktikani kezib chiqmaydilar”. Margolning gaplarida jon bor edi. Shu sababli Ahmad toshlarni olib cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

Shuncha uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib kelishlariga qaramay, qahramonlarimiz Olmos sayyorada atigi to‘rt soat bo‘lib, so‘ng to‘g‘ri Sirius yulduzi tomon uchib ketishdi.

## SALMIR SAYYORASI

\*\*\*

*Sirius yerdan qaraganda samodagi eng yorqin yulduzlardan biri hisoblanadi. Yorqinlikda undan Quyosh, Oy, Venera, Mars va Yupiter kabi osmon jismlari o‘ta oladi, xolos. Yer sharining deyarli barcha joylaridan ko‘rinadigan bu yulduzning nomi ham ko‘p. Masalan, bobolarimiz uni She‘ro deb atashgan. She‘ro yulduzi haqida muqaddas Qur‘oni karimda ham eslatiladi.*

*Sirius Quyoshga eng yaqin yulduzlardan biri sanaladi. U bizdan 8,6 yorug‘lik yili masofasida joylashgan. Demak, yorug‘lik tezligida uchilsa, Siriusga 8-9 yilda yetib borish mumkin bo‘ladi.*

*Kuzda Sirius yulduzini tong payti, qish va bahorda esa kechasi ko‘rish mumkin. Ammo yozda uni osmondan topib olish ancha qiyin. Sababi, Quyosh nurlari bu yulduzni to‘shib qo‘yadi.*

*Sirius Quyoshdan 22-marta katta. Ammo koinotda Quyoshdan ming marta katta yulduzlar ham borligini*

*hisobga olsak, aslida, Sirius ham “jajji” yulduz ekani ma’lum bo’ladi.*

*Olimlarning aniqlashicha, qadimda bu yulduz qizg’ish rangda ko’ringan bo’lishi mumkin. Chunki ba’zi tarixiy olimlar She’roning qizg’ish tuldagi yulduz ekanini yozib qoldirishgan. Ammo hozirda u och moviy rangda. Yillar o’tishi bilan Sirius yanada yorqinroq charaqlay boshlaydi. Chunki u soniyasiga 7 km tezlik bilan Quyosh tizimiga, ya’ni bizga yaqinlashib kelmoqda.*

“Ko’kkezar” Salmir sayyorasiga yaqinlashib qolganida Margol bir narsani eslab qoldi. U Ahmadga yuzlanib so’zlay boshladi:

– Ahmad, sen galaktikadagi safarimiz davomida shunchalar ko’p o’zga sayyoraliklarni, “dahshatli” maxluqlarni ko’rdingki, endi ulardan qo’rqishingga ishonmay qoldim.

– To’g’ri aytasiz, hecham qo’rqmayman. Lekin buni nega atyypsiz? – ajablanib so’radi Ahmad.

– Meni tushunmading, chog’i. Qara, men hali ham yerliklar qiyofasidaman-ku!

Bu gapdan so’ng Ahmad rosa qotib kuldi. Chunki u haligacha o’zga sayyoralik eng yaqin do’stining haqiqiy yuzini ko’rganicha yo’q edi-da.

– Margol, sizdan iltimos, niqobingizni yeching. Siz bilan boshqatdan tanishishimiz kerak! – yana kuldi Ahmad.

Shundan so’ng Margol boshining orqa tomoniga ikki qo’lini cho’zib, sekin-asta niqobini yecha boshladi. Avvaliga uning katta kal boshi, keng peshonasi, keyin piyolaning og’zidek keladigan tim qora ko’zlari, jajji burni va og’zi ko’rindi. Margol Ahmad tasavvur qilganiday semiz emas, balki baliq qiltanog’iday ingichka edi. Unga bir muddat o’ychan qarab qolgan Ahmad kutilmaganda yana qah-qah otib kulib yubordi.

– Nega kulasan?

– Yo‘q, siz xafa bo‘lmang, shunchaki, shu holingiz bilan zahira kapsulasini Mirzacho‘ldan ko‘tarib olib kelganingizga ishongim kelmay qoldi, – dedi Ahmad o‘zini kulgidan to‘xtata olmay.

Bolaning bu beg‘ubor kulgisi Margolga ham ko‘chib o‘tdi. Bir muddat ikkovlashib kulishdi. Ular shu tarzda qaytadan tanishib olishdi. Bu orada Moki kemani Salmir sathiga qo‘ndirib ham bo‘ldi.

Qahramonlarimizni kutib olish uchun butun Salmir xalqi ko‘chalarga chiqib kelgan, “Ko‘kkezar”ning sayyoraga qo‘nish jarayoni esa millionlab joyga o‘rnatilgan ulkan monitorlarda “jonli efir”da ko‘rsatilayotgan edi. Sayyora aholisi uzoq yillik tashnalikdan, kislorod yetishmasligi va turli kasalliklardan sillasi qurigan, bemajol bo‘lib qolgandi. Fazogirlar kema eshigini ochib tashqariga chiqishganida ularni Salmir prezidenti va oldinroq sayyoraga qaytib kelgan Gedar Vu qarshi oldi. Margol ham xalqini ko‘p ilhaq qilmay, cho‘ntagidagi Moviy toshni olib yuqoriga ko‘tardi. Shu lahzada butun sayyora qichqiriq – shod-u xurram ovozlardan larzaga keldi. Margol toshni prezidentga topshirdi. Prezident esa Margolni bag‘riga bosib xalq nomidan minnatdorlik izhor qildi. So‘ng olimlarga N<sub>2</sub>G ni zudlik bilan sayyora yadrosiga tashlashni buyurdi.

Uzoq yillik ilmiy tekshirishlar jarayonida salmirlik olimlar sayyora yadrosigacha tunnel qazib borishgandi. Yadro deyarli so‘nib bo‘lgani uchun bu tunnelda bemalol harakatlanish ham mumkin. Ular yadroga Moviy toshni tashlashganidan so‘ng bu tunnyel maxsus beton bilan bir zumda ko‘mib yuborildi. Chunki yadro jonlangach qaynoq lava shu tunnyeldan favvora kabi otilib chiqishi hech gap emas edi.

Bir soat o‘tar-o‘tmas sayyorada kuchli yer silkinishi yuz berdi. Bu sayyora yadrosining qayta jonlanganidan darak beruvchi omil edi. Go‘yo sayyora uzoq uyquga ketgan-uni kimdir turtib uyg‘otib yuborganday bo‘ldi. Tez orada uning tabiati ham jonlana boshlaydi, qurigan o‘rmonlar o‘rnida yangi nihollar unib chiqadi. Atrofni yashillik qoplab, atmosfera kislorod bilan to‘yinadi. Toza havodan to‘yib-to‘yib nafas olgan salmirliklarning tanasidan dard-u anduh ariydi.

Ahmad Salmir sayyorasida yana bir kun bo‘ldi. U Margolning oilasi bilan tanishdi. O‘zining hali yosh bola ekani yodiga tushib Margolning farzandlari bilan mazza qilib o‘ynadi. Ularga qo‘shilib hatto Moki ham asli robot ekanini unutib qo‘ydi. Ertasi kuni ko‘rsatgan buyuk xizmatlari uchun prezident Ahmad, Margol va Dordonni sayyoraning eng oliy mukofoti – “Salmir iftixori” ordeni bilan taqdirladi. Ularning sharafiga juda katta tantana tashkil etildi. Shundan so‘ng mehmonlar ketishga hozirlik ko‘rishdi. “Ko‘kkezar” sirti vaqt tuynugini hosil qiluvchi uskuna bilan jihozlandi. Margol, Ahmad va Moki “Ko‘kkezar”ga, mikslıklar esa o‘z kemalariga minishar ekan, ular shu joyda xayrlashishdi. Ahmad xaritaning uch bo‘lagini Dordonga berarkan, “Barmog‘im haqida hech kimga gullab qo‘ymang”, – deb hazillashdi. Dordon esa qat‘iy ohangda: “Bu sir qolgan xarita bo‘laklari kabi hech kimga oshkor qilinmaydi”, – deb javob berdi.

“Ko‘kkezar” samoga ko‘tarildi. Endi Ahmadni galaktikamizning uzoq burchagida joylashgan afsonaviy Yer sayyorasi kutmoqda edi.



## UYGA QAYTISH

Uy Ahmad uchun juda-juda olisda. U qancha vaqt galaktikada adashib yurdi, qancha vaqtni uyquda o‘tkazib yubordi – buning aniq hisobini hech kim bilmaydi... Har qalay, bu Yer hisobi bo‘yicha bir necha yuz yillarga teng muddat ekani aniq!..

Ahmad va Moki safar oldidan xaritani yana bir bor yoqib, Yerga olib boruvchi yo‘lni o‘rganib chiqishgandi. Shundan so‘ng Moki bu yo‘lni o‘z xotirasiga muhrlab olgan. Hozir u xotirasidagi Yer koordinatalarini kema kompyuteriga yukladi. Margol esa bu paytda vaqt tuynugini ochib beruvchi uskunalarni ishga tushirdi. Bu uskunalar atom zarrasidan ham kichik bo‘lgan o‘ta mayda tuynuklarni kattalashtirib, o‘tgan zamonga qaytish imkonini beradi. Rejaga ko‘ra “Ko‘kkezar” Quyosh tizimiga kirib kelganida Margol shu uskunalarni yoqib Ahmadni vaqt tuynugidan o‘tkazib yuborishi kerak.

Kema gravitatsiya to‘lqiniga kirib olganida Margol jajji do‘stiga yuzlanib dedi:

– Qadrdonim, tez orada sen uyingda bo‘lasan. Ammo biz hozir xayrlashib olishimiz kerak. Chunki vaqt tuynugiga yaqinlashib qolganda bunga imkon bo‘lmaydi.

– Ha, to‘g‘ri! Margol, siz bilan tanishib, galaktika bo‘ylab xatarli sayohatga chiqqanimdan afsusda emasman. Aksincha, salmirliklarni muqarrar halokatdan qutqarishga hissa qo‘shganimdan baxtiyorman! Yana siz, Moki, Dordon, Ko‘rsichqon kabi do‘stlar orttirganim uchun ham xursandman.

– Men ham hammasi uchun sen va yerliklardan minnatdorman! Endi boshqa ko‘risha olmasak-da, biz, salmirliklar, seni hech qachon unutmaymiz.

– Men ham seni sog‘inaman – dedi Moki ham temir qo‘llarini Ahmadning yuziga cho‘zib...

Ular shu alpozda yana biroz suhbat qurishdi. Margol “Ko‘kkezar”ni avaylab-asrashini, Mokini esa o‘zi bilan Salmirga olib ketishini aytdi. Bu vaqtda uyqu eliksirini ichgan Ahmadning ko‘z oldi xiralashib, asta-sekin uyquga keta boshlagandi...

\* \* \*

– Ahmad, tura qol, o‘g‘lim.

Oyisining ovozini eshitgan Ahmad sapchib o‘rnidan turdi.

– Oyi, oyijon, nahotki, bu sizsiz?! – oyisining bo‘yniga osilib mahkam quchoqlab oldi Ahmad.

– Senga nima bo‘ldi, o‘g‘lim, yomon tush ko‘rdingmi deyman.

“Tush” so‘zini eshitgan Ahmad bir muddat o‘ylanib qoldi. “Eh, yaxshiyam, tushim ekan! Voy-bo‘o‘, tushimda qayerlarga borib kelmadim-a”. Yuzida tabassum bilan hammasini eslay boshladi u.

– Shu xayolparastliging tushlaringda ham davom etadi-ya, o‘g‘lim, – kulib o‘g‘lining yuzidan o‘pib qo‘ydi oyisi. – Aytgancha, o‘g‘lim, bugun qanday kun ekani esingdami?

Ahmad shu zahoti devorga osilgan taqvimga qaradi. Taqvim 2036-yilning 25-iyun sanasini ko‘rsatardi.

– “Ixtirochilar tanlovi” bo‘ladigan kun emasmi? – so‘radi Ahmad o‘ziga ishonmay.

– Bu nima deganing, albatta, o‘sha kun. Tez yuz-qo‘lingni yuvib, oshxonaga chiq, dadang ham kutyaptilar. Nonushtadan so‘ng shaharga ketamiz.

Oyisi shunday deb xonani tark etdi. Ahmad esa yana biroz boshini qashigancha o‘ylanib o‘tirdi. So‘ng: «Eh, tush bo‘lsa tushdir-da», – deb karavotidan tushdi. Shu payt cho‘ntagida qandaydir og‘ir narsa borligini payqadi. Qo‘llarini cho‘ntagiga solib o‘sha og‘ir narsalarni chiqardi.

Bu o'sha Olmos sayyorasida cho'ntagiga solib qo'ygan ikkita yong'oqdek keladigan Moviy toshlar edi. "Demak, bu tush emas! Margol meni u bilan ilk tanishgan kunimizga qaytarib olib kelgan, xolos", – o'yladi Ahmad.

***Davomi bor...***  
2016 – 2019-y.

\*\*\*

*Mazkur asarning davomini "Koinot javohiri"  
(Galaktikada bir kun – 2) kitobida o'qishingiz mumkin.*



 @bolalar\_yozuvchisi

 quronov@gmail.com

 www.quronov.uz

## MUALLIF HAQIDA

### Sa'dullo Qurunov Dilmurodovich

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Ijodiy faoliyatini "Jajji akademik" bolalar jurnalida boshlagan. Uning "Galaktikada bir kun", "Koinot javohiri" nomli ilmiy-fantastik qissalari, "Mening galaktikam", "Jajji huquqshunos", "Jajji akademik super qahramon – komiksi", "Sog'lomjon", "Jajji jamg'arma", "Bolalar uchun huquqiy ensiklopediya" kabi to'plamlari nashr etilgan.

Shu bilan birga, u umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mo'ljallangan "Ona tili va o'qish savodxonligi", "Ona tili" darsliklari mualliflaridan biri.

### Kitob olgan mukofotlar:

1. "Tahsin – 2021" mukofoti bilan taqdirlangan.
2. "Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob" tanlovida 2-o'rin.